



G. ALIMOVA, M. MIRSODIQOVA

TARIHIY-TEATR LIBOSLARINI LOYIHALASH SAN'ATI



*Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi o'quv metodik
birlashmalar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi
Kengash nashrga tavsiya etgan*

Taqrizchilar:

- Z.Sh. Mirusmanova** — Respublika rassomlik kollejining
Badiiy-tarixiy libos kafedrasi mudiri,
F.Z. Ataxanova — Kamoliddin Behzod nomidagi milliy rassomlik
va dizayn institutining
Libos dizayni kafedrasi katta o'qituvchisi

Mazkur qo'llanmada zamonaviy va teatr liboslari kompozitsiyasini yaratish qonun-qoidalari, rang xususiyatlari, inson ruhiyatiga ranglarning ta'siri, uyg'un ranglar hosil qilish, libosda rang tanlash usullari bayon etilgan. Qo'llanma matni suratlar bilan boyitilgan, mavzularni puxta o'zlashtirishga oid bir qator amaliy mashg'ulotlar berilgan.

Ushbu o'quv qo'llanma rassomlik va san'at kollejlariining o'quvchilari uchun mo'ljallangan.

O'quv qo'llanmadan, shuningdek, respublikamizning san'atga oid litsey o'quvchilari va oliy o'quv yurtlari talabalari ham foydalanishlari mumkin.

A 2004070000-108 — 2007
360/04/-2007

ISBN 978-9943-05-127-0

KIRISH

Tarixdan ma'lumki, O'zbekiston hududida san'atning rivojlanishi o'zining yuksak cho'qqilariga erishgan davrlari bo'lgan. Ota - bobolarimiz mehnati tufayli me'morchilik, maishiy buyumlar, libos va badiiy matolar kabi san'at yo'nalishlari o'zlarining noyob durdona asar darajasi maqomiga erishgan. Qadimgi liboslar matoning tabiiy xomashyolardan tayyorlanganligi bilan sharoitimizga mos bo'lib, ulardagi rang va naqshlar millatimizning madaniyati, urf-odatlarini aks ettirgan.

Hozirgi kunda rassom-modelyerlarimiz oldida qadimgi an'analardan foydalanilgan holda zamon talabiga javob beradigan mahsulotlarni yaratishda yuksak badiiy natijalarga erishish kabi dolzarb vazifa turibdi. Zamonaviy insonning didi zamon bilan hamohang tarzda rivojlanib bormoqda. Uning badiiyatga bo'lgan talabini qondirish, ayniqsa, liboslar kompozitsiyasi sohasida rassom-modelyerlardan yuksak iste'dod, did va mahoratni talab qiladi.

Badiiy hamda tarixiy-teatr libosi mutaxassisligi bo'yicha yozilgan ushbu o'quv qo'llanma rassomlik va san'at yo'nalishi bo'yicha kasb-hunar kollejarining o'quvchilari uchun mo'ljallangan.

Mazkur o'quv qo'llanma qator bo'limlarni o'z ichiga olganki, «Zamonaviy libos va teatr liboslarini loyihalash» bo'limida kompozitsiyalar yaratish qonun-qoidalari, rang xususiyatlari, inson ruhiyatiga ranglarning ta'siri va uyg'un ranglar hosil qilish usullari keng yoritilgan. Kompozitsiya asoslariga bag'ishlangan bo'limda libosda yagona uyg'un bir yaxlitlikka erishishga xizmat qiluvchi naqshlar elementlarini badiiy tizimlashtirish qonun-qoidalari bayon etiladi. Bu bo'lim badiiy liboslar kompozitsiyasini qurish qonun-qoidalari, libosda rang tanlash usullari haqidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan.

Sahna asarlariga ishlanadigan libos kompozitsiyalarning eskizini yaratishda, har bir qahramonning timsolini ochib berish muhim o'rin tutadi, shuning uchun bu yerda rassom-modelyer o'ziga xos qonun-

qoidalaridan foydalangan holda yuksak iste'dodini va fantaziyasini ishga solishi kerak bo'ladi.

«Teatr liboslarini loyihalash» bo'limida sahnaviy asarlarga liboslar kompozitsiyasini ishlashda ahamiyat berish zarur bo'lgan qonun-qoidalar keng yoritilgan.

Kompozitsiya fani ustida ishlash, insonni nozik did va his-tuyg'ularga ega bo'lishini shakllantirib, undan juda katta sezgirlikni talab qiladi. «Kompozitsiya» so'zi lotin tilidan «ko'rish», «barpo etish», ya'ni go'zallikni yaratish ma'nolarini anglatib, uning bunyodkorlik jarayoni — murakkab va ko'p qirrali mehnatga tayanadi. Badiiy g'oya — insonning his-tuyg'usi, nozik tabiati, fantaziyasi, shuningdek, rassom tasavvurining mahsulidir. Biroq dastlabki badiiy g'oya qanday bo'lmasin, uni yanada aniqlashtirish va mohiyatni yoritib berish uchun amaliy tajribada orttirilgan bilimlarga tayanib, unga mantiqan yondoshish zarur. Bunday amaliy tajriba umumiy kompozitsiya qonuniyatlari, ya'ni estetik qonuniyatlar hamda ornamental (naqshli) kompozitsiyalar yaratish qoidalariga rioya qilishda o'z aksini topgan. Naqshli san'at asarini bunyod etishning asosiy qonuni, undagi shakllarning butunligi va o'zaro uyg'unligidadir. Naqshli kompozitsiya yaxlitligini fon (zamin), ya'ni asosiy rangi, suratlar va naqshli shakllar ranglari, ritmik va plastik uyg'unliklar orasidagi to'g'ri topilgan nisbatlar tashkil qiladi.

Masalan, kompozitsiya fikriga oydinlik va butunlik kiritish uchun biror-bir tizim (statika yoki dinamika) ikkinchisidan ustunlik qilmog'i darkor, ya'ni rangi, yorqinligi, grafik tasviri bo'yicha biri ikkinchisidan faolroq qatnashishi kerak. Shu kabi nozik qonun-qoidalariga rioya qilingan taqdirdagina, biz hissiyotimizdan kelib chiqqan, dastlabki g'oyamizni san'at darajasiga ko'tarishimiz mumkin.

San'at darajasiga yetgan mahsulotga esa zamonaviy inson befarq bo'la olmaydi, unda ushbu mahsulotga egalik qilish hissi paydo bo'ladi, chunki bunday asarlar hamisha insonlarning kayfiyatiga ko'tarinkilik bag'ishlab, nazarini dam oldiradi, ularni ilhomlantirib, yangiliklar va hayrli ishlar sari intilishga undaydi. Qolaversa, uning atrofini o'rab turgan nafosat va go'zallik, uni jamiyatimiz a'zosi sifatida madaniylashgan, yuksak saviyali komil inson bo'lib shakllanishiga turtki bo'la olishi tabiiydir.

Ushbu fandan olgan barcha bilim va ko'nikmalardan foydalanib, bo'lajak rassom-modelyerlar aholining ijtimoiy, estetik va madaniy jihatdan yetuklikka erishuviga ko'maklashadi: yuqori darajadagi fuqarolik va axloqiy sifatlariga ega bo'ladi, davlatimizning iqtisodiy, siyosiy maqsadini yaxshi tushunadi, ijtimoiy ishlab chiqarishning taraqqiyotiga o'z hissasini qo'shadi.

1.1. KOMPOZITSION YAXLITLIK

Naqshli kompozitsiya yaratish ko'p asrlik amaliyot mahsuli. Uning estetik saranjomligiga erishish yo'lida izlanish bir qancha qonuniyatlar yuzaga keltirgan. Bularning ba'zilari umumiy qonuniyatlar bo'lsa, ba'zilari maxsus qonuniyatlardir. Kompozitsiya qurishdagi sodda vositalar — bu chiziqlar va nuqtalar hisoblanadi. Sekin-asta chiziqlar statikasi va dinamikasi yuzaga keladi. So'ng ikki o'lchamli naqshlar paydo bo'ladi. Keyinchalik ushbu naqshlar hajmga ega bo'ladi. Rassom grafikaning sodda shakllarini tasavvurida jonlantiribgina qolmasdan, balki ularning surat kompozitsiyasini ikki-uch o'lchamli tekisliklarda qurishi mumkin bo'ladi. Bunday asos azaldan saqlanib kelinayotgan badiiy merosimizga zid kelmay, aksincha, uni tushunishga, idrok qilishga yordam beradi.

Kompozitsion yaxlitlik deganda — kompozitsion unsurlarni to'g'ri joylash-tirish orqali ular orasida yagona bir uyg'unlik, muvozanat hosil qilib, yagona bog'liqlikka erishish ko'zda tutiladi.

Kompozitsiyada shakllarning yaxlit, yagona uyg'unlikka erishilishi asosiy qonuniyatni tashkil etadi. Bu qonuniyat buyum va undagi naqshga ham, alohida olib qurilgan naqshga ham, uning mavzusiga ham barobar tegishlidir. Yaxlitlik — ihtiyoriy naqshli kompozitsiyaning eng shartli sifatlaridan biridir. Odatda yaxlitlik deganda uzilmaslik, uzluksiz va bir-biriga o'tuvchi chiziqlarni tashkil etavermaydi. Badiiy matolar asosan diskret (bo'lakli) naqshlarga ega bo'lgani uchun, shakl bo'laklarini bo'sundirish muammosi yuzaga keladi.



1- rasm. **Mavritan naqshlari namunalari**

Bundan tashqari, qismlarni bir-biriga bo'ysunishini nafaqat diskret naqshlarda, balki juda ko'p uzluksiz naqshlarda ham kuzatishimiz mumkin. Shundan kelib chiqib, yaratilayotgan kompozitsiyada hukmron va bo'ysinuvchini aniqlash, ular orasida uygu'unlik o'rnatish — badiiy mato loyihalarini tuzishda eng dolzarb yechim hisoblanadi.

Badiiy shaklda yaxlitlik — yagonalikni qurish haqida bir necha yuz yilliklar mobaynida san'atning turli-tuman yo'nalishlarida bajarilib kelingan ishlar va nazariyalarda aytib o'tilgan. Bu nazariyalarning barchasida yagonalik — alohida olib qaralgan qismlarni tasavvurimizda yaxlit ko'rinishga ega bo'lib, birlashuv hosil qilishidir. Agar mavzuli biror naqsh boshqalari ustidan yaqqol hukmronlik qilayotgan bo'lsa, bo'ysunish juda oddiy ko'rinishda ham bo'lishi mumkin. Biroq o'tish jarayonida naqshlarda murakkab ko'rinishli tuzilmalarga egalikni ham ko'ramiz. Shakllar bo'ysinishi faqatgina ularning o'lchamlari orasidagi munosabatga bog'liq bo'lib qolmay, balki ularning sifati va tizimidagi o'rniga ham bog'liqdir.

Naqshda yaxlitlikka erishishning namunasi sifatida, o'zining uzoq yillik tarixiga ega bulgan «Mavritan usuli» tavsiya qilinadi: «Birinchi o'rinda umumiy shaklni o'rnatib, uni asosiy chiziqlar vositasida bo'lmoq lozim.



2- rasm. Hind matolarining naqshlari

So'ng oraliqlari naqshlar bilan to'ldiriladi. Bu naqshlar ham nazarimiz batafsilligini qondirish maqsadida o'z navbatida ajratiladi va to'ldiriladi». Bu qoidani mavritanliklar o'z naqshlarida nihoyatda moxhirona va nozik did bilan qo'llaganlar (1- rasm). Ularning san'atidagi barcha naqshlarning uyg'unligi va nihoyatda go'zalligi ushbu qoidaga rioya qilinganlikdan yuzaga kelgan, desak to'g'ri bo'ladi. «Uzoqdan tomosha qilinganda, birinchi navbatda, umumiy chiziqlar ko'zga tashlanadi, yaqinlashgan sari esa, naqshlarning ayrim-ayrim qismlari ham ajralib ko'rina boshlaydi» (Oven-Jons, Rassine «Kratkiye ocherki ornamentalnix stiley» kitobidan).

Naqshlarning bunday tuzilishi Hind an'anaviy uslubida ham o'z aksini topgan: unda matoning barcha maydoni uzluksiz naqsh bilan qoplangan. Bu naqshning qismlari esa yirik shakllarga birlashtirilgan. Ko'pincha ular hindcha uslubda rasm bo'lgan bodom gulli naqshlardir. Ularni tomosha qila turib, har bir birlashtiruvchi naqsh, o'z navbatida, o'zidan maydaroq naqshlar bilan ishlov berilganligini, mayda naqshlar esa undan ham maydalashib ketgan sirtini to'ldiruvchi naqsh bilan to'ldirilganligini ko'rishimiz mumkin. Bunday bosqichma-bosqich bo'ysunganlik umumiylikni keltirib chiqaradi. Ushbu hol Hindiston matolarining naqshlari namunalarida yaqqol ko'zga tashlanadi (2- rasm). Rapportli naqshlarda yaxlitlikning asosi rapport to'ri bilan belgilanadi. U kompozitsiyaning umumiy tarkibini beradi. So'ngra ushbu asar uchun kerakli o'lchamlar va mavzular yig'imi topilib, ular orasidagi masofa o'lchami aniqlanadi.


Uzluksiz, ya'ni chiziqli yaxlitlik yaratish uchun bitta yagona chiziq asos qilib olinadi (3- rasm). Naqshning yaxlitligi ustida izlanish olib borarkan, rassomlar ko'pincha o'simlik va jonivorlar dunyosiga murojaat etishadi. Chunki atrofimizni o'rab turgan tabiat mahsulida — u xoh barg yoki uzum shodasi; xoh chig'anoq yoki kapalak bo'lsin — barchasida tabiat go'zalligining yaxlitlik qonunini ko'ramiz. Kompozitsiyadagi

ushbu qonuniyatni yana ham chuqur o'rganish uchun uning to'rtta qonuniyatini tushunib olish joiz (4- rasm):

1. Miqdor qonuni.
2. Markazda bo'lish qonuni.
3. Muvozanat qonuni.
4. Ma'no omili qonuni.




3- rasm. To'liqinsimon markaz chiziqli naqshlar



Miqdor qonuni. Bir turga mansub bezakning shakllar orasidagi o'z o'lchami yoki miqdoriy xususiyatlari bilan ajralib turuvchi shakli, o'z hajmi, yoki o'lchami kattaligi hisobiga boshqalardan ustun turadi.


4- a rasmda kompozitsion markazning joylanishi quyidagicha bo'ladi: 1. Katta to'rtburchakda. 2. Katta aylanada. 3. Aylanada.



Markazda bo'lish qonuni.


Bo'rttirib ko'rsatadigan qismning nisbatan markaziy joyda joylashishi, shu qismning asosiy kompozitsion markazi bo'linishiga olib keladi.

4- b rasmda kompozitsion markazning joylanishi quyidagicha bo'ladi: 1. Aylanada. 2. Aylanada. 3. Rombda.



Muvozanat qonuni.

Tekislik xayolan ikki maydonga bo'linib, ikki maydonda ham naqshlar o'z vazniga monand teng taqsimlanadi. Tekislik gorizontal, vertikal yoki diagonal



4- rasm. Kompozitsion yaxlitlik qonuni aks ettiruvchi sxemalar

yo'nalishlarda bo'linishi mumkin. 4- d rasmdagi shakllarda ushbu qonun shakllarda ifodalangan:

1. O'ngga og'gan diagonal yo'nalishi bo'yicha tekislikning ikkiga bo'linishi.

2. Chapga og'gan diagonal yo'nalishi bo'yicha tekislikning ikkiga bo'linishi.

3. Vertikal yo'nalishdagi tekislikning ikkiga bo'linishi.

Ma'no omili qonuni. Biror-bir rasmiy xususiyatga ega bo'lgan bezak yoki biror axborotni o'zida jo etgan ma'noli naqsh (yoki yozuv) boshqa shakllardan ustun turadi. Masalan: firma bezaklari, harbiy kiyimlardagi pogonlar, reklama qilinayotgan mahsulot belgilari va boshqalar (4- e rasm).

5- rasmda ushbu qonuniyatlarni shakllar orqali ifodalanganligini ko'ramiz: 5- a rasmda miqdor qonuni, 5- b rasmda markaz, 5- d rasmda esa muvozanat qonunining aks etganini.



5- rasm.. Kompozitsion yaxlitlik qonunlariga oid naqshlar namunalari

Ushbu kompozitsiyalar rangli qog'ozlardan qilingan bo'lib, uning ustida ish olib borgan o'quvchilar yuksak mahorat bilan, yangi shakllar yaratib, kompozitsiya qonunlarini aks ettirishga harakat qilganliklari yaqqol ko'rinib turibdi. Yaratilgan ushbu naqshlar namunalari mato loyihalari hisoblanib, unga ishlov berish va shakllar yaratishning yangicha usullarini topishda, rassom, albatta, ularning libosda ko'rinishini va qo'llanilishini nazarda tutmoqligi dardkor.

Amaliy mashg'ulotlar

1. Rangli qog'ozlardan bir necha geometrik shakllar kesib olib, ularni A5 o'lchamli qog'ozga muvozanat qonuniga oid joylashtiring. Kesib olingan shakllar o'lchami jihatidan bir-biridan keskin farq qilishiga ahamiyat bering.

2. Muvozanat qonunlariga oid rangli qog'ozlardan A5 o'lchamli qog'ozga o'simliksimon kompozitsiya tuzing.

3. Rangli yoki turlicha sirlarga ega bo'lgan qog'ozdan A5 o'lchamli qog'ozga ixtiyoriy mavzuni asos qilib, muvozanat holatidagi kompozitsiyani tuzing.

4. O'z his-tuyg'ungiz va fantaziyangizdan kelib chiqqan holda A4 o'lchamli qog'ozda o'tilgan mavzuga mos bir necha o'simliksimon naqshli kompozitsiyalar tuzing.

1.2. METRIK VA RITMIK TUZILISH QONUNIYATI


Shakllarni bir tartibga solish — faqat sodda ko‘rinishlarnigina berib qolmasdan, balki kompozitsiyaning yaqqolligini ta‘minlab, murakkab qonunlarga bo‘ysunishi ham mumkin. Shakllarni bir tartibga solishni ularning o‘lchami, joylanish ketma-ketligi, rangi, faktura tuzilishini o‘zgartirish yo‘li bilan amalga oshirishimiz mumkin. Ritmning murakkabligini esa sodda ritmik qatorlarni joylashtirish yoki ularni o‘zaro uyg‘unlashtirish orqali yuzaga keltirsa bo‘ladi.

Naqshda murakkab va sodda ritmlarni tuzish mexanizmini tushunish uchun ritm qonuniyatidagi «metr» va «ritm» tushunchalarini keng ma‘noda qo‘llanadi. Metrik va ritmik qonuniyat — chiziqli kompozitsiyaning bosh tuzuvchilaridir. Ularning asosiy belgilaridan biri kompozitsiya unsurlari va ular orasidagi masofalarning takrorlanishidir.

Metrik qonuniyat — ritmning naqshda sodda ko‘rinishi, ya‘ni bir xil chiziqlarning teng oraliqda o‘zaro takrorlanishidir. Metrik qonuniyatni chiziqli naqsh tuzishda oddiy takrorlanish deb ham olish mumkin, ya‘ni u bir xil chiziqlarning va ular orasidagi masofalarning davriy takrorlanishidir. Shunda surat va fon (zamin) nisbatlarining to‘la simmetriyasi va tengligi hosil bo‘ladi.

Ritmik qonuniyat — takrorlanayotgan chiziqlar, dog‘lar, interval va sirtlarning murakkab notekis, ketma-ket nisbiy o‘zgarishini o‘z ichiga olgan. Kompozitsiyadagi chiziqlar o‘lchami yoki ular orasidagi masofa bir tartibda nyuansli, kontrastli kamayuvchi yoki o‘svuchi bo‘lishi mumkin. Bunda ritmik harakat o‘sadi yoki so‘nadi. Bu kompozitsiyadagi unsurlarning ko‘rish jarayonidagi asosi — dinamikadir.

Demak, metrik qonuniyat o‘z vazminligi va muvozanatlashganligi bilan statik ko‘rinishda bo‘lsa, ritmik qonuniyat, aksincha, o‘z harakatli ko‘inishi bilan dinamikani ifodalaydi. Metrik asos — bir-biriga o‘xshash shakllarning va ular orasidagi masofalarning takrorlanishi — qandaydir o‘zgarmaslik holatlarini vujudga keltirsa, ritmik asos, aksincha, bir-biriga o‘xshamaydigan badiiy o‘lchovlash, o‘zgaruvchan qatorni namoyon qiladi. Shunday qilib, ushbu ma‘noni kengaytirib



7- rasm. Metrik va ritmik takrorlanish turlari sxemasi

ikkita o'zgarmas va o'zgaruvchan tizim o'zaro qatnashishini ko'ramiz. Rapportli naqshning o'zgarmas tizimida rapportning bir turi namoyon bo'lsa, o'zgaruvchan tizimda — biror mavzuga oid naqsh o'z aksini topadi.

Rapport — biron-bir ma'lum o'lchamlar ichidagi naqshning o'zgarmas holatda takrorlanishidir. Metr — rapport takrorlanish holatlarining normasi hisoblanadi, ritm esa normadan chiqishdir. Ba'zida ritm metr qonuniyatini takrorlashi mumkin, biroq ko'p holatlarda ritmning qat'iy metrik asosdan chetlashganini kuzatamiz. Rapportsiz naqshli kompozitsiyalarda metrning qat'iy ko'rinishini uchratmasligimiz mumkin, ammo bu kompozitsiyada metr qonuniyati umuman yo'q deb ta'kidlash noo'rin. Metr yaqqol sezilmasligi mumkin, biroq u albatta his qilinishi kerak. Rapportsiz naqshlarda ritmik qatorning qonuniyati shakllarning nafisligi, ularning rangi va fakturasida o'z asosini topadi.

Matoning naqshli kompozitsiyasi ustida ish olib borilayotganda, matolardagi tasvir ritmi bilan libos modeli loyihasining bir-biriga o'zaro ta'siri vujudga kelishini e'tiborga olish muhim. Surat g'oyasini tuzishda rassom hech bo'lmaganda, u yaratgan naqsh ritmining bir chiziq yoki shakllardan yaxlit biror mavzuli tasvir tuzilishiga o'tishi, tasvir tuzilishidan rapportga, undan so'ng libosga va atrof -muhitga bevosita ko'chishini inobatga olib, ular haqida yaxlit bir tasavvurga ega bo'lishi lozimdir.



6- rasm. Naqsh ritmining murakkab qonuniyatga bo'ysungan ko'rinishi (Kirsanova N.V.)

Yirik ritmik qurilish xilma-xil yoki tartibsiz unsurlarni tartibga soluvchi vazifasini o'ynaydi; mayda sodda ritmik naqsh esa, murakkab hajmli shakllar sirtida uning estetik aniqligini oshiruvchi faktura vazifasini bajaradi. Unsurlar tartibi sodda, tushunishni oson etishi bilan birga, murakkab qonuniyatlarga bo'ysunishi ham mumkin (6- rasm). Kompozitsiyadagi tartib o'lchamlarini, unsurlarini, rangini, faktura va shakllar joylanishini o'zgartirish yo'li bilan amalga oshirsa bo'ladi. Ritm murakkabligini undagi sodda ritmik qatorlarni ko'paytirish, yoki ularni uyg'unlashtirish yo'li bilan yaratiladi.

Libos kompozitsiyasini yaratishda shuni yodda tutish muhimki, matodagi surat ritmi kiyim modelining tuzilishi bilan o'zaro uyg'unlashadi. Surat unsurlarida ritm uning tasviri sifatida aks etadi. Shunday qilib, ritmda chiziq to'g'rilik, egrilik va egri-bugri sifatlarini o'ziga mujassam etadi; tasvir dog'lari esa maydonlarining o'lchami turli bo'lgan shakllarga aylanishi, ranglar esa oddiy tuslardan murakkab tuslarga, nyuans munosabatlar kontrastga o'tishi kabi sifatlarini namoyon etadi. Sodda bir o'lchamli ko'payuvchi yoki kamayuvchi ritmlarning qaysi vaqt murakkab ritmlarga o'tishi yoki bir-birining ustiga yotqizilishi; shuningdek, ularning umumiy ritmik tuzilishi ritmga teskari bo'lgan aritmik holatiga qaysi paytda o'tishi haqidagi savol yaratilayotgan ma'lum bir asarning yechimi va maqsadidir. Ritm— rivojlanish jarayonining boshlang'ich nuqtasidan boshlanib, ma'lum bir maqsadga intiladi. Ritmning xilma-xilligi va uning kontrastli namoyon bo'lishi, ritm holatlarining xilma-xil tushunchalarini hosil qiladi. Bu esa uni nafaqat dinamik o'zgaruvchan kompozitsiyalar bilan, balki statik, turg'un kompozitsiyalar bilan bog'lash mumkinligini ko'rsatadi.

Naqshli kompozitsiyada metrik va ritmik qatorni turlicha yo'nalishlarda tuzishimiz mumkin. Bu yo'nalishlarni biz metrik va ritmik

takrorlanishlarning turlari deb ataymiz. Kompozitsiyalarda metrik va ritmik takrorlanishlarning quyidagi turlari ko'p hollarda uchraydi: vertikal takrorlanish (7- a rasm), gorizontaal takrorlanish (7- b rasm), diagonal takrorlanish (7- d rasm), radial takrorlanish (7- e rasm), shaxmatli takrorlanish (7- f rasm).

8- rasmda rangli qog'ozda bajarilgan bir loyiha namunasining, ritmning shaxmatli turi orqali ifoda etilganligini ko'ramiz. Naqshlarning u yoki bu turga oid ritmini yaqqol ifoda etib turgani shundoq namoyon bo'lib turibdi. Ushbu loyihalardan fantaziyaga erk berib qiziqarli mato kompozitsiyalarni yaratishingiz mumkin.



8- rasm. Ritm qonuniga oid kompozitsiya loyihasi (S.Aliyeva)

1. Rangli qog'ozlardan bir xil geometrik shakllar kesib olib, A5 o'lchamli qog'ozda bir ritmik qonuniyat turini ifodalab bering.

2. O'simliksimon naqshga oid ritmik kompozitsiyani rangli qog'ozdan A5 o'lchamga biror-bir tur orqali ifodalab bering.

3. O'z his-tuyg'u va fikringizdan kelib chiqib, A5 o'lchamli qog'ozda ixtiyoriy mavzudagi naqshlarni ritmning barcha turlari orqali ifodalab bering.

1.3. SIMMETRIYA VA ASIMMETRIYA

Mato suratining nafis ritmik qatorini yaratishda simmetriya qonuniyatining ahamiyati kattadir. Uning asosida ko'plab naqshlar yaratiladi.

Simmetriya — grekcha so'z bo'lib, «mutanosiblik» degan ma'noni anglatadi. Simmetriya qonuniyati asosida har bir shakl va uning qismlari tuzilishidagi mutanosiblik tushuniladi. San'atda simmetriya rassomning xohish-istagi emas, balki obyektiv dunyo qonuniyatining aniq aksi sifatida namoyon bo'ladi. Simmetriya qonuniyati o'simlik va hayvonot dunyosi, atom va kristallar tuzilishi, me'morchilik asarlari, amaliy bezak san'ati, musiqa va raqsdan ham o'z aksini topgan. U san'at asarlari kompozitsiyasida mutanosiblikni yaratadi, bu esa yaxlitlikka ega bo'lishning muhim omilidir.

Odatda san'at simmetriyasini sokin muvozanat bilan qiyoslash mumkin. Agar naqshli kompozitsiya kuzatuvchida barcha tuzuvchi unsurlarining o'zaro uyg'unlashuvi va muvozanatlashuvi asosida yuzaga keladigan tinchlantiruvchi zavq tuyg'usini uyg'ota olsa, u juda go'zal ko'rinishi mumkin.

Sokinlik hissining eng go'zal holati esa nigoh, aql va ruhiy talablar qondirilgandagina yuzaga keladi. Muvozanatlashmagan kompozitsiya tasodifiy, vaqtincha va, shuningdek, asossiz namoyon bo'lib, uning shakllari o'z holati va tuzilishi o'zgarishiga muhtoj bo'ladi. Bunday sharoitda rassomning fikri tushunarsiz ko'rinishga ega bo'ladi.

Naqshli surat tuzishda simmetriyaning turli ko'rinishlaridan foydalaniladi.

1. Markaz o'qli yoki ko'zguli (9- a rasm).
2. Markaz nuqtali yoki tekislikda burilish simmetriyasi (9- b rasm).
3. Parallel ko'chirish simmetriyasi (9- d, e, f, g, h rasmlar).
4. Turli simmetriya ko'rinishlari mujassamlashgan — aralash simmetriya (9- qolgan rasmlar).



9- rasm. Simmetriya qonunini ifodalovchi naqshlar

Simmetrik naqshli kompozitsiyalar muvozanatlashgan va shu sababli statik (turg'un) holatni vujudga keltiradi. Ayniqsa ko'zguli simmetriya qonuniyati asosida tuzilgan kompozitsiyalar, muvozanatlashganlik turg'unlikka egadir.

Kompozitsiya shakllari kabi, bir guruh shakllardan tarkib topgan mavzuli naqshlar yoki butun bir kompozitsiya simmetrik tuzilishda yaratilishi mumkin. Tabiat shakllarining ko'p qismi matematik aniqlik va qat'iylik bilan qurilgan tuzilishga ega emas.

Kompozitsiyalar, mavzular va shakllarning bunday tuzilish tarzi **asimmetriya** deb ataladi. Asimmetrik kompozitsiyalar simmetrik kompozitsiyalarga qaraganda dinamikroq, ya'ni harakatliroq holatni vujudga keltiradi. Asimmetrik naqshni qurish maydon, vazn, yo'nalish va shakllarning nisbiy mutanosibligini talab qiladi. Bunday kompozitsiyalarda naqshlarning asosiy qismida shakl, fon va rang yo'nalishlarini muvozanatlashtirib, ular orasidagi qarama-qarshilikni umumlashtirishga erishilsagina yaxlit bir uyg'unlikni topish mumkin. Asimmetriya kompozitsiyaning faqatgina bir yoki bir

necha xossalariga ham tegishli bo'lishi mumkin, chunki uning tarkibiy qismidagi dinamiklik ba'zan umumiy shaklni buzib ko'rsatadi. Aynan shuning uchun naqshda asimmetriya faqatgina favqulodda vaziyatlarda qo'llaniladi. Asimmetrik tuzilgan kompozitsiyalarda *dominant* (hukmron shakl)ni ajratib olish muhimdir. Ushbu dominant — kompozitsion markaz hisoblanib, o'lchami, tuzilishi, rangi, fakturasi, och-to'qligi, yo'nalishi bo'yicha boshqa shakllarga qarshi turishi mumkin. Kompozitsion markazning joyi va vazifasi yaratilinayotgan libos nimaga mo'ljallanayotganligiga bog'liqdir.

Qoidadan ma'lumki, simmetriyadan har qanday og'ib ketish asimmetriyani keltirib chiqaradi. Simmetrik shakllarni mavjud shakllar

tufayli qayta qursa bo'ladi. Asimmetriya esa simmetriyasini yo'qotgan va tasvirini aniq qayta tuzishning iloji topilmagan vaqtda boshlanadi. Unda shakllarni nisbatan bir-biri bilan yaqinlashtirish tufayli solishtirish bilan qayta qurish qonuniyati anglanadi. Agar asimmetriyani muvozanat, sokinlik, tinch holat bilan bog'lash maqsadga muvofiq bo'lsa, asimmetriya muvozanatning yo'qligi, tinchlikning buzilishi haqida darak beradi.

Mato loyihasini tuzishda simmetriya va asimmetriya ko'pincha shakllarning tuzilishini yaratish usuli sifatida statika va dinamika bilan bog'lanadi. Asimmetriya o'zining «tabiati» bilan uning atrofidagi muhitga nisbatan «faolroq» ko'rinishda namoyon bo'ladi, shuning uchun u «o'tkir» shaklli modaga xos matolar yaratish ustida ishlovchi loyihachi-rassomlarda yuksak qiziqish uyg'otadi. Atrof-muhitga asimmetrik shakllarning faol ta'siri quyidagicha tushuntiriladi: simmetriyasi erkin ko'ringan buyum, xuddi umumiy simmetrik maydondan otilib chiqayotganday his qilinadi. Otilib chiqayotgan asimmetrik holat esa, o'z navbatida, muvozanatga intiladi va dinamik faolligini vujudga keltiradi. Asimmetriya shaxsiy, takrorlanmas naqshlar tuzilishiga yordam beradi.

Shaklli simmetrik tarkibga ega muhit inson hissiyotiga tartibli, muvozanatli ta'sir etsa, erkin asimmetriyasiga ega asimmetrik naqshlari ko'p miqdorda mavjud bo'lgan muhit tartibsizlikka olib borib qo'yishi mumkin. Agarda asimmetriya aralash-quralash tartibsizlik chegarasiga yetaklasa, demak u didsizlikdir. Bu esa mutlaqo keraksiz oqibat. Shuning uchun kompozitsiya yaratishda asimmetriyaning nimaga qodirligini simmetriyani o'rganishga barobar o'laroq tadqiq etish lozim.

Amaliy mashg'ulotlar

1. Rangli qog'ozlardan turli geometrik shakllar kesib olib, A5 o'lchamli qog'ozda simmetriya turlariga mos kompozitsiya tuzing.
2. Rangli qog'ozlardan A5 o'lchamli qog'ozga o'simliksimon naqsh kompozitsiyasini ko'zguli simmetriya qonuniga asoslanib yarating.
3. Ixtiyoriy mavzu tanlab olib, rangli qog'ozlardan A5 o'lcham qog'ozga fazoda burilish simmetriyasiga xos kompozitsiya tuzing.

1.4. KONTRAST, NYUANS VA O'XSHASHLIK

Naqshlar kompozitsiyasining badiiy aniqligida uning kontrast, nyuans va o'xshashlik xususiyatlarining sifat munosabatlari muhim o'rin tutadi.


Kontrast — bir kompozitsiyadagi unsurlar (shakllar) xususiyatlarining keskin taqqoslanishi ko'rsatiladigan badiiy usul.

Kontrastda biror-bir xususiyatning (vertikal va gorizontal chiziqlar, suratlarning katta va kichik shakllari, yorqinlik, to'qlik va b.) keskin ko'zga tashlanadigan holatlari taqqoslanadi. Kontrast kompozitsiyaga dinamika — harakatlilik bag'ishlab, uning qiyofasining aniqligini va bezagini kuchaytiradi. Kontrast orqali kompozitsiyada — dominant (hukmron) ajratiladi. Naqshli kompozitsiyada kontrast ko'pincha nyuans bilan chambarchas bog'liqdir.

Nyuans — bu nozik munosabatlarning xilma-xilligidir. Ularning qo'llanilish natijasida naqshli kompozitsiya o'zgacha nafislik va tugallanganlikka ega bo'ladi. Nyuansda biror-bir xususiyatning o'zaro yaqin holatlari taqqoslanadi. Nyuans bir-biridan keskin farqlanmaydigan munosabatlarni noziklashtiradi va yanada uyg'unlashtiradi. Nyuans, ayniqsa, kompozitsiyadagi ritmik harakatning tuslari, yorqinligi va fakturasi munosabatlarini yumshatishda muhim ahamiyatga ega.

O'xshashlik — bu xususiyat holatlarining takrorlanishidir. O'xshashlik orqali qurilgan kompozitsiyalarda qismlar, yaxlitlik va boshqa shunga o'xshash munosabatlarning mutanosibligi, mosligi oson ko'zga tashlanadi. Bu holga bir rang tusidan tuzilgan tusli kompozitsiyalardagi ritmik harakat misol bo'la oladi.

Kontrast, nyuans va o'xshashlik vositalarini asos qilib, quyidagi shakl unsurlarini tuzishimiz mumkin (10- rasm); shaklning geometrik turi (10- a rasm); shaklning nisbiy bo'linishi (10- b rasm); chiziqlar yo'nalishi va turi (10- v rasm). Rang birikmalarida ham ushbu qonunning aksini ko'ramiz:



Kontrast: sariq—yashil, qizil—ko'k, binafsha rang—qora rang va boshqalar.

Nyuans: qizil—jigarrang, sarg'ish yashil—zumrad yashil, olov rang —sariq, yashil—moshrang va boshqa uyg'unliklar.

O'xshashlik: Och yashil—to'q yashil, och sariq—to'q sariq va shunga o'xshash boshqa uyg'unliklar.

Bir qarashdayoq kontrastning turli ko'rinishlarini — bir vaqtli xromatik oqishlik, sovuqlik va ilqlik o'rtasidagi chegaralanishni ozmi-ko'pmi kuzatishimiz mumkin. Kuchli xromatik kontrastlar to'liqlantirish hissini vujudga keltiradi. Ular faoldirlar.

10- rasm. Kontrast, nyuans va o'xshashlik sifatlariga oid sxemalar

Oqishlik bo'yicha kontrastlar suratga aniqlik va qat'iylik baxsh etadi. Bir vaqtli kontrast deb esa yonma-yon joylashgan bir rangning ikkinchisiga ta'sir etishi tushuniladi. Bu ta'sir ranglarning qo'shimcha yoki yorqinlik bo'yicha kontrast bo'lgan ranglar yonida o'zgaradi.

Masalan, kulrang qora ta'sirida oqqa yaqinlashadi, oq ta'sirida u qoraga yaqinlashadi. Bitta rang qizilda ochroq ko'rinsa, sariqda to'qlashib qolganday ko'rinadi.

Bu o'zgarishlar fon va surat maydoni bilan qaysidir ma'noda bog'lanishga ega bo'ladi. Xromatik ranglar axromatik ranglarga qattiq ta'sir qiladi. Kulrang shakllar ko'k rangda sarg'ayadi, qizilda esa yashil tusga kiradi, ya'ni ixtiyoriy xromatik rang axromatikka qo'shimcha rang tomon yo'naltirish orqali ta'sir etadi.

Axromatik ranglar xromatik ranglarga kamroq o'z ta'sirini o'tkazadi, shuning uchun ular ixtiyoriy kompozitsiyaga kirishib keta oladi. Qisqa yorqinlikli kontrast qoniqarsiz natija beradi (sariq o'z aniqligini oq rangda yo'qotadi, to'q ko'k va yashil esa qora rangda).

Shuni e'tiborga olish lozimki, naqshli kompozitsiyada ba'zi qoidalar va qonunlar alohida emas, bir-biriga bog'langan holda ish tutadi. Shuning uchun bu yerda rassom bir yoki ikki qonunlar va qoidalar bilan emas, balki butun bir mavzu va kompozitsiyalarni tashkil etuvchi qonuniyatlar majmui bilan ish ko'rishi lozim bo'lib qoladi. Shunday qilsa kompozitsion maqsad yaxlit ta'minlangan bo'ladi va kompozitsion g'oyaning ma'nosi batafsil yoritiladi.

Amaliy mashg'ulotlar

- 1. Kompozitsiyaning uch sifati: kontrast, nyuans va o'xshashlikka moslab geometrik shakllar chizing va ularni taqqoslang.*
- 2. Nyuans xususiyatiga xos ixtiyoriy mavzuda bir necha shakllar yarating.*
- 3. Bo'yoqlar yordamida bir qatorga kontrast ranglar majmui, ikkinchi qatorga nyuans va uchinchi qatorga o'xshash ranglar majmuini jamlang.*

1.5. BEZAKLI KOMPOZITSIYA TUZISH

Bezakli kompozitsiyaning asosini naqsh tashkil etadi. Naqsh — buyumning badiiy, grafik bezalishidir. Naksh tavsifi buyum sirti, xomashyo tarkibi, ishlov berish texnologiyasiga bog'liq bo'ladi. Matoni naqsh bilan bezatish — bu libos yoki interyerga qo'shimcha timsolli tushuncha berish demakdir. Naqsh bezak beriluvchi buyumning uslubiga munosib bo'lishi kerak.

Mato surati uchun bezakli kompozitsiyasi yaratishni uchta bosqichga bo'lishimiz mumkin. Bu bosqichlarni, masalan, ritm qonuniyatiga asoslangan bezakli kompozitsiya yaratish asosida ko'rib chiqaylik.

Birinchi bosqich: libos ansamblining analizi, uning nimaga mo'ljallanganligini aniqlash; ma'lum bir shaxs uchun yaratilsa, uning timsolini tasavvur qilish va aniq bir muhitdagi vazifasini o'rganish. Natijada rassomda dastlabki ijodiy fikr, mato suratining asosiy kompozitsion g'oyasi paydo bo'ladi. Lekin bu g'oya hali noaniq bo'ladi. U moddiy sharoitlar va g'oyalarning inson hissiyotidan nurlanishi, jonlanishi asosida yuzaga keladi.

Ikkinchi bosqich: dastlabki kompozitsion fikrni, yaxshisi, darrov eskiz ko'rinishiga tushirish lozim. Bu o'rinda umumiy tarzda naqsh suratlarining taxminiy ritmik tuzilishi, uning kiyimdagi o'lchami, matoning naqshli bezaklar bilan to'yinganlik darajasini ko'rsatish zarur. Bezaklar va fon maydonining bir-biri bilan o'zaro munosabatini ham topish kerak. Ishning mohiyatini yaqqollashtirish uchun dastlabki eskizni axromatik variantda, so'ngra esa uning 2—3 xil rangda yechimini topish maqsadga muvofiqdir. Surat eskizi, ayniqsa, libosda, o'lchami kichraytirilgan taqdirda ham, u haqida umumiy taassurotga ega bo'lish imkoniyatini beradi. Dastlabki eskizning yaratilishi timsolni yanada aniq tasavvur etib, fikrlashni oydinlashtirish imkonini beradi.

Uchinchi bosqich: bu bosqichda naqshli suratlarining kompozitsiyasi o'zining tabiiy o'lchami bo'yicha ishlanadi. Dastlabki eskizda o'z aksini topgan birinchi ijodiy fikr, alohida naqsh shakllari va ularning aniq ritm bilan joylanishi ustida ishlov olib borish davomida ba'zi qismlarning yechimini yaqqolroq topishga undaydi. Kompozitsion suratlariga bo'laklab ishlov berish va uning alohida qismlari shaklini aniqlashtirish muhim ekanligini hisobga olib, (o'simliksimon yoki tabiiy mavzulardagi kompozitsiyalar uchun) qo'shimcha tasvirlarni qo'llash mumkin.

Ish jarayonida ritmik qatorning bir muncha o'zgacharoq ko'rinishi yuzaga kelishi mumkin. Birok nima bo'lsa ham, dastlabki eskizda o'z aksini topgan asosiy birinchi g'oyaning xususiyati saqlanib qolinishiga erishish lozim.

Eskizda suratni tasvirlashda asosiy diqqat-e'tiborni naqsh shakllarining tugallanganligi va juda aniqlashtirilganligiga, shuningdek, ba'zi qismlarni batafsil namoyon etishga emas, balki ularning o'lchamlari orasidagi munosabati, kompozitsion mavzularning shakli va ularning ritmik tuzilishidagi o'ziga xos jihatlariga qaratish lozim. Ushbu bosqichlarga asoslangan holda bezakli kompozitsiya yaratish jarayonida, kompozitsiya

qonunlarining boshqa sifatlariga (yaxlitlik, muvozanat, simmetriya, asimmetriya va h.k.) ham murojaat etish mumkin.

Bezakli kompozitsiyaga rang berish jarayonida avval tayyorlanib qo'yilgan ranglar majmuining uyg'unlik darajasi kichik maydonda tekshirib ko'riladi. Agar natijalar muallifni qoniqtirsa, asosiy suratga rang berishga o'tish mumkin. Shuni yodda tutish lozimki, ushbu ish yuksak ijodiylikni talab qiladi. Ish avval och tusli ranglardan boshlanib, to'q ranglar bilan tugatiladi, chunki noto'g'ri qo'yilgan to'q rangni, kerakli och tusli rangga o'zgartirish mushkuldir.

Ushbu jarayonda yosh va malakasi yetarli bo'lmagan rassomlar mo'yqalamiga xos bo'lgan suratlarning «tugallanmaganligi», yoki «og'irlashtirib yuborilganligi» kabi xatolar uchrab turadi. Ular ko'pincha kompozitsiyani go'zallashtirishga urinib, turli ko'zga tashlanuvchi usullarni ishga soladilar, natijada kompozitsiya bo'laklanib, maydalashib ketadi. Mayda qismlarning haddan ortiqligi esa suratning aniqligiga salbiy ta'sir qiladi. Tugallanmaganlik esa ko'pincha malakaliroq rassomlarda uchraydi. Chunki ular suratdagi bevositalik, bo'linmaganlikni saqlab qolishga urinadilar, yoki bo'laklarni maydalab ishlov berishga yetarli ahamiyat bermaydilar va g'oyadan butunlikcha foydalanmaydilar. Kompozitsiya mazmuni, g'oyasi eng maqbul usulda, eng kam vositalar orqali namoyon bo'lgandagina ish tugallangan hisoblanadi. Tugallangan to'kis ish esa ijod jarayonida rassomni boshqarib—to'liqlantirib turgan yuksak estetik hissiyotni tomoshabinda ham uyg'ota oladi.



11- rasm. Bezakli kompozitsiya tuzishdagi o'simliklar chizgilari

Rassom tomonidan bezakli kompozitsiya uchun turli xil mavzular tanlashi, uning tomoshabinda ma'lum bir kayfiyat va tuyg'ular uyg'otishga bo'lgan ishtiyoqqa asoslangan. Masalan, inson o'zini, tevarak-atrofini gullar bilan bezatib, tabiatga yaqin ekanligidan shodmonlik tuyish tuyg'usini vujudga keltirish odati o'simliksimon naqshlarning keng tarqalishiga sabab bo'lgan. O'simlik dunyosi bag'oyatda boy. U turfa o'tlar va daraxtlar, butalar va qo'ziqorinlar, meva va sabzavotlar hamda yana qanchadan-qancha o'simliklardan iboratdir. Har bir xalq o'z san'atida tevarak-atrofini o'rab turgan tabiatni aks ettiradi. Anor guli, bodom guli, chuchmoma, lola kabi gullar o'zbek naqshlarida ko'plab uchrasa, xrizantema va nilufargullarni yapon naqshlarida, palmalarni esa hind naqshlarida uchratamiz. Rassom tabiat mahsuli bilan ishlashda uni umumiyashtirib va soddalashtirib qa'bul qiladi. Tabiatni umumiy ko'rib, uning suratini asosiy chizgilar orqali ifoda etib bera olishi rassomning asosiy vazifasidir.

Tabiatni batafsil kuzatibgina dastlabki tasvirlarni chizishni boshlamoq zarur. Chizishdan oldin esa chizilishi kerak bo'lgan obyekt obdon o'rganilishi – uning tuzilishi, shakli, bo'laklari tahlil qilinishi darkor. So'ngra uning tasvirlarini chiziqlar yordamida tushirish lozim. Yangi shakl hosil qila turib, rassom faqat ko'rgani va bilgani bilan chegaralanib qolmay, o'z fantaziyasini maksimal kuch bilan ishga solib, suratga ishlov berishi lozim (11- rasm).

12- rasmda mato loyihasiga tuzilgan kompozitsiya ko'rinishi libos namunasida ko'rsatilgan. Matolarga kompozitsiya yaratgan rassomning ushbu loyihalarini libosda tasavvur qilishi yaqqol ifodalangandir.

Bezakli kompozitsiya tuzishda rassom o'z hissiyot va kayfiyatidan kelib chiqib, turli mavzularni ishga solishi mumkin. O'simliksimon naqshlar, shuningdek, san'atimizdagi geometrik, jonivorsimon, turmush buyumlari surati kabi turli naqshlar rassomlarga ilhom baxsh etishi aniq. Ulardan turtki olgan rassom ko'plab manbalardan olgan axborotlarni qalb ko'zgisidan o'tkazib, izlanish tasvirlarini tushirarkan, o'z tahlilini fantaziyasi bilan uyg'unlashtirgan holda, yuksak mahorat bilan kompozitsiya yaratmog'i joizdir. Teran izlanishlarda sayqal topgan mavzuning yuksak axborot bilan to'ldirgan holda, ma'lum bir kompozitsiya qonunlariga asoslanib, yaqqol va aniq tuzilgan kompozitsiyasigina — san'at asari darajasidagi bezakli kompozitsiya bo'lishi mumkin.



12- rasm. Mato loyihasini libosda aks ettirish (Aliyeva S.)

Amaliy mashg'ulotlar

1. Geometrik naqshlardan kompozitsiyaning ritm qonuniga mos ravishda bir necha tasvirlar yarating.
2. Ixtiyoriy mavzuni asos qilib olib, kompozitsiyaning muvozanat, ritm, simmetriya qonunlariga mos bo'lmish tugallangan bezakli kompozitsiyalar yarating.
3. Biror-bir xalqning amaliy san'at bezaklariga oid naqshlardan muvozanat va ritm qonuniga mos ravishda tugallangan bezakli kompozitsiya tuzing.

1.6. RANG. RANG UYG'UNLIKLARI

Rang — ko'zlar vositasida va yorug'lik ta'sirida inson nigohida tashqi qo'zg'atuvchanlikni vujudga keltiradigan hissiyot. Insonning atrofini o'rab turadigan muhitda qulay va yoqimli holatni vujudga keltirishda u muhim ahamiyat kasb etadi. Rang inson hissiyotiga eng kuchli ta'sir etuvchi vositadir. Hayotiy tajriba, tarixiy rivojlanish, tabiat o'zgarishi va atrof-muhitga bog'liq holda har bir xalqning sevimli rang uyg'unliklari vujudga kelgan. Ularga xos bu rang uyg'unliklari ushbu xalqlarning kiyimlari va interyerlarida aks etadi. Bu an'analarning ildizi nihoyatda terandir. Sharoit, insonlarning turmush tarzi va ish faoliyati o'zgargan hozirgi zamonda ham bu an'alar o'z mavqeini umuman yo'qotmaganligi yuqoridagi fikrimizning tasdig'idir.

Yangi bo'yoqlarning paydo bo'lishi, matolarga surat tushirish usullarining rivojlanishi ushbu an'analarni yanada boyitib, ko'rkam-

lashtirib bormoqda. Tabiatda barcha uchraydigan ranglar ikki guruhga bo'linadi.

1. **Axromatik ranglar** — (axromos — yunon tilidan — rangsiz) qora, kulrang, oq ranglar bir-biridan oqishlik bilan farq qiladi.

2. **Xromatik ranglar** (xromos — yunon tilidan — rang) rang tusi, oqishlik va to'yinganlik bilan farqlanadi, uning spektrida inson ko'zi 150 ga yaqin ranglarni farqlay oladi.

Quyidagilar spektr ichida namoyon bo'luvchi xromatik ranglardir: qizil, qizg'ish olovrang, olovrang, sarg'ish olovrang, sariq, sarg'ish yashil, yashil, yashil-moviy, moviy—ko'k, ko'k-binafsha va binafsha.

Rang tusi — biror rangning oq rangdan farqlanib borishidir.

To'yinganlik — rangning kulrang oqishligida farqlanib borishi. Eng to'yingan ranglar — qizil, yashil, olovrangdir; to'yinganligi sustroq ranglar — ko'k va sariq. Axromatik ranglarda to'yinganlik nolga teng.

Xromatik bo'yoqning to'yinganligi oq rang qo'shilishi bilan susayadi, qora rang qo'shilishi bilan to'yinganlik o'zgaradi. Ranglarning bir xil to'yinganligida ochiq ranglar ko'zlarga faolroq ta'sir qiladi, bir xil oqishlikda bo'lgan ranglarda esa to'yinganroq ranglar faol ta'sir etadi. Ba'zi ranglar oq rang qo'shilishi bilan o'z rang tuslarini o'zgartiradi: iliq ranglar tuslari sovuqlashadi, kadmiy-limon va sariq bo'yoqlar bir muncha yashillashadi, kadmiy-olovrang qizaradi, sovuq rangli bo'yoqlar yanayam sovuqlashadi, yashil-moviy va zumrad-yashil moviylashadi, kraplak ko'karadi va binafsharang tusini oladi, qora rang aralashmasi barcha sariq va olovrangli tuslarini yashil tomonga o'zgartiradi. Inson hissiyotiga ranglarning ruhiy ta'sir etishidan kelib chiqqan holda, biz eng faol va asablarni to'lqinlantiruvchi ranglar — qizil, olovrang va sariq deb atashimiz mumkin.

Kunduz yorug'ida bu ranglar, ayniqsa, qizil baralla ko'rinadi va quyoshli — iliq taassurot qoldiradi. Shuning uchun ular iliq ranglar deb ataladi. Kechki payt qizil rang go'yoki chuqurlikka sirg'anayotganday «chekinadi».

Ilmiy tadqiqotlarga qaraganda, olovrang, qizil ranglar asab tizimini to'lqinlantiradi, nafas olish va yurak urishini tezlashtiradi, muskul tizimining ishlashini faollashtiradi. Ko'k va binafsharanglar inson asab tizimiga tormozlantiruvchi hissiyot bag'ishlab, nafas olish va yurak urishni sekinlashtiradi. Bu ranglar shartli ravishda sovuq deb ataladi. Chunki ular chuqur va sovuq hissiyotlarni baxsh etadi. Bu ranglar kunduzi uncha ko'zga tashlanmaydi, kechki yorug'likda esa yaqqol ko'rinadi. Barcha ranglardan eng sokin rang — yashil hisoblanadi. Elektr yoritgichlar

chirog'i ostida qizil, olovrang va sariq ranglar ochroq ko'rinsa, moviy - yashil, moviy, ko'k, binafsharanglar to'qlashadi. Sarg'ish - yashil rang esa umuman o'zgarmaydi.

Inson hissiyotiga ta'sir etayotgan ba'zi ranglar bizning turmush tarzimiz, rasm-rusumlarimizning shartli ma'nolariga ega bo'lib qolgan. Masalan, qizil — jo'shqinlik, faollik; qora — motam va tushkunlik ramzi. Oq — poklik, tozalik va soflik timsoli bo'lib, davlatimiz bayrog'ida ham o'z aksini topgan. Shuningdek, bayrog'imizdagi moviy va yashil ranglarda ham millatimiz bilan bog'liq ramziy ma'nolar mavjud.

Asosiy yoki bosh rang deb ko'k, sariq va qizil ranglarni ko'rsatish mumkin, chunki ularni rang aralashtirish yo'li bilan hosil qilib bo'lmaydi. Qolgan barcha ranglar oraliq ranglar hisoblanadi.

Rang birikmalarini hosil qilish. Rassom tomoshabinda ma'lum bir ranglarga bo'lgan hissiyotni uyg'otish va o'z suratidagi kerakli rang tusini yaratish uchun ranglarni tuzish hamda ularni qo'shish sir-asroridan voqif bo'lishi lozim.

Rangshunoslik amaliyotida bu xol quyidagi usullar orqali hosil bo'ladi.

1. Bo'yoqlarni **mexanik aralashtirish** rangli bo'yoqlarni bevosita aralashtirish yoki bir rang ustiga ikkinchi rangni yotqizish yo'li bilan amalga oshiriladi. Bunda bo'yoq zarralari bir-biri bilan mexanik tarzda aralashib ketadi. Masalan, ko'k va sariq ranglar aralashmasi yashil rangni hosil qiladi.

2. **Optik aralashtirish** deb, ko'z to'r pardasiga ikki va undan ortiq ranglarning birlashib tushish asnosida bir rang hosil bo'lganday tasavvurga ega bo'lishga aytiladi. Bunday aralashtirish usuli, masalan, rangli pipirakni aylantirish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Rang doirasi va rang uyg'unliklari. Xromatik ranglar spektrini bir doiraga joylashtirish mumkin. Bu holda rang doirasi hosil bo'ladi (muqovadagi 1- rasmga qarang). Ushbu doira diametrlarining qarama-qarshi uchlariga asosiy ranglar: ko'k va sariq, qizil va yashilni joylashtiramiz. Rang doirasida oraliq ranglar asosiy ranglar yonida bo'lishini va ularning rangi bosqichma-bosqich, asta-sekin o'zgarishini ta'minlash lozim.

Rassom amaliyotida bir xil masofada joylashgan 24 ta rangga ega rang doirasi qulaydir. Har bir rang tusiga rang uchburchagini tuzishimiz mumkin. Ushbu uchburchaklarning barcha ranglari bir-biri bilan uyg'unlashgan rang majmuini tashkil qiladi.

Rang uyg'unligi deb, naqshli san'at asarida ranglarning o'zaro bir-biriga mos va mutanosibligiga aytiladi. *Kolorit* inglizcha «color» — «rang» so'zidan olingan bo'lib, u naqshli san'at asarining ranglar

uyg'unliklarining umumiy majmui bo'lgan tizimidir. Agar rang uyg'unliklarining aniq bir tizimi o'zgarishga muhtoj bo'lib, ushbu tizim yaxlit his qilinayotgan bo'lsa, bu yerda ranglar mutanosibligi va mosligi mavjud emasligi haqida gapirish mumkin. Uyg'un deb tan olinishi kerak bo'lgan rang, bizning biror-bir obyekt haqidagi tasavvurimizda hosil bo'ladigan nigohiy axborotni boyitishi lozim.

Rassomga rang uyg'unligini tanlashda qo'yiladigan eng asosiy shartlardan biri — bu kompozitsiyaning yaxlitligi va shu bilan birga, uning koloristik yechimini yuzaga keltirishdir. Surat bo'laklarga bo'linib ketmasligi kerak va uning barcha qismlari baravariga his qilinishi bilan birga, ranglar yoki ularning maydoni umumiy rang tusiga to'sqinlik qilmay, uyg'unlashishi zarurdir. Ranglar yoki ular egallab turgan maydondagi barcha qat'iy aniqlanmagan munosabatlar ifodasizlik, suratning bo'linishi yoxud rang uyg'unligini barbod bo'lishiga olib keladi. Rang tanlashda qonuniyat his qilinishi darkor. Aniq qonuniyatni rang doirasidagi bir xil intervallarga ega tanlangan ranglar ta'minlaydi. Ushbu ranglarda faqat bir tasnif: rang tusi, oqishlik, yoki to'yinganlik o'zgaradi. Doiraning o'zi faqatgina ranglar masofasi to'g'ri tanlanib, ularning oqishligi va to'yinganligi deyarli teng bo'lgandagina uyg'un ko'rinadi. Faqatgina bir xromatik rangning oqishligi va to'yinganligini o'zgartirish yo'li bilan, rang uyg'unligiga erishish qiyinchilik tug'dirmaydi. Turli tusga ega xromatik ranglar guruhida bu ishni qilish qiyinroq kechadi. Yuqorida aytilganidek, rang doirasida to'rtta asosiy, bir-birini to'ldiruvchi ranglar mavjud. Ular ko'k-sariq, qizil - yashil juftli bo'lib, uyg'un rang birikmasi hosil qiladi. Rang doirasida ular ikkita bir-biriga qarama-qarshi tushgan diametrlar uchida joylashgandir. Shunisi ma'lumki, doira diametri uchlarida joylashgan ixtiyoriy qo'shimcha ranglar uyg'unlashgan ranglar tasavvurini beradi. Rang doirasi ichiga chizilgan olti burchak, to'rt burchak, teng yonli va teng tomonli uchburchaklar, o'z uchlari bilan ma'lum bir nisbatda uyg'unlik bera oladigan ranglarni ko'rsatib turadi, ya'ni bu ranglarga oq rang yoki kulrang qo'shilishidan uyg'unliklar hosil bo'lishi nazarda tutilmoqda. Barcha uyg'un ranglar majmuini to'rtta turga bo'lish mumkin.

1. Ranglarning *bir tusli* uyg'unliklari — bir xromatik rangning oq yoki kulrang bilan aralashtiruvidan hosil bo'lgan uyg'unlik. Ushbu uyg'unlik doimo sokin va bir muncha bir xilroq ko'rinishga ega.

2. *Qarindosh ranglar* uyg'unliklari, ya'ni rang mutanosibliklari rang doirasining bir choragida (masalan, sariqdan yashilga qadar) joylashgan rang tuslaridir (muqovadagi 2- rasmga qarang).

3. *Qarindosh* — *kontrast* ranglar uyg'unliklari — bu doiraning 1/2 qismida joylashgan ikkita asosiy ranglar o'rtasida hosil bo'lgan munosabat.

4. *Kontrast* va qo'shimcha ranglar uyg'unligi murakkab ko'rinishda bo'lgan uyg'unlikdir (muqovadagi 3- rasmga qarang). Ma'lum bir nisbatda qo'shimcha ranglar bir uyg'unlik hosil qilib, shu ikki rangga mos keluvchi yana bir uchinchi uyg'un rang tanlanishiga xizmat qiladi. Bu uchinchi rang kichik yoy ichida joylashgan oraliq rangga qo'shimcha sifatida tanlanadi.

Kompozitsiyada surat yaxlitligini vujudga keltirish uchun, uning yaxlit bir tekislik ko'rinishini ta'minlash lozim. Shuning uchun surat tuzishda ranglarni «tekislash», ya'ni, ba'zi «orqaga siljib» ketayotgan ranglarni ochlashtirib, iliqlashtirish; «oldinga intilayotgan» ranglarni tinchlantirib, muvozanatlashtirishga erishish darkordir. Rang uyg'unliklarining turli qonun va qoidalarini bilish muhim, albatta, lekin ijodda ulardan yangilik va zamonaviylik hissiyotini aks ettirgan holda bir muncha erkinroq foydalanish zarur. Shuni hisobga olish muhimki, ko'rish hissiyotidan kelib chiqqan holda baholash xromatik ranglarning uyg'unlashuviga baho berishning hozirgi kungacha eng maqbul usulidir.

Amaliy mashg'ulotlar

1. *Ko'k rangli bo'yoqlarni oq rangli bo'yoq bilan aralashtirib, ushbu rangning to'yinganligidan och bo'lgunga qadar bo'yash bosqichlarini amalga oshiring. Xuddi shu ishni qizil va yashil ranglar bilan bajaring.*

2. *Ranglarning qo'shilishidan hosil bo'luvchi rang doirasini tuzing.*

3. *Bir qatorga kontrast ranglar yig'indisini to'plang.*

2.1. LIBOS — IJODIY SAN'AT. LIBOS KOMPOZITSIYASINI TUZISHDAGI UMUMIY QOIDALAR

Insondagi did va go'zallikka bo'lgan hissiyoti, uning butun umri davomida mehnatdagi, turmushdagi, omma bilan aloqadagi va dam olish paytidagi faoliyati jarayonida shakllanib boradi. Aynan mehnat tufayli, inson go'zallik yaratuvchisi bo'lib qolgan. Inson o'zligining estetik tarbiyasini shakllantirishda ilm va fan vositalarining juda boy xazinasi mavjuddir. Shulardan eng muhimi badiiy madaniyatning asosiy tarkibi bo'lmish — san'atdir. San'at inson hayotida nafosat falsafasini uyg'otadi va estetik tushunchalarni rivojlantiradi, tabiatni sevishtirishni o'rgatadi. U estetik didning muhim faktoridir. Estetik did hayotiylikka inson nuqtai nazaridan go'zallik, xunuklik, kulguli, motam kabi tasavvurlaridan kelib chiqib baho beradi. Estetik didning zamonaviyligi texnika, ilm-fan rivojlanishi, ijtimoiy turmush sharoit tarzi bilan qattiq bog'liq. Avvalambor, san'at asari yaratayotgan insonning o'zi yuksak didga ega bo'lishi kerak. Chunki u o'z asarlarida, shu asarning inson tomonidan his qilinishini «dasturlaydi» va qaysidir ma'noda omma estetik didining suratini belgilab beradi. Insonning hayotiy ehtiyojlariga javob beruvchi, uning atrofini o'rab turgan buyumlar mahsulini yaratayotgan rassom-modelyer, konstruktor, texnologlar va boshqa o'zlikni shakllantirish jarayoniga hissasini qo'shuvchi mutaxassislarga ham aynan shu talablar qo'yiladi. Har bir inson o'z estetik didini shakllantirib, boyitib, zamonaviylashtirib borishi darkor. Buyumlar olami inson bilan uyg'unlashtirilishining maqsadi — insonning shu buyumlar olami bilan o'zaro bog'liqligini ta'minlash; uning ishini, o'qishini, turmushini va dam olishini eng samarali tarzda tashkil etishdir. Muhimi, insonning buyumga emas, balki buyumning insonga xizmat qilishini ta'minlashdir.

Shunday qilib, buyumlar olamining uyg'unlashuvi faqatgina moddiy-texnik emas, balki ijtimoiy barkamollik bilan ham bog'liq. Bu barkamollik insonlarning ijtimoiy tizimi tomonidan belgilanadi, ya'ni inson ongining ijtimoiy qatlami ham uning didi shakllanishiga ta'sir etadi. Buyumlar olamining eng asosiy tarkibidan bo'lmish libos — inson o'zligining

estetik tarbiyasini shakllantirish vositasi hisoblanadi. Aniq va obrazi topilgan libos inson ichki go'zallik dunyosini va uning fe'l-atvorini yoritib berishga qodirdir.

Libos — ma'lum bir o'ziga xos timsoli topilgan majmua. Uning diqqat markazida esa inson turadi. Ushbu majmua o'zida kiyim, poyafzal, soch turmagi, grim, aksessuarlarni birlashtirib, ma'lum bir qulaylik yaratuvchi estetik vazifani o'zida aks ettiradi. U rassom-modelyerning o'ziga xos ijodiy faoliyatining mahsulidir. Libosning san'at darajasida yaratilishi yaratuvchidan yuksak mahorat, bilim, kuchli fikrlash qobiliyati, fantaziya va did talab etadi. Uni yaratishda badiiy sifatlari — rangi, fakturasi, tuzilishi, surati turlicha bo'lgan ashyolardan foydalaniladi. Liboslar bo'yicha rassom libosni xuddi badiiy majmua sifatida yaratilishida uning kompozitsion shakllarni uyg'unligi, badiiy yaxlitligi va mutanosibligiga erishmog'i uchun rang tuslari hamda rang uyg'unliklari masalalarini ham echishi darkor.

Kiyim — insonning shaxsiyatini aks ettiruvchi, uni tabiat va atrof-muhitning noqulayliklaridan himoya qiluvchi teri ustidagi sun'iy qatlam, moddiy sirtlar tizimidir.

Oyoq kiyim — inson oyog'ini tashqi muhitdan saqlovchi, uning harakatini qulaylashtirib, shu bilan birga, utilitar-estetik vazifani bajaruvchi qobiqdir.

Aksessuarlar — libos qo'shimchalari: sharf, ro'mol, dastro'mol, bosh kiyim, bo'yinbog', soyabon, ko'zoynak, paypoq kabilardir.

Libos majmui — uning kompozitsion tuzilishi ma'lum bir davrda yashagan odam obrazini interyer yoki eksteryer atrof-muhitlari ohangiga uyg'un bo'lganligini ifoda ettirishi lozim.

Libos komplekti — libos unsurlarining ma'lum bir uslubiy yaxlitlikdan yoki ma'lum bir alomatlar (matolar, libos vazifasi, ranglar) birlashuvidan tuzilgan yig'ilmadir. Komplektga kiruvchi libos bo'laklari, o'zaro almashuvchan bo'lib, ayrim buyumlarni kiritish yoki olish mumkin. Ikki holda ham komplektning, majmuadan farqli o'laroq, yaxlitligi buzilmaydi.

To'plam — bu yagona yechim, uslub, konstruksiya, asos, ashyo tarkibi asosida tuzilgan ma'lum bir yoki turli vazifaga moslangan modellar seriyasidir. Yangi to'plamning tuzilishi — izlanish, yangi kashfiyotlar va eng maqbulini tanlash jarayonida vujudga keladi.

Uslub (stil) — tarix va davrning o'ziga xos ijtimoiy, iqtisodiy tuzilish bilan belgilangan badiiy tilidir.

Bugungi kunda insonlarning asosiy qismi ancha shakllangan didga egaligini ko'ramiz. Tashqi ko'rinishdan muhandisni olimdan, olimni esa


ishchidan farqlash qiyin. Libosning estetik vazifasi, madaniyatning boshqa omillari bilan birga, insonning ruhiy boyligi va go'zalligini yuzaga chiqarib, qiyofasini atrof-muhit bilan uyg'un bog'lanishiga yordam berishdir.

Inson qomatini tasvirlash. Inson qomatini tasvirlashda qalamtasvir, rangtasvir kursidan xabardor bo'lmoq lozim. Sodda qomatni tasviridan boshlab, to uni inson anatomiyasiga xos tarzda chizish, albatta, murakkab, ko'p izlanish va uzluksiz mehnatni talab etadigan jarayondir. Inson fantaziyasidagi tasvirni yaqqol va aniq, o'zi istaganday amalga oshirish uchun u betinim qomatni tasvirlash bilan shug'ullanib turishi darkordir. Har kuni kamida 10—15 daqiqa, albatta, tasvirlar ishlashga vaqt ajratish joiz. Aks holda amaliyotsiz hech qanday natijaga erishib bo'lmaydi. Har bir tasvirdan esa rassom o'z ijodiga ilhom ola bilishi kerak.

13- rasmda inson qomatini tuzishning sodda ko'rinishlari aks etgan. Qomat tuzishda yordamchi chiziqlardan foydalaniladi. yordamchi chiziqlar o'lchamlari boshning o'lchamidan olinib, yotiq ravishda chizib chiqiladi. Bosh va yelka qismlari tasviri tushirilgandan so'ng tayanch chiziq chiziladi. Bu tayanch chiziq qomatni yerda mustahkam turishini ta'minlaydi. Bel kengligi o'lchami bosh qism kengligidan olinadi va qomat rasmda ko'rsatilganday quriladi. Tirsaklar bel sathida turishi kerak. Qomatning tayanch chizig'i o'ng yoki chap oyoqqa kelib tushishidan uning turlicha rakurslari (ko'rinishlari) hosil bo'ladi. So'ngra asta-sekin, tayyor qomatga liboslar kiygiziladi. Bu o'rinda libosning qomatga mos joylanishi, faraz qilinayotgan mato fakturasi, zichligi ham e'tiborga olinadi. Ushbu usulda qomatning tuzilishi kerakli natija berishi uchun uning turli 100—150 ta tasvirini turli ko'rinishlarda bajarish muhim. Shunda qomatning kerakli nisbatlarini joy-joyida qo'llash chizish jarayonida o'z-o'zidan avtomatik tarzda hosil bo'ladi. Rassom endi qomatga emas, balki yaratilayotgan kompozitsiya timsolining yaqqol chiqishiga o'y-fikrini va mahoratini sarflaydi.

Libos shakllarini o'lchamga komponovkalashtirish va rang yechimini topish. Shakllarni qog'oz o'lchamida komponovkalashtirish uchun, o'ylanayotgan dastlabki fikr tasvirga tushiriladi va xomaki g'oyaga ishlov berilib, o'ylanayotgan libos silueti chiqariladi. Siluetlar turli xil bo'lishi mumkin, ammo bir qog'oz o'lchamida komponovkalashtirish uchun tanlangan siluetlar bir-birini to'ldirib tura olishi kerak, ya'ni hajmli va vazni og'ir bo'lgan libos shakli yonida yengil va hajmi kichkina libos shaklini joylashtirishimiz mumkin.


Shuningdek, libos shakli bir-biriga nisbatan kontrast bo'lmagan taqdirda, ularni badiiy hissiyot va intuitsiya orqali bir-biriga moslab olib,



a



b



d

13- rasm. Inson qomatini tasvirlash sxemasi

komponovkalashtirishimiz mumkin. Bunda komponovkalashning quyidagi usullaridan foydalaniladi:

1. **Bir planli komponovkada** libos shakllari bir qatorda joylashgan(14-*a* rasm). Bu yerda asosiy, bejirim va yorqinroq ko'ringan libos birinchi planga chiqib turadi, ikkinchi libos shakli uni to'ldirib turishi lozim.

2. **Ikki planli komponovkada** libos shakllari ikki qatorda joylashgan(14-*b* rasm). Asosiy libos bir qator oldinroqqa chiqib turadi, ikkinchi shakl uning orqasida joylashib, uni to'ldirib turadi.



14- rasm. Liboslarni komponovkalash usullarining namunalari

3. **Ko'p planli komponovka** usuli ko'pincha sahnaviy ko'rinishlarni kengroq yoritib berish uchun qo'llaniladi. Bunda asosiy libos shakli birinchi planga joylashtirilib, ularni to'ldirib turish uchun orqa fonga massovkalar, ya'ni batafsil yoritilishi shart bo'lmagan liboslar yoki ikkinchi darajali qahramonlar joylashtiriladi. Komponovkalash jarayonida libosda asosiy shakl, ya'ni hajm jihatdan boshqa shakllarga nisbatan yirikroq bo'lgan shakl ajratib olinib, hajm jihatdan ikkinchi va uchinchi o'rinda turuvchi shakllar yirik shaklga nisbatan joylashadi. So'ng yordamchi detallar bilan libos kompozitsiyasi yaqqolroq chiqishi uchun to'ldiriladi (15- rasm).


Kompozitsiyada xususiyatni, ya'ni libos shakllaridagi mazmun yoki qahramonlar hissiyotlarini yaqqolroq tasvirlashda o'q chiziqlardan



15- rasm. **Komponovkalashgan libosga aniqroq ishlov berish**

figuralar o'lchamda to'liq o'z joyini topgandan so'ng ulardan nazarda tutilayotgan g'oyaning siluetini aniqlashtirishga o'tiladi. Fikrlanayotgan g'oyaning mohiyati yo'qolib ketmasligi uchun, siluet ichida libos shaklini yaqqollashtirib, undagi *fason*, *konstruktiv* va *dekorativ* chiziqlari aniqlanadi. So'ng tasviri tushirilgan liboslar shakliga batafsil ishlov berilib, ularda rang dog'lari taqsimlanadi. Rang dog'larini taqsimlashda kompozitsiyaning umumiy — asosiy rangi aniqlanib, qolgan qo'shimcha ranglar majmui topiladi (muqovadagi 5- rasmga qarang). Libosda rang yechimi topilayotganda qo'shimcha ranglar oz yoki ko'p ishtirok etishi mumkin, biroq asosiy rang kompozitsiya ichidagi barcha liboslarda qatnashib, ularni yagona mavzuga bog'lab turishi darkordir.

Libos kompozitsiyasining ranglari ustida izlanishlar olib borishda, rangli va bezakli qog'ozlardan «kollaj» usulida kompozitsiya tuzish orqali ham kerakli natijaga erishishimiz mumkin (muqovadagi 4- rasmga qarang). Bunda biror-bir bezakli qog'oz kompozitsiyaning «dominanti» deb ajratib olingach, unga mos keluvchi boshqa sidiq'a yoki siyrak gulli rangli qog'ozlar tanlanib, bular asosida izlanayotgan kompozitsiya quriladi. Bunday kollajli kompozitsiyalar kattaroq hajmdagi o'lchamda yaratila boshlangan kompozitsiyaga ko'makchi bo'lib, unga ranglarni to'g'ri va bexato taqsimlanishini yordam berib turadi.



16- rasm. **O'q chiziqlar**

foydalanish mumkin (16- rasm). Bu o'rinda chiziqlar libos kompozitsiyasining markazidan o'tadi. Ikkita libos shakli o'lchamga sig'magan taqdirda asosiy libos shaklini (yoki hajmliroq ko'ringan libos shaklini) ustiga chiqaramiz. Komponovkalar statik ko'rinishda bo'lishi ham mumkin, bu holda libos shaklini bir asosiy geometrik figuraga to'g'rilab olamiz. Geometrik

Albatta kerakli natijaga erishish uchun rassom doimo harakatda va betinim izlanishda bo'lmog'i darkor. «Bir foiz iqtidor, to'qson to'qqiz foiz

mehnat» degan ibora bejiz aytilmagan. Inson o'z iqtidorini doimo rivojlantirib, boyitib va to'ldirib kelsagina o'zi istagan sohasining mutaxassisi bo'lishi mumkin. Aks holda natija chiqavermasa, unga bu soha zerikishdan boshqa hech narsa bermaydi.

Amaliy mashg'ulotlar

1. Qomat qurish usulidan foydalanib 100–150 ta turli rakurslar tasvirlarini yarating. Komponovka qonun-qoidasiga rioya qilib, 50 ta libos komponovkalarini yarating.

2. Xalq amaliy san'at bezaklari mavzusini asos qilib, libos majmui tasvirini yarating. Libosning shakli va rang uyg'unligi tanlangan mavzuni ifoda etishi zarur.

3. Ihtiyoriy mavzu tanlab, uning 5–7 ta libos to'plamlarining tasvirini yarating. Biron-bir o'simlikni asos qilib turib, unga doir zamonaviy libos to'plamlarining tasvirini yarating.

2.2. LIBOSDA BADIY TIMSOL

Inson ongi shakllanib, kamolga yetgan sari unda estetika haqidagi tasavvuri mukammallashib boradi. Natijada o'zligini omma ichidan ajratib, shaxsiy timsolni topishga intiladi. Libos o'zida ruhiy obraz tavsifini mujassam etish bilan birga, o'zida ma'lum bir davrga oid ideal, jamiyatning moddiy va texnik qatlami haqida ma'lumot beradi. Timsol, o'z navbatida, insonning uslubini belgilab beradi. Insonning o'z uslubiga xos yaratilgan libos uning ichki sifatlarini, ma'lum bir insonlar jamiyatiga a'zo ekanligini bildiradi.

San'atda uslub — tarix bilan hamnafasligi tufayli nisbatan turg'un, san'atning g'oyaviy tarkibi bilan shartli ravishda bog'liq, tarixiy poyoniga ega badiiy yechimlar usuli va timsolli tasavvurlarining umumiyligidir. Model yaratishda muallif o'zining ijodiy mahorati va rassomlik iqtidori bilan birga, buyumning tanho, yagona va takrorlanmas yangicha yechimdagi ko'rinishini yaratishda shaxsiy «dastxati»ni ham ishga soladi. Bu modellar oddiy modellarga qaraganda konstruksiyasi murakkabroq, xomashyo sarfi va qo'l mehnati ishlari (masalan, kashtalar) ko'proq qo'llanilgani sababli sermashaqqatliroq bo'lishi mumkin. Aynan shu yuksak toifali badiiyatga ega yagona modellar amaliy san'at asarlari hisoblanadi.

Mashhur fransuz moda ustasi Per Karden jurnalistlarning «uning modellarini kiyib yurish noqulay, chunki juda bejamdor» degan dashnomlariga shunday javob bergan ekan: «Sizlarning ta'nalaringiz modellarimning faqatgina «o'tkir» qismlariga nisbatan adolatlidir. Ammo bundan farqli o'laroq, rassom o'zining tasavvuriga ega bo'lish huquqiga

egaligini ham unutmash zarur. Haqiqat oddiy bo'lmaydi. Haqiqat — uning yechimini aniqlamoqchi bo'lgan insonlarning o'zi kabi murakkabdir. Masalan, Pikasso ayol kishi suratining uchta holatli tasvirini chizgan. Men esa kiyimning yangi hajmini kashf qilmoqdaman. Moda ikki ko'rinishda mavjuddir: biri — qulay (u boqiydir), ikkinchisi — serhasham (u o'zi haqida ko'p gapirishga undaydi va bir mavsumda o'tib ketadi). Menga ikkinchi uslubda ishlash maroqlidir».

G'oya modellari asosida ba'zan yo'naltiruvchi, sanoatbob va boshqa butun bir to'plamlar yaratiladi. Ba'zi mutaxassislar rassom-modelyerni shakli uning ishtirokisiz tuzilgan tayyor buyumga bezak berish bilan mashg'ul bo'ladigan bezakchi deb o'ylashadi. Amalda umuman bunday

emas. Rassom yangi g'oyaga ishlov bera turib, uning shakli, konstruksiyasi aniqlangunga qadar, uni tasavvurida ko'radi. Har bir rassomda yangilik (model, to'plam) g'oyasi doimiy sermashaqqat mehnat natijasida tug'iladi.

Fransuz modelyeri Kristian Dior aytganidek «Bu yerda juda qattiqqo'l hakam bo'lish zarurdir. Bu ish juda kuchli e'tibornini talab qiladi. Men yubka yoki yengga yangi uzunlik qidiraman, ba'zan bir santimetrgina farq qiladigan chokning aniq o'rnini izlayman, ammo modelning ko'ngildagidek chiqishi aynan shunga bog'liq bo'ladi. Ba'zan bir chokning joyida emasligi qomatni to'laroq ko'rsatib qo'yishi mumkin. Chokning surilishi bilan qomat ixcham ko'rinishga ega bo'ladi. Odatda barcha o'zgartirishlardan maqsad — mana shu ulkan oddiylikka erishmoqdir. Qandaydir chok ortiqcha ko'rindimi — usiz ham ishni bitirish mumkin. Ba'zi joyda vitochkalar kerak emas bo'lib qolar. Ishning eng katta sirlaridan biri: andoza qanchalik kam bo'lsa, bichim shunchalik yaxshi bo'ladi».

Liboslar shakli uslubiy yechimi xilma-xilligining barchasini quyidagi asosiy uch uslubga yig'ish mumkin: «mumtoz», «fantazi», «sport» va «folklor».



17- rasm. «Mumtoz»
uslubiga xos libos namunasi

Mumtoz uslub – rasmiy ishbilarmonlik libosining estetik va funksional (vazifasi aniq belgilangan) yechimlarini o'ziga xos uyg'unligini ifoda etadi. Bunday uslubdagi libos ayon jiddiylik va shakllar xushbichimligi, qismlar minimumi bilan tavsiflanadi (17- rasm). Bunday libosda bezak deyarli ishtirok etmaydi. Barchasi ish faoliyatiga mos va ratsional tuzilgan bo'ladi. Mumtoz uslubining nisbati inson qomati nisbatiga mos tushadi.

Bu usulga «ingliz uslubi» deya nom olgan liboslardan palto, ko'ylak va tanaga yarim yopishgan kostyumlar kiradi. Yarim yopishgan ko'rinishli libosning mumtoz bo'lib qolishiga sabab, u ixtiyoriy yoshdagi, ixtiyoriy qomat tuzilishidagi erkak va ayollarning barchasiga qulaydir.

Bunday libosda barcha insonlar ko'rkam ko'rinishga ega bo'lishi mumkin, xushbichim qomatlilar esa yanada go'zal bo'lib ko'rinishadi. Shuning uchun ushbu uslub modaning turli o'zgarishlariga, yo'nalishlariga bardosh beradi va hamisha modaga xos bo'lib turaveradi.

«**Fantazi**» **uslubi** liboslari shakl va qismlar xilma-xilligi, bejamdorligi, murakkab bichim va unga ishlov berish (mo'yna, to'r, gipjur) bejirimlilik bilan ajralib turadi. Shakl va umumiy kompozitsion tuzilishning bo'linishi g'ayrioddiy, masalan, asimmetrik bo'lishi mumkin. Konstruktiv chiziqlar ajratilmaydi, kompozitsion chiziqlar esa o'zgacha bezakli, shu jumladan, rangli ohangga ega bo'ladi (muqovaning 1- betida yuqorida K. Ismoilovanning shu uslubdagi kompozitsiyasi tasvirlangan). Fantazi uslubdagi liboslar o'ziga xos ohangda ishlanib, ko'plab rassom-modelyerlarning qiziqishlarini jalb etadi. Chunki rassom faqatgina shu usul tufayli o'z g'oyalarini chegaralamay, fantaziyasining rivojlanishiga keng erkinlik bera olishi, uni tinch qo'ymay ishlashga undayotgan g'oyalarini libos shakliga keltirib, yuksak badiiy asar ko'rinishiga yetkazishi mumkin.

XX asrda paydo bo'lgan «**sport**» **uslubidagi** liboslar shaklining erkinligi bilan tavsiflanadi, inson harakatiga qulaylikni ta'minlab, qomatni kelishgan, ixcham va sportchiga xos bejirim etib ko'rsatadi. Quyma cho'ntaklar, taqilmali klapanlar, turli burmalar, shlitsa, bezak choklar ushbu libosga xos bo'lgan libos qismlari hisoblanadi. Urg'u bo'luvchi qismlar sifatida furnituralar ishlatiladi. Bezak uchun turfa matolar quramalanadi (kombinirovaniye)— masalan, mo'yna, charm, trikotaj va boshqalar. Shakl bo'linishi va libosning kompozitsion yechimi sodda va tushunarli tarzda bo'ladi (18- rasm).

Sport uslubining rivojlanishiga hissa qo'shgan omil sportning rivojlanishidir. Sport va moda – bir-biridan ajralmas tushunchalar. Avval sport liboslari kundalik liboslardan deyarli farqlanmagan. Sport liboslari ilgari davrda inson harakatiga noqulaylik tug'dirgan ko'p qavatli, og'ir



18- rasm. Sport uslubiga
xos libos namunasi

shaklli bichimi va bezaklari o'zini oqlamasligi bilan tavsiflangan. So'ng ular o'zi mustaqil ravishda rivoj topa boshlagan. Sport uslubining rivojlanish jarayonida esa sport liboslari avval o'zida turmush ta'sirini sinagan bo'lsa, endi uning o'zi turmushga faol ta'sir etmoqda. Bu xol o'z navbatida, libos tarixida yangi davr — texnika asri modasining timsoliga aylandi va shu davrgacha mavjud bo'lgan libos tushunchalarini teskari burib yuborgan sport uslubining yuqori mavqega ega bo'lishiga olib keldi.

Zamonaviy liboslarni modaga xos to'plamlarining asosiy yo'nalishlaridan ba'zilarida xalqlar milliy merosiga murojaat etish kundan-kun kuchayib borayotganini kuzatishimiz mumkin. Ular asosida yaratilgan modellar to'plamlari **folklor uslubiga** xosdir (muqovaning 1-betida pastda Z.Imomovanning shu uslubdagi kompozitsiyasi tasvirlangan). Ilgari mahalliy xalq liboslarining sevimli mavzulari norasmiy moda ta'sirida paydo bo'lib, omma orasida tarqalib kelar edi. Bugungi kunda moda yo'nalishini belgilab beruvchi folklor uslubi liboslarning sifatidan biri hisoblanadi. Bu

xususiyat ko'pincha yoshlar modasiga xosdir.

Folklor uslubining his qilinishiga xalq matolari, kiyinish odatlari, libos qismlarining uyg'unlashtirish usullarini eslatuvchi matolar, bezaklar, konstruktiv yechimlar yordamida erishiladi. Muqovaning 1-betida folklor uslubidagi liboslar to'plami berilgan. Xuddi vaqt harakati, inson, rassom, yaratuvchi fikrining tezligini to'xtatib bo'lmagani kabi, modaning rivojini ham to'xtatib bo'lmaydi. Chunki inson tabiatida doimiy yangilanish va barkamollikka intilish tuyg'ulari mavjuddir. Biroq modaning rivojlanish qonuniyatini o'rganib olish natijasida modaning o'zini boshqarish mumkin.

Moda — (fransuzcha so'zdan — timsol, me'yor, usul) libos shaklining o'zgarishida, uning badiiy bezalishida aktiv ko'zga tashlanadi. Moda deb, hayot va madaniyatning ma'lum bir qatlamlarida hukm surayotgan, doimiy bo'lmagan asosiy bir did tushuniladi. Libosda moda juda keskin ko'zga tashlanib, uning o'zgaruvchanligi ijtimoiy jarayonlar, jamiyat

tabaqalanishiga chambarchas bog'liq bo'lib keladi. Har bir moda ma'lum bir davrga tegishlidir. Bir ingliz san'atshunosi juda qiziqarli jadval orqali modaning namoyon bo'lishini ifodalab bergan. Bir kiyimning ko'rinishi:

o'zining davridan o'n yil ilgari — bachkana, fosiqdir;

davridan uch yil ilgari — g'ashga teguvchi;

davridan bir yil ilgari — dadil;

juda go'zaldir — modaga kirganda;

didsiz — o'zining davridan bir yil keyin;

xunuk — davridan o'n yil o'tganda;

kulguli — yigirma yildan so'ng;

alomat — o'ttiz yildan so'ng;

o'ziga xos — ellik yildan so'ng;

yoqimli — yetmish yildan so'ng;

romantik — yuz yildan so'ng;

davridan bir yuz ellik yildan so'ng — ajoyib...

«Modani uslub yaratadi» degan jumla bejiz aytilmagan. Inson o'z timsolidan kelib chiqib, ma'lum bir o'ziga xos uslubini topa olsagina u doimo jozibadorligi, estetik yuksakligi va madaniyatlilik bilan ajralib turadi. Bo'lajak rassom-modelyerlar bu mantiqni juda puxta tushunib olishlari lozimdir.

Amaliy mashg'ulotlar

1. Bir millat amaliy bezak san'atini asos qilib olib, «folklor» uslubida 5—7 ta liboslar to'plami tasvirini yarating.

2. «Mumtoz» uslubiga xos 5—7 ta liboslar tasvirini va adras matolarni asos qilib olib, zamonaviy libos eskizlarini yarating.

3. Maxsus kiyim (o'quvchilar, tibbiyot xodimlari, korxonalar uchun maxsus liboslar)ga mos keluvchi yangi libos to'plamlarini yarating.

2.3. SHAKL VA HAJM

«**Libos shakli**» deganda atrof-muhit va inson qomati, uning unsurlari orasidagi ko'p qirrali bog'lovchilik tizimiga ega ma'lum bir vaqtning dinamik modeli tushuniladi. Shakl, shuningdek, rassomning matematik yo'l bilan ifoda etilgan g'oyasi, badiiy asar tizimi — maksimal qulaylik hamda moslikka erishilgan holatdir. Insonda ma'lum bir shaklli buyum yaratish jarayonida o'ziga xos hissiyot shakllanib boradi. Misol uchun, kulol ko'ziga shakl beradi. Tajribadan ma'lumki, pastga kengaygan va pastga toraygan ko'zalar musiqadagi ohanglar misoli turli hissiyotlarni uyg'ota oladi. Ko'za shaklidagi chiziqlarning egiluvchanligi, pastdan yuqori qismigacha bo'lgan chiziqlar xususiyati, ko'zadagi faktura, rang, naqshlar sifatleri, shu ko'zani tomosha



19- rasm. **Shakllarning taqqoslanishi**

qilayotgan inson hissiyotiga turli xil ta'sir o'tkazadi. Shunday qilib, nafaqat ko'za yaratiladi, balki uning ma'lum bir bayramona, jiddiy, qiziqarli, yoqimli, sirli va boshqa qiyofalari ham dunyoga keltiriladi.

19- rasmda uchta ko'za ko'rsatilgan. Ular bir xomashyodan tayyorlangan va faqatgina

shakli bilan farqlanadi, deb faraz qilamiz. Tumshug'i, qorin qismi, tutqichlarining nisbatlarini o'zgartirish orqali rassom bir vazifaga ega, bir xil xomashyodan va bitta konstruktiv asosdan yaratilgan ko'zalarni ishlamoqda. Bundan kelib chiqib, ma'lum bir hissiyotni uyg'otuvchi buyum yaratishda faqatgina ushbu nisbatlarni o'zgartirilishi kifoya, degan xulosaga kelinadi.

Og'ir vaznga ega birinchi ko'za — «jiddiy» ko'rinishda bo'lib, stol ustida mustahkam joylashgan; ikkinchisi nisbatninng cho'ziqligi, tumshuq qismining uzunlashganligi tufayli uzunchoqroq tasavvur qilinib, birinchi ko'za oldida ixchamroq ko'rinmoqda; uchinchi ko'zaning yuqoriga intilayotgan shakli uning bejirim va nafisligini yuzaga chiqarmoqda.

Xuddi shu ko'rinishlar libos shakllarida va uning alohida unsurlarida ham uchraydi. Libosning qulay va bejirimligi, undagi shakl va tarkib (vazifa) orasidagi mutanosiblik topilishiga asoslangandir. Libosning go'zallik tushunchasi doimiy va o'zgarmas bo'lmaydi. Yangi shakllar yaratilishi va o'z tasdig'iga ega bo'lishi bilan ilgarigi shakllar o'z go'zalligini yo'qotadi. Misol uchun, davri bir-biriga yaqin bo'lgan moda yo'nalishini solishtirib ko'ramiz. 1972—1973- yillarda poyafzal platforma poshnali bo'lib, liboslar sport uslubi sifatga ega bo'lgan. Libosda mavjud bo'lib yirik qismlar — yoqa, cho'ntak, koketkalarda ularni og'ir-bosiq ko'rsatish maqsadida to'rtburchak shakllardan ko'p foydalanilgan.

1975—1976- yillarga kelib libosda obraz mumtoz yo'singa kirib, nozikroq ko'rinishga kelgan. Orqa va old bo'laklarni vertikal bo'laklash keng tus olgan. Yubkalar to'g'ri bichimli bo'lib taxlama va kesimlarga ega bo'lgan. Libosning umumiy shakli yengil va ixcham ko'rinishni olgan (20-rasm). Bundan shu narsa ma'lumki, moda shakllanishi tufayli qat'iy, mustahkam to'rtburchakli libos shakllarini nafis, engil shakllar egallaganini ko'ramiz. Buyum sifati va uning yaxlitligi ma'lum bir davrdagi libos shakli yaratilishi jarayonida bir-biri bilan birlashib, uning tashqi

qiyofasini yaratadi. Bu holatni modaga o'xshatish mumkin. Uning ta'sirida davrning yorqin biror belgisi turli vazifaga ega libos kompozitsiyasiga kirib borib, undagi shakl va chiziqlar xususiyatini o'zgartirib yuborishi mumkin.

Yangi shakl yaratish jarayonida tasodif va insonlarning oldindan ko'ra bilish faoliyati muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Albatta iqtisodiyoti rivojlangan jamiyatda tasodif yagona tayanch omili emasdir. Faqatgina oldindan bilingan, ilmiy asoslangan faoliyat libosda modani yaratish bilan birga shakllar va liboslar tashkil bo'lishidagi o'zaro saviyali almashuvni yuzaga keltira olishi mumkin. Bunda libos bejirimligi doimo asosiy o'rinda bo'lishi maqsad qilib olinadi. Libos shaklining sifati umuman va qisman uning estetik qiyofasini namoyon qilishdagi asosiy xususiyatdir, undan libos modelining tuzilishi boshlanadi. Libos shaklida yagona umumiylikka uning kompozitsiyasidagi yaxlit va bo'lakli qismlari, siluet va uning ichki chiziqlari orasidagi mutanosiblik hamda uyg'unlik topilsagina erishilishi mumkin. Shaklga asosan libosning nimaga mo'ljallanganligi o'z ta'sirini ko'rsatadi. Masalan, xizmat uchun mo'ljallangan libos o'ziga xos sifatlarga ega bo'lsa, bayram va tantanalar uchun mo'ljallangan libos o'zgacha sifatga egadir. Ularning har birida o'ziga xos siluet, shakl, bo'laklash chiziqlari mavjuddir. Agarda ulardan bir libos qismlari sifatini boshqa libosga ko'chirib qo'ysak, shakl va siluet chiziqlari orasida nouyg'unlik yuzaga kelishi aniq.

Shakl sifati. *Shakl sifati* — buyumning tuzilishi, uning vazifasi bir xil bo'lgandagi shakllarning shaxsiy belgilar majmuidir. Ma'lumki, bir



20- rasm. Libosning uslubiy va plastik bog'lanishi


vazifaga ega liboslardagi shakllarning uslubiy birligi saqlanib qolishi darkor. Ular orasidagi farq esa kontrast ko'rinishda emas, faqat nyuans ko'rinishda bo'lishi mumkin. Aks holda, bir buyum sifatidagi yaxlitlik saqlansa, shu buyum seriyasida bunday yaxlitlik mavjud bo'lmay qoladi.

Badiiy yechimi va vazifasi asoslangan liboslar majmuida sifat yaxlitligi o'z aksini topadi va ular yagona bir badiiy timsolga birlashishi mumkin. Shakl sifatini topishdagi yagona maqsad, undagi estetik ko'rinishi shakl go'zalligida namoyon bo'lishidadir. U aniq, ta'sirli, tushunarli tarzda ko'rinishi lozim.

Libos shaklidagi shakl g'oyasiga — uning sokin, neytral yoki notinch, dinamik ko'rinishiga qech qanday ortiqchalik ta'sir etmasligi shart. Bu yerda timsolli tarkib o'zini namoyon qilishi muhim, chunki shaklning yaxshi ishlov berilganligi libosning umumiy bejirimligining namoyon bo'lishiga olib keladi.

Shakl hajmi. Shaklning hajmiy xususiyati — uning ko'rinishini belgilovchi qismlari: geometrik turi, muhitdagi o'lchami va holati, vazni, fakturasi, surati, rangi, och va to'qligi orasidagi majmuiy bog'lanishdir. Geometrik tur — libos shaklining xususiyatidir. Uning o'lchamlari orasidagi munosabati hajmning uch o'lchamli koordinatasida aniqlanadi. Uch asosiy o'lchamlar ichidan birining ustun kelishi tufayli shaklning uch hajmiy turi aniqlanadi.

1. Chiziqli — bir o'lchamning koordinatadagi boshqa o'lchamlardan butunlay yoki asosiy qismda ustun turishida namoyon bo'ladi (21- a rasm).



21- rasm. Shaklning hajmdorlik darajasi

2. Tekislikli — koordinatalarning birida o'lchamning keskin, yoki butunlay kamayishidan hosil bo'ladi (21- b rasm).

3. Hajmiy, uchta o'lchamda bir-biriga nisbatan tenglik mavjudligi bilan ifodalanadi (21- d rasm).

Hajmiy o'lcham — shakl yoki uning unsurlarining uch koordinata bo'ylab uzunlashish xususiyatidir. Libosning hajmiy o'lchami inson qomati o'lchamining libos bo'laklari yoki umumiy libos o'lchami orasidagi bog'lanishi bilan baholanadi. Libosning asosiy xususiyatidan biri uning shaklining inson qomati va atrof-muhit bilan bog'liqligidir. Bunda libos shakli doimo inson qomatining go'zalligini namoyon qilib turishi lozimligini yodda tutmoqlik kerak.

Amaliy mashg'ulotlar

1. Turli shakllarga ega 20–30 ta liboslar tasvirini yarating.
2. Kichik hajmga ega liboslar shakllari tasvirini yarating.
3. Katta hajmga ega liboslar shaklining tasvirini yarating.

2.4. KOMPOZITSIYADA VAZN VA MUVOZANAT

Ko'pincha kompozitsion vazifani yechishda nazarimizda namoyon bo'luvchi vaznning hisobga olinishi katta ahamiyatga egadir. Chunki inson va libos orasidagi munosabatning bog'liqligi shuhbasizdir. Libosni majmuini tuzuvchi buyum (bosh kiyim, ust kiyim, sumka, poyafzal) o'lchamlari va shakllar mohiyati asosiy xususiyatni tashkil qiladi.

Vaznning his qilinishi — shakl xususiyatidir. Shuningdek, ma'lum bir ko'rinishga ega geometrik shakl chegarasidagi hajmni to'ldiruvchi tarkib miqdoriga nazarimiz orqali berilgan bahodir. Shakl o'lchami kattalashgan sari nazarimizda uning vazni og'irlashadi. Vazn his qilinishi uning geometrik shaklining ko'rinishiga bog'liq. Eng katta vaznga ega bo'lgan shakllar — bu kub, sharga va boshqa uch o'lchamli koordinata bo'ylab teng o'lchamlarga ega yoki shunga yaqin hajmdagi ko'rinishga ega shakllardir. Eng kam vaznga ega bo'lgan shakllar esa hajmi chiziqli bo'lganlaridir (21-rasm).

Vazn his qilinishi, shuningdek, shakl fakturasi va to'ldirilish zichligiga ham bog'liq. Agar shaklning to'ldirilish zichligidan sirtining tarkibi farqlanmasa (masalan, silliq sirt bo'lsa), shakl og'irligi his qilinmasligi mumkin. Shakl vazniga, shuningdek, tarkibining detallar (cho'ntak, klapan va boshqalar) bilan to'lganligi; rangi, mato naqshi va fakturasi; shu shakl bilan qo'shni bo'lgan boshqa buyumlar o'lchami va miqdori

ham ta'sir qiladi. Vaznning kattaligi ma'lum bir buyum shaklining boshqa mayda detallar shakli bilan taqqoslash natijasida ko'rinadi. Xuddi shunday taqqoslash tufayli vazn yengillashuvini ham kuzatamiz. Shaklning barcha vazn o'zgarishlari haqiqiy emas, u bizning nazarimizdadir. Ushbu xususiyatlar libos modelini yaratishda keng qo'llanilib kelinadi. Masalan, 20- rasmda biz libos shaklidagi moda yo'nalishi tufayli vazn o'zgarishini ko'rishimiz mumkin. Bir libosning to'rtburchakni eslatuvchi shakllari ko'p takrorlanib, uning og'irligini kuchaytirgani sezilsa, ikkinchi libosda yengil va nozik shakllardan tuzilgan modelning birinchisidan vazni bilan farqlanishi ko'zga tashlanadi. Bu kuzatuvdan statik sifatli shakllar o'zaro turg'un, qo'zg'almas xususiyati bilan og'ir vaznni keltirib chiqaradi, degan fikr tasdiqlanadi. Bir muncha dinamikaga ega bo'lgan geometrik shakllar, egri va qayishqoq chiziqlar yordamida hosil bo'lgan shakllardan doimo vazni yengil hisoblanishi mumkin.


Shakl vaznini ko'rib, idrok etishga quyidagi omillar ta'sir ko'rsatadi:

1. Shaklning geometrik turi (22- rasm).

22- *a* rasmda statik xususiyatga ega geometrik shakl namoyish etilgan. Ushbu shaklning va detallarining to'rtburchakli ko'rinishi, bizning tasavvurimizda g'isht, sandiq kabi og'ir jismlarni namoyon etadi. Shuni hisobga olib, biz ushbu shaklni og'ir shakl deb ataymiz.

22- *b* rasmda birmuncha dinamik xususiyatga ega shakl ko'rsatilgan. Ushbu shakl birinchi shakldan ko'ra bizga yengil jismlar bilan bog'liq hissiyot uyg'otgani sababli, uning vaznini yengil deb ataymiz.


Shakllarning vazni ushbu shakllar ko'rinishi bir xil bo'lgan taqdirda ularning joylanishida aks etishi mumkin. 22- *d* rasmda ikkita bir xil o'lchamli to'g'ri to'rtburchak — biri tik holda, ikkinchisi yotgan holda ko'rsatilgan. Ushbu vaziyatda tik turgan shakl yengil, yotgani esa og'ir his qilinadi. Chunki yotgan shakl hissiyotimizga go'yo o'z vaznini ko'tara olmay, yerga bosilib qolganday ta'sir etadi.



22- rasm. Shakl vaznining taqqoslanishi

2. *Shaklning katta-kichikligi* so'zsiz ular orasidagi vaznning yaqqol taqqoslanishidir. Katta hajmga ega shakl o'z maydonining kattaligi tufayli o'zidan kichik bo'lgan shakldan ko'ra vazni og'irroq his qilinadi.

3. *Shaklning chegarasi doirasida har xil chiziqlar bilan to'lganlik darajasi.* Quyidagi 23- rasmda ikkita bir xil ko'rinishga ega libos shakli ko'rsatilgan. Ulardan ikkinchisida (23- *b* rasm) chiziqlar bilan



23- rasm. Shaklning chiziqlar bilan to'lganlik darajasi

to'lganlik darajasi ko'p. Shu sababli u og'ir shakl hisoblanadi.

4. **Gazlamaning tarkibi**, tolasi, fakturasi, rangi va naqshi shakl vazniga asosiy ta'sir etuvchi omillardan hisoblanadi.

5. **Libos shaklining tomonlari** bir-biridan farqlanadi. Masalan, o'ng tomoni so'l tomoniga nisbatan og'ir his qilinadi. Shuning uchun vazn muvozanatini saqlash maqsadida liboslarda yuqori qismga joylashtiriladigan cho'ntak, znachok, orden va boshqalar kiyimning chap tomoniga o'rnatiladi.

6. **Libos shaklining bel chizig'iga nisbatan joylanishi**. Beldan yuqori qismi pastdagiga qaraganda og'irroqdir. Bu vaziyatda ham vazn muvozanatini saqlash maqsadida, masalan, katta qo'yma cho'ntaklar beldan pastga joylashtirilib, kichik cho'ntaklar beldan yuqorida bo'lgan joylarga o'rnatiladi.

Sanab o'tilgan omillarni hisobga olinsa, libos yaratishda vazn muvozanatiga erishish mumkin. Masalan, libosning ko'krak qismidagi katta cho'ntaklar, bel chizig'idan pastdagi kichik cho'ntaklar kompozitsiyaning buzilishiga olib kelishi aniq. Shuning uchun, libos vazni bo'yicha yuksak natijalarga erishmoq uchun vaznga ta'sir etuvchi omillardan yuqori did, saviya va mahorat bilan foydalanmoq talab etiladi. Chunki, buyum kompozitsiyasini tuzishda muvozanat hisobga olingan taqdirdagina kompozitsion yaxlitlikka erishilish mumkin.

Muvozanat — shaklning shunday xususiyatiki, undagi barcha unsurlar o'zaro mutanosiblashtirilgan ko'rinishga ega. Kompozitsion muvozanat libos silueti kompozitsiyasidagi asosiy vaznlarning uning markaziga nisbatan taqsimlanishiga bog'liq. Bu bilan muvozanat alohida qismlarning o'zaro va asosiy qismga nisbatan, ulardagi siluet ichki maydonlarining nisbatlar bilan bog'liq taqsimlanish xususiyatiga; siluetning asosiy va yordamchi o'q chiziqlarining joylanishiga; shakl plastikasi, rang va tuslar mutanosibligiga bog'liqdir. Bir qaraganda chiziqlar koordinatasi ushbu faktorni qaysidir ma'noda ta'minlab turadi. Biroq buyum muvozanatiga erishishdagi asosiy omil komponovka qilinayotgan badiiy buyumning og'irlik markazi bilan mos kelgan yoki mos kelmagan kompozitsion markazning mavjud bo'lishidir. Kompozitsion markaz va dominant haqida keyingi bo'limlarda batafsil

bayon etiladi. Libosning qismlaridan birining – dominantning ustun turishi kompozitsiyada yaxlitlikni ta'minlaydi. Libos kompozitsiyasida muvozanatga erishishga yordam beruvchi yana bir omil, inson qomatining simmetrik tuzilishiga egaligidan chiqib yondoshmoqdir. Biroq qomatning simmetrik tuzilishi doimo kompozitsion muvozanatni ta'minlay olmaydi. Ammo unga inson qomatining simmetrikligidan foydalanilib tuzilgan taqdirda, asimmetrik shaklga qaraganda tezroq erishilishi mumkin. Shu bilan birga insonning yon tomonidan ko'rinishi nosimmetrikdir. Shaklning yon tomondagi yechimini topishda his qilnadigan og'irlikni hisobga olishimiz kerak. Libos shaklida vaznning asosli taqsimlanishi uning shakllanishini belgilab beradi. Shakl, nazarimizda, mustahkam ko'rinishli bo'lishi — undagi vertikal o'q chiziqlari tomon yo'nalgan dinamik vaznlarning yotiq yoki og'ma joylashgan statik vaznlar bilan bog'lanishini topishga bog'liq.

Kompozitsion muvozanat yechimi libosning vazifasiga bog'liq ravishda topiladi. Ishga mo'ljallangan liboslar shakli inson qomatini takrorlaydi, libos vazni inson vazni bilan moslangan ko'rinishda bo'ladi. Yechim inson qomatining tashqi chiziqlarini takrorlash, harakatiga qulay siluet yaratish bilan yechiladi. Bayram marosimlarga mo'ljallangan liboslar vazni esa inson qomatini takrorlamaydi, chunki u o'z bejirimligini namoyish etishi kerak. Bu o'rinda muvozanat yechimi libos shaklidagi vazn miqdorini qomat shakliga zid qo'yish orqali topiladi. Bu yerda kompozitsion muvozanatga erishish yo'lida rassomning rivojlangan hissiyoti va mahorati talab etiladi.

Kompozitsion muvozanatga nafaqat shakllar vazni orasidagi munosabat, balki rang ham o'z ta'sirini o'tkazadi. Masalan, faol rang shaklning his qilinishini kuchaytiradi va uning silueti faol qabul qilinadi. Shuning uchun kompozitsion muvozanatni mustahkamligini saqlab qolish maqsadida, rang faolligi va miqdorlaridan to'g'ri foydalanish darkor. Libosning yuqori qismida ranglarning ko'payib ketishi siluetning go'yo mustahkam emasligiday taassurot qoldirishi mumkin. Libosda kompozitsion muvozanatga erishish jarayonida libosning har tomondan: old, yon, orqa tarafdin ko'rinishini hisobga olish darkor. Agar qomat simmetrikligini uning oldidan va orqasidan ko'rinishi ta'minlasa, yon tomondan qomat asimmetrikligi o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Bu holda kompozitsion libos shaklining muvozanatga erishishida ularning vazniga qarab taqsimlanishi yordam beradi. Libos shaklida yanada aniqroq muvozanatga erishilishi rassom-modelyerning o'z sohasining ustasi ekanligiga va uning katta mahoratiga tayanadi.

1. Turli vaznga ega 20–30 ta liboslar shakllarining tasvirini yarating.
2. Yengil vaznga ega liboslar shakllari tasvirini yarating.
3. Og'ir vaznga ega liboslar shaklining tasvirini yarating.

2.5. SILUET VA UNING AHAMIYATI

Libos — bu eng avvalo fazoviy hajm shaklidir. Libos qismlarining (yubka, lif, yeng) o'zaro nisbati, poyafzal va bosh kiyimlarning shakli bilan birga mato va uning fakturasi bilan qo'shilishi — libos shaklini va tarkibini yaxlitligicha tavsiflab beradi. Libos shaklining mohiyati tavsifi va uning badiiy ifodasi siluet hisoblanadi. **Siluet** — bu shaklning tekislikdagi soyasidir. Libosda moda yo'nalishining o'zgarishi, avvalo uning silueti o'zgarishiga bog'liqligi biz uchun tasodifiy xol emas, albatta. Siluet inson tanasiga yopishganlik darajasi — yopishganligi, yarim yopishganligi, erkinligi, keng va pastga torayib ketganligi bilan farqlanishi mumkin. Siluetning muhim tavsifi uning geometrik shaklidir. Shunday qilib, barcha ustma-ust tushgan bezaklar, detallarda aniq bo'lmasa-da, ko'z bilan chamalab, uning taxminan u yoki bu geometrik shaklga tegishli ekanligini ko'rishimiz mumkin. Siluet libos shaklining asosini belgilab, uning biron-bir davrga tegishlilikini ko'rsatadi. Libos tarixi bizni siluetlarning ko'plab turli-tuman turlari bilan tanishtiradi. Nazarimizda, kiyim silueti xuddi sodda geometrik shaklga intilayotgandek. Bundan kelib chiqib, to'g'ri burchakli to'rtburchak, uchburchak (hamda trapetsiyali) va ovalli (tuxumsimon) (24- rasm) uchta geometrik shaklni ajratib olamiz va shu uch shaklni o'zak shakl deb hisoblaymiz. Chunki ular libos siluetining rivojlanishining turli xil bosqichlarini tavsiflaydi. Libos siluetlarini fikran ma'lum bir geometrik shakllarning biriga moslashtirilganligi uchun ularning nomlanishi shu shaklni belgilaydi (uchburchaksimon, tuxumsimon va boshqalar).

To'g'ri burchakli to'rtburchak siluetlarning (24- a rasm) tashqi chiziqlari parallel yoki parallelga yaqindir. Har bir tarixiy davrda bu siluetlar o'z nisbatlarini o'zgartirgan bo'lsa-da, to'g'ri burchakli siluetlar statik, muvozanatli, sokin va jiddiy holatni vujudga keltiradi. U figuraga qandaydir erkakcha ko'rinish bag'ishlaydi. Tarixda bunday siluetga ayollik nazokatini yashirish maqsadida murojaat etilgan. Hozirgi kunda sport va mumtoz uslubli liboslar siluetlarining assosi ko'pincha shu shakldan tashkil topgandir.

Uchburchak siluetlarning (24- b rasm) tashqi chiziqlari bir-biriga nisbatan burchak ostida joylashgan. Bu chiziqlar qayerdadir — hayol qilingan nuqtada kesishishi ko'zda tutiladi. Bu siluetlar ko'pincha qomatga yengillik, nazokat va nafasat bag'ishlaydi. Ular to'g'ri burchakli siluettarga qaraganda dinamikroq, chunki shakl uchburchak asosidan uning cho'qqisiga intiladi. Tavsif etilayotgan siluetning uchburchakli asosi (asos deb yubka yoki libos etagi tushuniladi) qanchalik keng bo'lsa, uning cho'qqisi (bosh kiyim, soch turmagi) shunchalik past bo'ladi va uning silueti mustahkam va turg'un ko'rinishga keladi. Uchburchak asosi yotiq holatda yerga yopishgan bo'lsa, siluet turg'unlashgan sayin qomat ham mustahkam ko'rinadi.

Uchburchak asosi yer sathidan uzoqlashgan sayin uchburchak asosi qisharib yuqoriga intilarkan, shakl birmuncha turg'unlikdan chiqib, dinamik holatga o'tishni boshlaydi, qomat uzun bo'yli, kelishgan va dinamik ko'rinish oladi. Shakl qanchalik dinamiklashsa, u shunchalik turg'unlikni yo'qotadi. Uchi pastga qaragan uchburchak silueti mustahkam ko'rinmaydi. Asimmetrik uchburchaklar dinamik hissiyot keltirib chiqaradi.



Oval (tuxumsimon) siluettarning (24- e rasm) asosiy chegaraviy kontur chiziqlari ravon, qabariq, botiq egri chiziqlardan iborat. Bu siluetlar qomatga yumshoq va nafis ayollik nafasoti bag'ishlaydi. Oval aylanaga yaqinlashib borgan sayin qomat shunchalik past va keng ko'rinish oladi. Uzunchoq oval qomatni cho'zib ko'rsatadi.

Murakkab siluettarni (24- d, f rasmlar) sodda geometrik naqshga kiritib bo'lmaydi. Ularning tasvirini bir necha geometrik shakllarning qo'shilgani tarzida tasavvur qilish mumkin. Ko'pincha murakkablashtirilgan siluetlar qomatning tabiiy nisbatini buzib ko'rsatadi. Ular modaga juda kam kiradi va tezda soddaroq siluetga almashtiriladi.

O'tgan zamonlar liboslarini bir-biri bilan taqqoslab ko'rsak, geometrik shakllarning asta-sekinlik bilan o'zgara borishi o'sha davrlar uslublarning o'zgaruvi bilan bog'liqligini ko'ramiz. Misol uchun, qadimgi Yunoniston liboslari to'g'ri burchakli siluetga xos bo'lsa, o'rta asr liboslariga uchburchakli va trapetsiya siluettari xosdir.

Barokko va rokoko uslublari davrida libos siluetining oval shakli negiz bo'lib xizmat qilgan. XX asr boshlarida esa yana to'g'ri burchakli shakl hukmronlik qila boshladi. Shunisi sezilarliki, libos siluetining o'zgaruvchanligi bu davrga kelib, oldingi davrga nisbatan tez-tez amalga oshdi. Biroq XX asrda siluetning barcha shakllari ma'lum bo'lgan edi va oqibatda birining o'rnini ikkinchisi ketma-ket egallay boshladi.



Zamonaviy modaga xos libos modeli shakllarining konstruksiyasi,




a



b



d



e



f

24- rasm. Siluetlar shaklining tuzilishlari


silueti va bezagining har xil bo'lishi keng imkoniyat yaratdi. Modellar har yili o'zgaradigan— oldingi shakllar o'rnini yangilari egallaydigan siluetlar ham biri ikkinchisiga o'xshamaydigan va bir-biridan keskin farq qiladigan bo'ladi. Zamonaviy moda yo'nalishiga asoslanib libosda nisbatlar ketma-ket o'zgarib turdi. Yuqorida aytib o'tganimizdek, libos siluetining geometrik shakllarining uch xil ko'rinishi asos yoki o'zak hisoblanadi. Biroq amaliyotda ular sof holida juda kam uchraydi. Biror-bir siluetga yordamchi geometrik shakllarni yuksak mahorat bilan qo'shish orqaligina, uning yangi talqinlarini hosil qilishimiz mumkin. Ammo ushbu shakllar noo'rin qo'shib yuborilsa, yuqorida aytilganidek, qomat nisbatlari yo'qolib, libos noxush hissiyot keltirib chiqaradi. Demak, libos silueti qomat nisbatlari bilan hamohang tarzda namoyon bo'lishi ayni muddaodir.

Amaliy mashg'ulotlar

1. *Uchburchak siluetga 10–15 ta libos shakllarini yarating.*
2. *Oval siluetga 10–15 ta libos shakllarini yarating.*
3. *To'g'ri to'rtburchak siluetlariga libos shakllarini chizing.*

2.6. LIBOSDA CHIZIQLAR AHAMIYATI

Chiziq — rassomning amalda eng ko'p qo'llaydigan badiiy tilidir. Uning yordamida shakl va tekislik chegaralari aniqlanadi. Chiziq — tasvir etilayotgan shaklning atrof-muhitdan ajratib ko'rsatuvchi chegaradir. U shakl chegarasini aniqlash bilan birga, rassomning hissiyoti va hayajoniga ta'sir etadi. Chiziqqa tasviriy san'atda ko'plab tavsiflar berilishi shundandir. U yengil va sehrli, turg'un va intiluvchan, iliq va shiddatlidir. Ilgari yashab o'tgan ko'plab rassomlar chiziqni yuksak his qilish qobiliyatlari tufayli, ulkan badiiy meros qoldirgandirlar. Chiziqli yo'l bilan tasvirlash va aniqlashtirish ijodning o'ziga xos uslubi hisoblanadi. Rassom san'at asari, shuningdek, libos yaratishda turli — to'g'ri gorizontal, to'g'ri vertikal, egri, qiyshiq, siniq, aralash, parallel va kesishuvchan chiziqlardan (25-rasm) foydalanadi. Gorizontal chiziqlar buyum kengligi haqida ma'lumot berib, unga to'lalilik, sokinlik va turg'unlik holatini bag'ishlaydi. Chiziqlarning cheksiz xilma-xilligiga ko'ra uch guruhga ajratishimiz mumkin: to'g'ri chiziqlar; egrilik radiusi doimiy chiziqlar — yoylar; egrilik radiusi o'zgaruvchan chiziqlar — porabola, giperbola va spiral. To'g'ri va egrilik radiusi doimiy bo'lgan chiziqlar insonda turg'unlik, sokinlik, muvozanat holatli hissiyotni vujudga keltiradi. Egrilik radiusi o'zgaruvchan chiziqlar



25- rasm. Chiziqlar xususiyatlari

yashash sharoiti, xalqning milliy o'ziga xosligi, turli tabaqalanishlarning ijtimoiy holati, mutaxassisligining tavsifi, malakasi va madaniy yetukligi bilan chambarchas bog'liqdir. Shuning uchun, masalan, bir rang turli xalqlarda turlicha his etiladi. Masalan, motam rangi bir xalqda qora, ba'zilarida oq, ba'zilarida esa havorangdir. Rus tadqiqotchisi N. G. Chernishevskiy «San'atning haqiqatga estetik munosabati» deb atalgan ilmiy ishida dehqon, savdogar va amaldor ayollarda turli chiziqlar, nisbatlar va shakllar bir-birida farqli, o'zgacha zavqlanish hissini uyg'otishini nihoyatda sodda va ishonchli yo'l bilan tushuntirgan. Bundan insonning ijtimoiy tabiati atrof-muhitga bo'lgan munosabatiga aniq ta'sir etadi, degan xulosa kelib chiqadi.

Chiziqlar yordamida libos siluetida va uning alohida qismlarida mukammal aniqlikka erishishimiz mumkin (26- rasm). Libos shaklining tashqi konturini ko'rsatuvchi chiziqlar **siluet chiziqlari** deyiladi. Ular libos tavsifini yaratishda aniqlovchi bo'lib xizmat qiladi (26- a rasm). Siluet (fason)ning ichki tuzilishiga yordam beruvchi chiziqlar **fasonli chiziqlar** deb ataladi. Fason chiziqlari siluet bilan chambarchas bog'liq bo'lib, unga bo'ysunadi (26- b rasm). Ular siluet chiziqlarini kuchaytiradi. Siluet va fason chiziqlarining birligi va uyg'unligi libosning timsolli va uslubiy yechimining yaxlitligini ta'minlashda yordam beradi. Bir tavsifga ega chiziqning doimiy qo'llanilishi, libos aniqligini zerikarli va noaniq qilib qo'yishi mumkin.

Libosning hajmiy shakli, uning konstruksiyasini (vitochkalar, koketkalar va boshqa libos detallarini) ko'rsatuvchi chiziqlar — **konstruktiv chiziqlar** deb ataladi (26- d rasm).

Libosning bezagi bo'lib xizmat qiluvchi va istalgan vaqtda libos shakli va konstruksiyasini buzmasdan olib tashlash mumkin bo'lgan chiziqlar — **dekorativ chiziqlar** deyiladi (26- e rasm). Dekorativ chiziqlar, odatda,

esa, aksincha, o'zgaruvchan, dinamik, to'liqlik va bejirimlilik tuyg'usini keltirib chiqaradi. Porabola va giperbolalar faol his etilganligi uchun ular ruhiyatni tez charchatadi. Shuning uchun uning libos, poyafzal va boshqalarda qo'llanilishi cheklanganadi.

Inson hissiyotining o'zgaruvchanligi uning jamiyatdagi



26- rasml. **Libos chiziqlari**

konstruktiv chiziqlarga bo'ysunuvchi bo'ladi, ko'pincha u bilan to'qnashishi, bir o'rinda bo'lib qolishi mumkin.

Bir libosda tavsifi turlicha bo'lgan chiziqlar uyg'unlashishi mumkin. Masalan, to'g'ri chiziqlarning jiddiylikni ravon fason chiziqlari yumshatadi. Chiziqlarning uchta asosiy yo'nalishlari mavjuddir:

Vertikal chiziqlar shaklning dinamikasini kuchaytirib, qomatga uzunroq ko'rinish bag'ishlaydi.

Gorizontal chiziqlar qomatni nazarimizda kengaytirib, bo'yini qishartiradi va shaklga katta mustahkamlik, statiklik bag'ishlaydi.

Diagonal chiziqlar (og'malar) shaklining dinamikasini kuchaytirib turib bir-biridan uzoqlashgan paytda qomatni kengaytiradi va bir-biriga yaqinlashgan sari uni ixchamlashtiradi. Ixtiyoriy libosda, uning kompozitsion fikriga qarab, uch xil chiziq barobar qatnashishi

mumkin, ammo ularning faqatgina bittasi urg'u bo'lib xizmat qiladi.

Barcha yo'nalishlardagi chiziqlarni uyg'unlashtira turib, unga yagona yo'nalishni asos qilib olinishi chiziqli libos kompozitsiyasining mohiyati hisoblanadi. Fason chiziqlarning joyi va yo'nalishining tanlanishi siluet tavsifidan kelib chiqadi. To'g'ri tushgan siluet ko'pincha chiziqlarning ixtiyoriy joylanishi va yo'nalishi bilan mutanosib bo'laveradi. Libosning yuqori qismidagi gorizontal chiziqlar, nazarimizda, yelkani keng ko'rsatadi. Ular jaketning etak chizig'ida bo'lsa, bo'ksani kengaytiradi. Etakdagi bezak chiziqlar (tahlama, burmalar, kashtalar, kantlar) shakllarning to'g'ri burchakli to'rtburchagini tugatadi. Markaz choki, vertikal relyeflar, og'ma chiziqlar siluetning mustahkamligini buzmaydi.

Diagonal yo'nalishli chiziqlar ko'pincha uchburchak siluetlarda yanada aniq ko'rinadi. Markaziy o'q chiziq siluetni yuqoriga intilishini kuchaytiradi. Ushbu siluetda gorizontal chiziqlarni qo'llash o'rinsizroq, chunki ular shakl dinamikasini sustlashtiradi.

Vertikal va gorizontal chiziqlar oval siluetda deyarli qo'llanilmaydi. Bu yerda siluet chiziqlarini takrorlovchi nafis og'ma chiziqlarni qo'llash o'rinlidir. Har bir libosda «asosiy» deb nomlanuvchi chiziq mavjud. Asosiy chiziq libosning tavsifini ko'rsatib, uning vazifasi, uslubiy yechimini

belgilaydi, bu chiziq konstruktiv ham, yoki dekorativ chiziq ham bo'lishi mumkin. Libos kompozitsiyalarida chiziqlarning to'g'ri va mutanosib topilishi shu kompozitsiyani yaxlit va tugallangan ko'rinishini vujudga keltiradi. Uyg'un libos kompozitsiyasini yaratishda, har bir chiziqning xususiyatini bilish va uni qo'llash mahorati kuchli bo'lishi juda muhimdir.

Amaliy mashg'ulotlar

1. *Uchta bir xil siluetni chizing. Ularga fason chiziqlarini shunday bir tarzda tushiringki, uchta libos shakli bir-biridan keskin farq qilsin.*

2. *Ikkita fason chiziqlari chizilgan siluettlarni birini konstruktiv, birini dekorativ chiziqlar bilan to'ldiring.*

3. *Tayyor siluetga qomatni uzaytiruvchi va ozg'in ko'rinishga keltiruvchi konstruktiv va dekorativ chiziqlar tanlang.*

2.7. NISBATLAR

Rassom bo'lajak libosning ilk tasvirini tushirganda, eng avvalo shu libosning shakllari orasidagi mutanosiblikni topishga harakat qiladi, ya'ni nisbatni tasavvur qiladi. Yelka chizig'i yeng, yoqa va buyumning umumiy shaklini belgilab qo'yish kamlik qiladi. Endi bularning hammasini o'zaro va inson qomati bilan birga qanday munosabatda bo'lishini aniqlash lozim bo'ladi. Agar, masalan, yenglar shaklining vazni nazarimizda og'irlashib ketsa va siluetning umumiy vazni unga qarshi tura olmasa, libosda nyuans ham ritm haqida gap bo'lishi umuman o'rinsizdir.

Nisbatlar kompozitsiyaning asosiy vositalaridan biridir. Chunki uning yordamida buyum uyg'unligi topilib, shakli mukammallashadi. Nisbat — bu shakl qismlari o'zaro munosabatining hajmiy o'lchamli tarkibning yaratilishiga yordam beruvchi puxta o'ylangan o'lchamlar tizimidir. Agar nisbat haqida puxta o'ylanganlik mavjud bo'lsa, shakl umumiyliги ham mavjud bo'ladi. Nisbat shakllar uyg'unligini topishdagi asosiy vositadir. Bu sifatlar antik davrdanoq me'morchilik sohasida o'z aksini topgan. Maqsadli va mahoratli bajarilgan nisbatlash uyg'unlikni keltirib chiqaradi. Nisbatlash o'lchami ma'lum bir jismdan yuzaga keladi. Bu jism libosda inson tanasi hisoblanadi. Uning tarkibida oltin kesim qonuniyati yotadi. Ammo libos tuzilishining qonuniyatini oltin kesimga bog'lash noto'g'ri, chunki san'at — normalar hissiyot bilan to'g'rilanganda boshlanadi. Libosni yaratayotganda rassom-modelyer doimo inson qomatini o'z tasavvurida olib turadi. Inson qomati va harakati bilan asoslangan libos shakli bir necha ishlov berish bosqichlaridan o'tadi.

Qalam bilan tasvir tushirish yoki manekenda matoni chamalab ko'rish – nisbatlashning *birinchi bosqichidir*. Bu bosqichda mato xususiyati yordamida barpo etilayotgan shakl turli o'lchamli munosabatlar bilan «tahrir» qilinadi. Qoidaga muvofiq bu yerda siluet va uning qismlarining ko'rinishlari o'z aksini topadi. Shakl tizimining nisbatini topish jarayonida, eng ma'quli, ya'ni qomatga, uning harakatiga eng yarashib turadigan vaziyat tanlab olinadi.

Nisbatlashning *ikkinchi bosqichida* shaklning loyahasiga ishlov beriladi. Bunda mato xususiyatidan kelib chiqib, shakl ko'rinishi manekenda matoni qo'yib ko'rish orqali libos bo'laklari orasidagi nisbatlar topiladi.

Libos tizimining nisbiyligini, qismlar mutanosib bo'lib, yaxlit holda ko'rinishini uning loyahasining mukammal va ko'rkamligi ta'minlaydi.

Italiya Uyg'onish davrining mashhur me'mori Alberti nisbat haqida shunday so'z yuritadi: «Go'zallik – bu mavjud bir tizimga tegishli barcha qismlarning mutanosib uyg'unligidir. Bu yana shunday uyg'unlikki, uni buzmasdan turib na biron nima qo'shib bo'ladi va na biron-bir narsasini ajratib bo'ladi».

Shakl nisbatlari orasidagi eng ma'qul munosabat topilganda, ularning xususiyatidan kelib chiqib, bezaklash jarayoni amalga oshiriladi. Shakl nisbati obyektivlik orqali tuziladi, agar ushbu obyektivlik rassom-modelyer tomonidan hisobga olinsa, shakl ishonchli ravishda juda go'zal ko'rinishda bo'ladi. Ammo ko'pincha rassom-modelyer libosni modellashtirish va loyahasini tuzish bilimlaridan xoli ravishda, o'z hissiyotiga ishonib model yaratsa, loyihachi esa o'lcham va hisob-kitobni o'rinli bajarib, chegaradan chiqmay yaratgan modeli bejirim va go'zal ko'rinishga ega bo'ladi deb o'ylaydi. Ikki holda ham bajarilgan ishlar omadsizlikka yuz tutadi. Hissiyot inson tanasi va kiyimi o'lchamlari hamda loyihalariga asoslansa; go'zallik hislari mato xususiyatlari, qomat tuzilishining o'ziga xosligi bilan to'g'rilansa kerakli izlanayotgan natijani beradi. Aks holda, o'ylanayotgan shakl yoki go'zallikdan yiroqlashadi, yoki keraksiz bo'lib qoladi. Libosning yangi shakllarini yaratish, doimo bir hajmga ega tizim – inson qomati uchun mo'ljallanadi. Loyihalashning murakkabligi ham va, soddaligi ham shundadir.


Nisbatlash ko'pincha ikki yo'nalishda sodir bo'ladi: *birinchi yo'nalishda* rassom-modelyer – erkindir. U bu holda nisbatni matolardan izlaydi. Yangi mato libosning shaklini va vazifasini belgilaydi. Rassom nisbatlashni xomashyodan kelib chiqib bajaradi va xomashyo unga shaklni aytib turadi. Shakl, esa o'z navbatida loyihasi qanday bo'lishiga ishora qiladi. Shakl bo'laklari va maydonlarining munosabati mato xususiyati, harakatda

matoning o'zini tutishdan sodir bo'ladi. Rassom turli-tuman bir qancha siluetlarni boshqarib, qomat go'zalligi uchun eng maqbulini tanlaydi.

Ikkinchi yo'nalishda buyum shakli, libos vazifasi aniq bir siluet bilan chegaralansa, model nisbatini yaratish mato xususiyatidan emas, libosning nimaga mo'ljallanganligiga bog'liq bo'ladi. Bunda, masalan, ishlab chiqarish korxonalari xizmat ko'rsatish muassasalari uchun maxsus liboslar yaratish nazarda tutilmoqda. Bu holda libos shakli aniq bir ko'rinishni ifoda etib, ortiqcha hajm, murakkab siluetli tasvirlarga o'rin bo'lmaydi. Nisbatlash, bir siluet — masalan, to'g'ri to'rtburchak yoki trapetsiya tarkibida amalga oshiriladi.

Inson qomatining o'zi eng maqbul va doimiy o'zgarmas tizimdir. Rassom-modelyerga qomatning siluetini topib, uning ichki chiziqlarini belgilab, ichki shakl bo'laklarini joylashtirish qoladi, xolos. Ammo bularni matoda o'ylangan badiiy g'oya va aniq maqsad ma'lum bo'lsagina bajarish lozim bo'ladi. Shuningdek, nisbatlashni gorizontal, vertikal va diagonal chiziqlar yordamida shakl barpo etish bilan amalga oshiriladi (27- rasm). Chiziqlar faolligi oshishi bilan ularning libosdagi tuzilishidagi o'rni muhimlashadi. Bu chiziqlar libos kompozitsiyasining umumiy tasnifini ham belgilashi mumkin. Masalan, agar gorizontal bo'linishlarni asos deb olsak, libos kompozitsiyasi gorizontal tasnifga ega bo'ladi. Agar shakl bo'laklari munosabati qurilishi faol vertikal chiziqdan yuzaga kelsa, libos kompozitsiyasi vertikal tasnif tusini oladi.

Og'ma chiziqlar yordamida shakllar tuzish bir muncha murakkabroq. Chunki bu yerda bo'laklar tuzilishi va maydoni xilma-xilligi yuzaga keladi. Bunda inson qomatining simmetrikligini mo'ljallab qilib, libos kompozitsiyasi tuziladi. Agar yechim asimmetrik bo'lishi kerak bo'lsa, hissiyotga tayangan holda shakllar maydoni orasidagi muvozanat topilib, kompozitsiyaning yechimi topiladi. Demak, nisbiy tizimdagi shakl



27- rasm. **Libos shaklini chiziqlar bilan nisbatlash**

qurilishi, bu, avvalambor, libos estetikasi va vazifasi bilan uyg'unlashtirgan holda, shakllarni eng maqbul, qulay va go'zal tomonini topib, namoyon etishdir.

Amaliy mashg'ulotlar

1. Nisbatlari to'g'ri topilgan 10–15 ta liboslar shakllarini yarating.
2. Libos nisbatlari turlicha bo'lgan 10–15 ta tarixiy liboslar tasvirlarini manbalarga asoslanib chizing.
3. Nisbatlari har xil bo'lgan 10–15 ta o'zbek milliy liboslar tasvirini chizing.

2.8. SIMMETRIK VA ASIMMETRIK MUTANOSIBLIK

Libos kompozitsiyasi ustidagi barcha izlanishlar inson qomati tuzilishi bilan bog'liq bo'lganligi uchun shu buyum shakli bilan inson qomati orasidagi bog'lanishni topish majburiy shartlardan biri hisoblanadi. Ushbu bog'lanishlarning tasnifi, avvalambor, simmetriya yoki asimmetriya qonuniyati tomonidan aniqlanadi.

Simmetriya — bu kompozitsiyada shakllar tuzilishi xususiyatini eng yorqin namoyon bo'lishini belgilovchi sifat bo'lib, kompozitsiyaning eng faol qonuniyatlaridan biridir. Simmetrik deganda qomatning markaziy o'qqa nisbatan o'xshash qismlarga egalik tushuniladi. Biron-bir shaklning markaz bo'ylab, o'q bo'ylab yoki tekislik bo'ylab ko'chirishda uning elementlari bir-biri bilan bog'lanadi.

Simmetriya libosning insonning simmetrik tuzilgan qomati sirti sifatida kompozitsiyasi aniqligiga va yaxlitligiga erishish yo'lidagi eng muhim omil hisoblanadi. Simmetriyaning har xil: ko'zguli, markazli, tekislikli, o'qli va boshqa turlari mavjuddir. Libos kompozitsiyasida uning o'rni muhim bo'lib, u bilan libos o'lchami, shakl vazni, libos qismlarining bo'linishlari belgilanadi. Simmetriya kompozitsion xususiyat sifatida, libosning badiiy yaxlitligini ta'minlashi tabiatan belgilangan. Biroq inson qomatini toza simmetrikka ega deb bo'lmaydi. Yaxshilab qaralganda qomatdagi ozgina bo'lsa-da, farqni sezamiz. Shuningdek, insonning ichki tuzilishi asimmetrik ko'rinishdadir. Yurak chap tarafda joylashgan, o'ng qo'limizni chapga qaraganda faolroq ishlatamiz. Shunday bo'lsa-da, biz inson qomatini simmetriya asosida tabiiy, uyg'unlashgan qismlariga ega mavjudod deb ataymiz.

Simmetriyaning yana bir xususiyati, loyihachi-rassom amaliyotida ko'p uchraydigan simmetriyaning asimmetrik shaklda namoyon bo'lishidir. Simmetriyadan chetga chiqish — **asimmetriya** bo'lib, u doim

ham shaklni buzavermaydi. Asimmetrik shaklni mukammal komponovkasi topib olinsa, u boshqa hajmlar bilan o'zaro bog'lanadi va simmetrik kompozitsiyasida, umuman olganda nafis, o'ziga xos antiqalik keltirib chiqaradi (28- rasm).

Asimmetrik shakl tuzishda ma'lum asimmetrik shaklning kompozitsion muvozanatini aniqlovchi qonuniyatlar asos qilib olingan bo'lsa, u yuksak mahoratli ko'rinishda bo'lishi ham mumkin. Asimetriya ko'pincha kompozitsiyaning o'ziga xos qonuniyati sifatida namoyon bo'ladi. U, asosan shaklning dinamik yechimini faol ko'rsatishda qo'llaniladi. Bunday shaklning yaxlitligini ta'minlovchi shart — uning kompozitsion muvozanatidir.

Kompozitsiyada muvozanat ko'pincha simmetrik shaklga ozgina asimmetriklik qo'shilishi bilan erishiladi. Tabiatda mutlaq simmetriya bo'lmagani kabi inson qo'li bilan yaratilgan buyumlarda ham u mutlaq tarzda mavjud emas. Masalan, bizgacha yetib kelgan tarixiy milliy liboslarimiz namunasida, ro'mollarning o'rash rusumlarida, do'ppidagi popuklar-u qo'ltiq tumor taqish usullarida, belbog'dagi qinlar va ularga pichoqlar joylanishida, qiyiqlarni bog'lashda ham asimmetriyaning namoyon bo'layotganini uchratamiz.

Shunisi ma'lumki, asimmetriya yaqqol namoyon bo'ladigan simmetriya o'qining mavjud emasligida kelib chiqadi. Biroq inson qomatida bunday o'q mavjud; liboslar namunasida esa buyumlarni u yoq, bu yoqqa komponovkalash yo'li bilan tuzilgan asimmetrik ko'rinishini namoyon bo'lishiga guvoh bo'lamiz. Masalan, yapon kimonolarining suratlari doimo

asimmetrikdir. Shu sababli uning rang kompozitsiyasi ham asimmetrik ko'rinishda. Biroq bichimi simmetrikdir. Shakl tuzilishi esa asimmetrik, chunki libos old bo'laklari birining ustiga ikkinchisi o'ralib bog'lanadi. Libosning yon tomondan ham bant yordamida asimmetriya kuchaytirilgan.

Libosning simmetrik shaklidagi asimmetriyaning bog'lanishi, har doim ham detallarning faqatgina asimmetrikligidan hosil



28- rasm. Simmetrik va asimmetrik kompozitsiya

bo'lavermaydi. U ko'pincha, bichimning asimmetrikligi tufayli sodir bo'ladi. Bunda simmetrik kompozitsiyada o'zgacha nafislik va o'ziga xoslik hosil bo'ladi.

Asimmetrik qonuniyat asosida tuzilgan kompozitsiyalarning yechimi simmetrik qonuniyat asosidagiga qaraganda kam uchraydigan va murakkab yechimdir. Shuni ta'kidlab o'tish joizki, simmetrik kompozitsiyalarda asimmetriya mavjud, ammo u bo'ysunuvchi va to'ldiruvchi vazifasida kelib, simmetrik shakl ichida o'zgacha bir o'tkirlik hosil qiladi. Libosning nimaga mo'ljallanganligi undagi kompozitsiyaning simmetrik yoki asimmetrik usulda ko'rinishini ta'minlaydi. Agar kompozitsiyada simmetriklik qomat tuzilishidan kelib chiqsa, asimmetriklik libosning nimaga mo'ljallanganligidan kelib chiqadi.

Shuni aytib o'tish joizki, ayol va erkaklarning taqilmali liboslaridagi tugma va tizmalar asimmetrikligining farqi hayotiy ehtiyojlardan kelib chiqqandir. Masalan, ayollar ust kiyimlaridagi chap tomonda joylashgan taqilma tizmasining kelib chiqishi, ayolning o'ng qo'lini bolasini ko'tarishga mo'ljallanishi ehtiyojidan kelib chiqqan. Erkak ust kiyimi taqilma tizmasining o'ng tomonda joylanishi ham qadimdan paydo bo'lib, u davrda erkak kishi jang paytida chap qo'li bilan qalqonini ko'tarib, o'ng qo'li bilan qilich ushlash va kiyimini kiyishi kerak bo'lgan. Bu asimmetrikliklar tub hayotiy ehtiyojlardan kelib chiqqandir.

Simmetrik kompozitsiya o'z mavqeini yo'qotib, zerikarli tus olgan taqdirda rassom unga asimmetriklik ruhini kirgizadi va avval mavjud bo'lgan libosga o'zgacha qiyofa bag'ishlab, umrini uzaytiradi. Ko'pincha asimmetriyada nafaqat uning kompozitsiyasi, balki bichimi ham libos yaratuvchiga qiyinchilik tug'diradi. Chunki bichish paytida mato fakturasi, yo'l-yo'l chiziqlar va boshqalarning mos keladigan o'rnini topishi kerak bo'ladi. Demak, asimmetriya qonuniyati asosida libos loyihasini yaratmoqchi bo'lgan rassom, ushbu nozik masalalarning yechimiga o'zgacha yo'l topib, katta mahorat va iste'dodini ishga solgan taqdirdagina, u yaratgan libos kompozitsiyasida asimmetriklik muvozanat, nafislik va bejirimlilik yuzaga keladi.

Amaliy mashg'ulotlar

- 1. Libos shakllaridan 10–15 ta simmetrik va asimmetrik kompozitsiyalarini tuzing.*
- 2. A4 o'lchamda simmetrik va asimmetrik libos shakllarini chizib, ularni komponovkalashtiring. Asimmetrik milliy liboslar eskizlarini chizing.*

2.9. STATIKA VA DINAMIKA

Libos kompozitsiyasining asosiy sifatlaridan biri — bu statika va dinamikadir. **Statika** — shaklning tinch holatini boʻrttirib ifoda etilganligi boʻlsa, **dinamika** — shakllardagi biror-bir tengsizlik paydo boʻlgandagi harakat holatidir. Ular shaklning turli sifatlarida namoyon boʻladi.

1. Shaklning geometrik turida (29- rasm). 29- *a* rasmda statik holatli shakllar tasvirlangan, shaklning barcha tomonlari teng va harakatsizdir. 29- *b* rasmda esa dinamik holat. Shakl tomonlari har xil boʻlib, ularning dinamik yoʻnalishi mavjuddir.


2. Shakl qismlariga kontrast boʻlganda dinamika koʻp miqdordan kam miqdorga qarab yoʻnaltiriladi (29- *d* rasm).

3. Shakl ichidagi chiziqlarda (29- *e* rasm) chiziqlar orqali dinamika yoʻnalishi hosil boʻlishi koʻrsatilgan. Shuningdek, koʻzimiz doimo chapdan oʻngga oʻqishga oʻrgangani uchun 29- *f* rasmda dinamika oʻzgacha namoyon boʻladi.

Kompozitsiyadagi dinamikaning oʻziga xos namoyon boʻlishi, inson qomatining gorizontol oʻqga nisbatan asimmetrikligiga bogʻliqdir. Qomatning vertikal markaziy chizigʻi, uning vertikal simmetriyaga xosligini koʻrsatadi. Qomatga gorizontol nigoh bilan qarasak, uning dinamikasi yuqoriga — bosh qismiga qarata yoʻnalganligini koʻramiz.

Demak, dinamika — shaklning bir tomonlama yoʻnalishiga ega boʻlgan harakatdir. Inson libos kiydirilgan manekendan farqli oʻlaroq doimo harakatdadir. Uning harakatga yoʻnaltirilgan shakli — tarkibi (deb olamiz) vazifasi, hayotiy harakatlarining bajarilishiga qarab, turli paytda turlicha namoyon boʻladi. Insonning statik — tinch turgan holatlari bilan harakatda boʻlgan holatlarini solishtirganda, undagi shakl yoʻnalishi va dinamikasi kuchayadi. Bunda libos shaklining dinamikasi, libos kompozitsiyasi statik yoki dinamik boʻlsa ham, bevosita faol koʻrinishga keladi. Masalan, toʻgʻri bichimli palto yoki koʻylak silueti va shakli statik koʻrinishda boʻlsa-da, harakatning har bir vaqtida ular dinamik koʻrinishga keladi. Shuning uchun libos statik shakl, masalan, binodan butunlay farq qiladi.

Libos modelini yaratayotgan rassom ushbu libosning harakatlarini ham hisobga olishi kerak. 30- rasmda inson qomatiga xos libos dinamikasining holatlarini koʻrsatib oʻtilgan. 30- *a* rasm yelka chiziqdan, 30- *b* rasm bel chizigʻidan boshlangan harakatdagi qomatda libos koʻrinishlari tasvirlangan. Masalan, shakl libosining dinamikasini keltirib chiqaradigan chiziqlar yelkadan va boʻksadan chiqqan konstruktiv chiziqlardir. Unisi ham, bunisi ham shaklning kengayish holatlarini ifoda etadi. Agar biz har



29- rasm. Statika va dinamikaning namoyon bo'lishi

tahlamlar hosil qiladi. Agar xuddi shu shaklni qattiq, egiluvchanligi past, masalan, drap matodan yaratsak, libosda dinamika yo'qolmaydi, ammo u endi aksincha — go'zallikdan bebahra bo'ladi. Shuning uchun shaklning dinamikasini topish mato xususiyatlariga juda bog'liqligini yodda tutish lozim.

Shaklda bel chizig'i kamroq harakatga egadir. Uning chizig'ida dinamikani yo'naltirish mas'uliyatli ish. Qoidaga binoan qomat go'zalligini har bir davr modasi namoyon etishga intiladi va har bir davr modasida biz bel chizig'i deyarli hajmga ega emasligining guvohi bo'lamiz. Bundan tashqari, bel chizig'i qomatning gorizontal simmetriyasi o'qi vazifasini o'tashi mumkin. Bu ma'noda u yuqori va pastga tomon shaklning hosil bo'lishda boshlang'ich chiziq — tayanch chiziq bo'lib xizmat qiladi. Shuning uchun bel chizig'ida shakl dinamikasi mavjud emas, chunki bu chiziq qomatning yuqori va pastki bloklarini bog'lab turuvchi chegaradir. Agar qomatning yuqori blokida shakl dinamikasining anchagina qismini qo'llar, kamroq qismini tors va bosh ta'minlasa, qomatning pastki blokida shakl dinamikasini eng ko'p yaratgan vosita bu — oyoqlardir. Bu yerda bo'ksa dinamikani kamroq ta'minlab beradi. Shunday qilib, libos shaklning dinamikasini asosan qomat harakati mexanizmi vujudga keltiradi, bu harakatni ijro etuvchilar esa qo'llar, oyoqlar, bosh, tors va bo'ksadir.

Libos shaklning dinamikasi uning vazifasidan kelib chiqib yaratilishi lozim, ya'ni libos umumiy shakli, ichki chiziqlari, konstruktiv, dekorativ

bir chiziqdan chiqayotgan yo'nalishlardan shartli ravishda «foydalansak», yelka yoki bo'ksadan chiqayotgan shaklning radial sifati namoyon bo'layotganligini ko'ramiz (30- d rasm). Libos shaklini yaratishda mato muhim o'rin tutadi. Matoning qayishqoq va egiluvchanligi, yupqa va qalinligi, uning fakturasi kabi sifatlardan libosning dinamikasi aniqlanadi. Masalan, yupqa va to'kilib turadigan ipak kabi matolar inson harakatining, xoh u yelka chiziqda (yeng lif), xoh bo'ksa chiziqda (yubka) bo'lsin, turli holatlarda o'z hajmiga ega bo'ladi. Ikkita qo'sh aylana bichimida bo'lsa ham, ipak mato har gal to'kilib turadigan yumshoq



30- rasm. Qomatning dinamik harakati

chiziqlar yo'nalishi libosning vazifasi bilan bog'liq bo'lishi darkor. Libos qanchalik maxsus vazifaga ega bo'lsa, uning tashqi dinamikasi shunchalik kam bo'lib, o'zi umumiy statik shaklga yaqinlashishi lozim. Kompozitsiyada dinamika ichki konstruktiv chiziqlar yo'nalishi, cho'ntak va klapanlarning asimmetrik joylanishidan ham kelib chiqishi mumkin. Ya'ni, bir siluetni turli konstruktiv chiziqlar bilan to'ldirish jarayonida qayishqoq, tekis, ravon va boshqa turli chiziqlar xususiyatini qo'llab, undagi dinamikani oshirib yoki kamaytirishimiz mumkin. Masalan, xalatdagi asimmetrik joylashgan cho'ntaklar libosga umumiy dinamik urg'u bag'ishlaydi.

Egri chiziqlar orqali tuzilgan shaklning bo'linishi, konstruktiv chiziqlarni his qilishda qandaydir notichlik hissiyotini keltirib chiqaradi, bu bilan u bizda dinamik tuyg'uni uyg'otadi. Bundan tashqari shaklning egri chiziqlar bilan bo'linishi shu shaklning yuqori yoki pastga tomon yo'nalganlik tasavvurini tug'diradi (30- rasm). Umuman olganda, qomat — bu bino yoki dastgoh kabi bir asosga biriktirib qo'yilmagan shakldir. Bino yoki dastgoh yo'nalishi bir holat bilan aniqlansa, inson qomati turli holatlar yo'nalishiga egadir.

Kompozitsiyaning dinamikligiga qarama-qarshi turgan sifat — bu statiklikdir. Bu sifat tinch kompozitsion muvozanatni yaratadi, yuqorida aytib o'tganimizdek, statiklik deb, siluetning geometrik shaklidan, buyumning umumiy kompozitsion qurilishdagi tinch, turg'un, harakatsiz, mustahkam asosli holatni bo'rttirib ifoda etishiga aytiladi. Statik shakllar o'zining markaziy o'qiga ega bo'lib, o'zida simmetriyani namoyon etadi.

Libosdagi statiklik ko'proq uning vazifasiga bog'liqdir. Ko'pincha statika kundalik kiyishga va maktab kabi muassasalarda ishlashga mo'ljallangan liboslarda namoyon bo'ladi. Bunday libos o'z vazifasida tashkilotchilik,

ishga maksimal berilish kabi harakatlarni faollashtirish maqsadini aks ettiradi. Shuning uchun unda keskinlik, shakldagi va rangdagi o'tkirlik namoyon bo'lishi mumkin emas. Rassom-modelyer libosdagi statika va dinamika xususiyatlarini mukammal o'rganib, libos tuzishda ushbu sifatlardan libosdagi insonning ma'lum bir vaqt yoki joydagi faoliyatiga javob beradigan tarzda yuksak mahorat bilan foydalanmog'i zarur.

Amaliy mashg'ulotlar

1. 15–20 ta statik libos shakllarini chizing.
2. 15–20 ta dinamik libos shakllarini chizing.
3. A4 o'lchamga statik libos shakllarini komponovkalash yo'li bilan tuzilgan kompozitsiya tuzing.

2.10. LIBOSDA METR VA RITM TUSHUNCHASI

Libos kompozitsiyasi tuzishda metr va ritm qonuniyati kompozitsion vositalar tuzishda muhim qonuniyatlardan biri hisoblanadi. Bu o'rinda ritmning asosiy roli tengsiz unsurlarni uyg'unlashtirishdan iboratdir. Libos kompozitsiyasida u yoki bu unsurlarning metrik takrorlanishi ritmga bo'ysungan. Ritm tushunchasiga aniq ta'rif berish uchun metrik takrorlanish haqidagi tushunchani ko'rib o'tamiz.

Metr — ritmning boshlanishi va uning shaxsiy xususiyati. U teng unsurlarni teng masofada takrorlanishini barpo etadi. Metr ritmning sodda ko'rinishi bo'lib, mavjud narsaning teng oraliqda qaytarilishidir. Buni musiqa, she'riyat, raqs va me'morchilikda kuzatsa bo'ladi. Shuningdek, u libosda ham kuzatiladi — bu o'rinda u qatorli va markaz o'qli ko'rinishda keladi (31- rasm).



31- rasm. Metr va ritmning libosda aks etishi

Birinchi ko'rinish shakl sirt qismiga ishlov berilayotganda yuzaga keladi. Masalan, yubka mayda plisse taxlamalardan iborat (31- a rasm). Uning yordamida tugma va taqilmalar o'z joyini topadi. Ritmning ikkinchi markaz o'qli ko'rinishi cho'ntak, manjet yoki klapanlar joylanishini ta'minlaydi (31- b rasm).

Sodda unsurlar ritmik asos bilan tuzilib, metrik birlik bilan bir xil masofada takrorlanishi mumkin. Bu hol yubkadagi taxlama va burmalar guruhlarining takrorida ko'rinadi. Bunday holda markaziy o'q o'tkazish joiz bo'ladi (31- d rasm). Markaz o'qli metrغا bezak choklari, bezaklar, rang va fakturalarni kiritishimiz mumkin. Bu yerda asosiy tuzuvchi bo'lib qomat olinadi. Masalan, yeng o'mizi choklarining chizig'i markaziy o'qdan bir xil masofada joylashiladi va barcha bezaklar teng masofada undan boshlanib, butun yengga tarqatiladi. Bezakning o'zi bir necha chiziq ko'rinishida guruhlanib, yana alohida takrorlanishi mumkin.

Murakkab naqshlarning metrik takrorlanishi ushbu qonuniyatning murakkab ko'rinishlarini olish mumkin. Libosda ikkita yeng mavjud bo'lishini metrik qonuniyatning ko'rinishi deb bo'lmaydi, albatta. Chunki hol inson qomati bilan o'z tasdig'ini topgan bo'lib, biror-bir qonuniyatga muhtoj emasdir. Ammo undagi o'z vazifasiga ega bezak qismlarning joylanishi va uning ichki ishlov berilishi ritmik va metrik tartibga bo'ysunishi lozimdir.

Unsurlarning bir xilligi va bir xil masofada joylashganligi statikaga yetaklaydi, inson qomati esa uning libosi kabi mavjud dinamik ko'rinishdadir; shuni hisobga olib, uning kompozitsiyasi to'liq statikaga asoslanib qurilishi noto'g'ridir. Statika puxta o'ylangan kompozitsiya tarkibida dinamika bilan nisbiy bog'langan bo'ladi. Shuning uchun bo'linishlarning metrik qatori boshqa unsurlar va bo'linishlar bilan nisbiy bog'liq bo'lib, libos kompozitsiyasining umumiy yaxlitligini ta'minlashi zarurdir.

Metrik qaytarilish — elementlar joylanishining qonuniy namoyon bo'lishidir, shuning uchun element shakllari va o'lchamlari aniq, puxta o'ylangan bo'lishi lozimdir. Chunki o'lchamlardagi aniq arziimas bir xato kompozitsiyaning tashkil topishiga xalaqit berib, uni buzilishiga olib keladi.

Ritm deb, tengsiz elementlarning uyg'unligi tushuniladi. Ritm haqida bu sodda ta'rif uning libos kompozitsiyasini tashkil etuvchi bir vosita sifatida tasniflanishi haqida kam ma'lumot beradi. Ritm qonuniyati deganda ma'lum bir mavjudlik, yaratilganlikning harakatidagi rivojlanish qonuni tushuniladi. Metrik qatordan farqli ravishda ritmik takror asosida unsurlar takrorlanishlari qatoridagi asta-sekin yuz beruvchi o'zgarishlar sodir bo'lishi yotadi. Bu hajm, maydon, rang dog'lari, tus kuchlari takrorlanishlarining ko'payishi yoki kamayishi bo'lishi mumkin.

Ritmik qator shaklga kompozitsion yo'nalish beradi. Bu holatiga ko'ra kompozitsiya shakllar tuzilishidagi dinamikaning paydo bo'lishi bilan bog'liq bo'ladi. Shakl kompozitsiyasini tuzishda ritmning boshqaruvchi vazifasida kelishi uning metrdan farq qiladigan tarafini bildiradi. Ritmik qatorning va unsurlar hajmini tarkibiy to'yinganligining ko'payish yoki

kamayish tartibini o'zgartira turib, shakl dinamikasini kuchaytirish yoki sustlashtirish mumkin. Shakl dinamikasini ko'z harakatimizning unsurlar takrorlanishining ko'payish yoki kamayish yo'nalishlari tomon ketishdan tushunib olamiz. Har bir shakl o'zining asosida ritmik takrorlanishni mujassam etgan bo'lishi mumkin. Kompozitsiyada u naqsh surati yoki chiziqlari, rang va tus ritmlari, mayda bezak qismlar — bezak choklar, burma, taxlamalar va boshqalar ritmlarini yaratishi mumkin.

Ritm kompozitsiyasi libosda yirik (asos) shakllar tartibining ritmik qatorini tuzish bilan boshlanadi. Bunda korpus va yeng shakllarini misol qilib olsak bo'ladi. Ular ritmik qatorning birinchi tashkil etuvchi qatorlari hisoblanadi. Ammo ritmik qatorni aniqlashtiruvchi, shuningdek, nisbiy munosabatni oydinlashtiruvchi uchinchi shakl zarur bo'ladi, bu holda qomatning bosh qismini o'rab turuvchi shakl — yoqa, bosh kiyim ushbu zarur shakl o'rnida keladi. Demak, libos shaklini tuzuvchi uchta asosiy shakl mavjud (ya'ni ikkita yeng shakli bir shakldek qaraladi). Endi libos shaklini biron geometrik shaklga moslashtirish yoki bu sodda ko'rinsa, turli-tuman egri, qayishqoq, ravon chiziqlardan hosil bo'luvchi shakllar yaratishga o'tamiz. Ritmning namoyon bo'lishi libos shakli yaratilishi bilan birga, inson qomatiga va insonning o'ziga ta'sir etadi. Rangning ritm mavjudligida ko'rib chiqaylik. U ikki holda kelishi mumkin: biri rang kompozitsiyasining boshqa vositalariga bo'ysungan holda kelishi, ikkinchisi, rangning asosiy tuzilishining boshqaruvchisi sifatida namoyon bo'lishidir. Bu paytda rangning hissiyotga ta'siri muhim vosita hisoblanadi.

Ma'lumki, ranglarning yengil va og'ir, oldinga chiquvchi va chekinuvchi xususiyatlari mavjud. Birinchisiga och tusli ranglar kirsa, ikkinchisiga to'q tusli ranglar kiradi. Bu xususiyatlar haqida mazkur kitobning rang haqidagi bo'limida batafsil ma'lumotlar bor. Shuningdek, pastel tusdagi och ranglar uyg'unligi barchaga munosibliigi haqida yuqorida aytib o'tilgan. Rassom-modelyerning vazifasi har bir rangning kompozitsiya vositasi sifatida ishlashiga zamin yaratishdir. Rang dog'larining bu yerda ritmik ko'rinishini ta'minlashi zarur.

Bir tusdagi ranglarning teng yoki tengsiz maydonlari, ularning nyuans yoki kontrast munosabatlari o'zaro birlashgan ranglar kompozitsiyasini tuzishi lozim. Ranglar dog'larining ritmik tartib bilan joylanishi metrik rang qo'shilishi bilan bog'lanib ketishi mumkin. Libosda metrika ko'pincha mato surati, masalan, bir kenglikdagi va oraliqdagi rang ko'rinishida keladi. Rang dog'larini ritmlashtirishda asosiy diqqatni kontrast tusli yoki qora va oq axromatik tusli ranglar tortadi. Ularning aktiv rangli kompozitsiyalar tuzishini bilamiz. Shuning uchun ulardan libos

timsolining badiiy tarkibini aniq namoyon etish maqsadida eng kerakli va maqbul ritm tuzilishini yaratish muhimdir. Shuningdek, qomatni rang taqsimlash yordamida muvozanatda saqlash lozim.

Shu sababli libosning etak qismlarida og'ir, yuqori qismida esa yengil ranglarni taqsimlash lozim. Yuqorida joylashib qolgan to'q rang, nazarimizda qomatni «ag'darib yuboradi».

Rang ritmikasi — badiiy obrazli tuzilishning yaratilishida libos kompozitsiyasining muhim faol omili hisoblanadi. Bu omilning barcha nozikliklarini ishga solish — murakkab, mas'uliyatli, ammo yuqori samarali ishdur. Ushbu so'zlar mazmunini yaxshi tushunib olgan rassom-modelyer, o'z mehnatining samarali natijasidan doimo qoniqish hosil qilib, hamisha yutuqlarga yo'ldosh modellar muallifiga aylanadi.

Amaliy mashg'ulotlar

1. Metr va ritm qonunlariga asoslanib, turli usullarda yubkalarni yarating.
2. Ritm qonunlarini libosda aks ettirib, rangli kompozitsiya yarating.
3. Metrik qaytarilish qonunlarini libosda aks ettirib, rangli kompozitsiya yarating.

2.11. KOMPOZITSION MARKAZ

Kompozitsiyaning to'g'ri tuzilgan (kiyim, poyafzal, sumka yoki umumiy libos ko'rinishining) shakli, albatta, barcha mayda detallarini bo'ysundirgan, o'zining asosiy qismi — kompozitsion markaziga ega shakldir. Libos shaklining yaxlitligi, undagi konstruktiv bezak, nisbatlar, chiziqlar, ranglar yechimi bilan uning kompozitsion mujassamligi o'rtasidagi aloqaning uyg'un bog'lanishini aks ettiradi. Har qanday kompozitsiyada asosiy va bo'ysungan qismlar bir butunlikni tashkil etib, o'zaro bir-birini kuchaytiradi. **Kompozitsion markaz** — hukmron qism bo'lib, barcha unsurlarning orasidagi dolzarb va asosiy bo'lgan, yagonalikka jalb etuvchi bog'lovchi, urg'u, dominantdir.

Shaklning istalgan maydoni, qismi kompozitsion markaz bo'la oladi. Hukmron qismni libosda joylashtirish inson jinsi, yoshi, gavdasining tuzilish turi, libosning nimaga mo'ljallanganligi va, shuningdek, modaga bog'liqdir. Kompozitsion markazni bo'rttirib ko'rsatish uchun shakl unsurlarida o'zaro tengsizlikka erishilishi kerak. Quyidagi omillar kompozitsion markazni ajratib ko'rsatishga xizmat qiladi:

1. **Miqdor qonuni** — bir turli bezakning katta-kichikligi yoki miqdori ortiqroq bo'lib, boshqa xususiyatlari bir xil bo'lganda, ushbu katta miqdorli shakl ustunlik qiladi. 32- a rasmda ko'rsatilgan libos shakllarida

kompozitsion markaz yubkada (32- a 1- rasm), lifda (32- a 2- rasm), yengda (32- a 3- rasm) va yoqada (32- a 4- rasm) tasvirlangan.

2. **Markazda bo'lish qonuni** – bo'rttirib ko'rsatadigan qismning nisbatan markaziy joyda bo'lishi, shu qismning asosiy kompozitsion markazi bo'ladi. 32- b rasmdagi libos shakllarida kompozitsion markazning belda (32- b 1- rasm), koketkada (32- b 2 rasm), bo'ksada (32- b 3- rasm) joylashganini ko'ramiz.

3. **Sifat qonuni** – xususiyati, yoki guruh xususiyatlari jihatdan ko'proq bo'lgan qism ustundir. 32- d rasmda ikkita bir xil siluetli libos shakllari tasvirlangan. Birinchisida kompozitsion markaz tepada, ikkinchisida pastki qism chiziqlar bilan to'lganligi uchun kompozitsion markaz pastga ko'chgan.

4. **Ma'no omili qonuni** – bir butun ma'nosi bor bezakli qism, rasmiy xarakterli boshqa bezakli qismdan ustun turadi. Masalan: beyjklar, firma logotiplari, vizitkalarni osib yurish, harbiy formalardagi pogonlar.

Kompozitsiya murakkablashtirilgan holda bir necha kompozitsion markazlar mavjud bo'lishi mumkin. Bu holda ular orasidagi uyg'un bog'lanishning topilishi maqsadga muvofiqdir. Libos kompozitsiyasida ixtiyoriy qism, masalan sumka yoki oyoq poyafzal – markaz bo'lib hisoblanishi mumkin. Bu yerda muhim e'tiborga ega bo'lgan qismlarning kompozitsion uyg'unligining topilishi zarurligini aytib o'tish o'rinli. Masalan, erkaklar libosida shim pocha qismi bilan poyafzal orasidagi mutanosiblikning saqlanishi, ayollarda bellik (yubka, shim) yoki yelkalik (ko'ylak, bluzka va shu kabi boshqa) libos qismlari etikning yuqori qismi bilan mutanosiblanishi kabi holatlardir.

Erkaklar shimlari modasida ularning oyoq kiyim bilan bog'lanishini topish jarayonida aniq munosabat belgilanib bo'lingan. Ko'p hollarda pochasi uzunlashgan shimlar poyafzalga tushib, uning tepa qismini berkitib turadi. Pochasi kengaytirilgan shimlar esa poyafzalni butunlay qoplab, faqatgina poshnani ko'rsatib turadi. Erkaklar shimining pastki



32- rasm. Kompozitsion markazning joylanishi

qismida umumiy shakl chizig'ining plastikligiga erishilgani erkaklar qomatini kelishgan va ko'rkam qilib ko'rsatadi. Ayollar libosidagi jaket va shim, sviter va shim, bluzka va yubka, va h.k. libos bo'laklarining o'zaro munosabati topilishi yagona kompozitsion markazni ajratishga xizmat qilib, libos kompozitsiyasida umumiy mutanosiblik va yaxlitlikka erishilishiga yordam beradi.

Albatta bejirim bo'lishi lozim bo'lgan libosdan inson qomatini kelishgan va xushbichim ko'rsatishga yordam berishi talab etiladi. Kiyim qomat yutuqlarini namoyish qiladi yoki kamchiliklarini yashiradi, qomatning tabiiy nisbatlarini aniqlashtiradi yoki uning ko'rinishini o'zgartiradi. Bu amallarni yanada yutuqli va bexato namoyish etish uchun kompozitsion markazdan o'rinli foydalanish muhimdir. Ushbu dominantni libosning bir qismida joylanishi qomat tuzilishidagi yutuqlarni bo'rttirib ko'rsatadi, kamchiliklarni esa ko'zdan pinhon tutadi. Masalan, qora rangli, bichimi sodda va ixcham libos va qip-qizil bo'yalgan lab — bu holda aynan qip-qizil bo'yalgan lab diqqat-e'tiborni kuchliroq tortadi. Katta yoshdagi ayollar libosida kompozitsion markaz ularning yuzi atrofida joylashtiriladi. Chunki yoshi kattalashgan sari inson chehrasi dono va aqli sifatlariga ega bo'lib boradi. Bog'cha yoshdagi va juda kichik bolalar liboslarining esa ixtiyoriy qismi dominant bo'lishi mumkin. Chunki ular yorqin ranglar bilan endigina tanishib, tajriba hosil qilish, axborot olish yoshidadir. Shuningdek, ular qomatlarining barcha joylari inson ko'ziga barobar yoqimli tuyuladi. Shunday qilib, kompozitsion markaz libosning umumiy ko'rinishini yoqimli va bejirim his qilinishiga yordam berib, inson qomatini ko'rkam va kelishgan qilib ko'rsatishga sababchi bo'ladi.

Amaliy mashg'ulotlar

1. Kompozitsion markazi yengda bo'lgan 7–8 ta libos shakllarini chizing.
2. Kompozitsion markazi yubka va koketkada bo'lgan 7–8 ta libos shakllarini chizing.
3. Adabiyot va boshqa manbalardan foydalanib, kompozitsion markazga ega bo'lgan 10–12 ta milliy liboslar eskizlarini chizing.

2.12. FAKTURA VA UNSURLASH

Libosning umumiy ko'rinishida, agar unda turli fakturaga ega matolardan foydalanilgan bo'lsa, undagi bir rangning his qilinishi turlicha bo'ladi. **Faktura** — mato sirtining ko'zga ko'rinarli tuzilishidir. Faktura silliq yoki g'adir-budir, donsimon, jilvador va nursiz, zich va zich emas, tukli, naqshli va boshqa ko'rinishda bo'lishi mumkin (33- rasm).

Sanoatda ixtiyoriy matoga (jun, ipak, zig'ir, paxta va b.) turli xil kalava iplar, o'rilishlar, rangli surat, mato pardozlanishlarini o'zaro uyg'unlashtirib, kerakli fakturani bersa bo'ladi.

Surat va faktura bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lib, matoning badiiy aniqligini ifoda etishga kuchi yetishi lozim. Matoning vazifasiga ko'ra rangli to'quvchilik suratlari va mato fakturalari xilma-xildir, ammo uning xilma-xilligi uchta asosiy qoidaga asoslanib quriladi:


— Rangli surat mato sirtida aniq ko'rinib, kompozitsiyaning «urg'u-siga» aylanadi. Mato fakturasi esa uni namoyon qiladi, ya'ni uning aniqligini va bejirimligini kuchaytiradi.

— Faktura mato sirtida keskin ko'rinib, badiiy aniqlikda muhim o'rin tutadi, rangli to'quvchilik surati esa unga tobe bo'ladi.

— Rangli surat va mato fakturasi bir xil ahamiyatga ega bo'lib, bir-birini uyg'un to'ldirib turadi.

Faktura va rang bir-biri bilan chambarchas bog'liqdir, shuning uchun ixtiyoriy rang-barang ko'rinishga ega matoni bezash jarayoni fakturani hisobga olib turib, suratlarni yaratishni o'z ichiga oladi. Rang va faktura matoning fizik-mexanik xossalariga o'zining turli his qilinishi mumkin bo'lgan ta'sirini o'tkazadi — uni yengil va og'ir, hajmdor va tekis, zich va shaffof va boshqa ko'rinishlarda ko'rsatishi mumkin. Misol uchun, matoning kuponli fakturasi, uning sirtini o'lchamlarini kichiklashtirib va o'zini og'irroq qilib ko'rsatadi, yoki, aksincha, mayda faktura mato sirtini kengaytiradi va uni birmuncha yengilroq qilib ko'rsatadi. Agar kuponli fakturali matoning badiiy aniqligi rangli yechim yordamida yanada kuchaytirilsa (masalan, zichroq ko'rinishni his ettiradigan to'q, kam to'yingan ranglar birikmalarini iliq tuslari qo'llansa), u og'ir hajmni his etib, vazifasi bo'yicha paltolik matolarga tegishli bo'ladi. Dastlabki g'oyani libos eskizi darajasiga keltirib yaratganda, undagi mato fakturasini ham

ko'rsatib o'tish joiz bo'ladi. Fakturani yaratishda bir qancha texnik vositalardan foydalanilsa bo'ladi. Qog'ozni (tekis va notekis) g'ijimlash; mo'yqalamdan kerakli ranglarni sachratish; rangli sirtlarni tartibli yoki tartibsiz, yonmayon yopishtirish; sham tomchilarini tomizish kabi usullardan faktura chiqarish mumkin. Libos eskizi fakturasi ustiga batafsil ish olib borib, kerakli fakturani hosil qilish, yaratilajak libosda



33- rasm. Turli xil fakturalarning ko'rinishi



34- rasm. Fakturalar
ko'rinishining libosda
namoyon bo'lishi

o'ylangan g'oya o'z aksini topishiga imkoniyat yaratadi.

Fakturani his qilinishi sirt yuzasini tomosha qilnadigan masofaga bog'liq. Masofa kattalashgan sari mayda qismlar (bo'linmalar) shaklning alohida unsurlari sifatida his etilmay, sirt fakturasining unsurlari tarzida namoyon bo'ladi. Kiyim, poyafzal, libosga aksessuarlarni loyihalashda faktura tanlash ularga mato tanlash kabi muhim omildir. Bir mato uning sirtiga ishlov berilishi natijasida turli xil namoyon bo'ladi. Faktura sirtning faol xususiyati hisoblanib, uning nisbiy ko'rinishga ham o'z ta'sirini o'tkazadi.

Faturaning ko'rinishi, shuningdek, sirtning yoritish tavsifiga ham bog'liq. Masalan, sirt g'adir-budurli yondan tushgan yorug'lik ta'sirida yaqqol namoyon bo'ladi. Agar yorug'lik

tushish burchagini ko'tarsak, bu sirt nisbatan silliqroq ko'rinish beradi. Buyumda u yoki bu fakturani qo'llashda loyihachi uning his qilinishining aniq shart-sharoitlari – tomoshabindan uzoqlik darajasi (interyer, yoki eksteryerda), yorug'lik tavsifi (burchagi, yorqinligi, rangi) va boshqalar bilan tanishib chiqishi kerak. Rang to'qroq sirtga ega matolarda yumshaydi, yaltiroq sirtlarda esa kuchga kiradi. Matoning har bir fakturasi ma'lum bir timsol alomatlariga egadir. Turli fakturaga ega matolardan kiyim, poyafzal, aksessuarlar yaratib, yuqori badiiy xilma-xillikka erishish mumkin (34- rasm).

Biror model yaratish uchun mato tanlashda loyihachi-rassom uning vaznini ham hisobga olishi kerak. Chunki og'ir, g'adir-budur, tukli matolar shaklni bir muncha kattalashtiradi. Faktura xususiyatlariga yetarlicha e'tibor berilmaslik bir buyumda turli matolarning didsiz tanlanishiga olib keladi. Bu esa, o'z navbatida, kompozitsiyaning bo'linishini va shaklning nouyg'unligini keltirib chiqaradi. Buyum, kiyim yoki umuman libosda mato fakturalarining sifatli va miqdoriy mujassamlashtirishini belgilab olish maqsadga muvofiqdir. Sifatli mujassamlashtirish deganda «nima bilan mujassamlasha olishi» tushuniladi (masalan, charm va mo'yna, mato va charm) tushuniladi. Fakturalarining miqdoriy mujassamlashtirish deganda esa «nima qancha miqdorda mujassamlasha olishi», ya'ni shakl va kompozitsiya aniqligining umumiylikiga erishishi uchun qanday munosabat va nisbatda mato

fakturalarini ajratib olish mumkinligi tushuniladi. Shaklning his qilishga mato yuzasidagi surat (naqsh) asosiy omilni tashkil etadi. Surat o'lchami, surat va fonning yorqinlik munosabati, sirtning suratlar bilan to'lganlik darajasi, joylanish tavsifi tufayli ikkita bir xil shakl turlicha namoyon bo'ladi. Faktura va surat badiiy aniqlikning faol xususiyatlari hisoblanadi. Matoga fakturali ishlov berish, avvalambor, shu matoning tabiiy sifatlarini namoyon etib, uning estetik o'ziga xosligini ochib berish maqsadida qo'llaniladi. Agar mato fakturasi yoki surat juda aniq bo'lsa, tomoshabinga uning ta'siri buyum shakli ta'siridan ko'ra ko'proq bo'lishi mumkin. Shu bilan birga faktura yoki suratning juda kuchli ta'siri va ko'zga tashlanishi noxush ko'rinishga olib keladi. Matoning fakturasi va surati buyumning o'z vazifasini bajarishi kerak bo'lgan atrof-muhit va uning o'lchamlarini hisobga olib tanlanishi lozim.

Amaliy mashg'ulotlar

1. *Oq rangli qog'ozda yengil (shifon, ipak) matoga libos eskizi yarating va shu mato fakturasini rang berish orqali ifodalab bering.*

2. *Bo'yoqlar va bo'yash usullari yordamida gobelen, baxmal va sherst matolar fakturasini namoyon qilib bering.*

3. *Komponovka qonunlariga binoan ikki figurali libos kompozitsiyasini yarating. Birida mo'yna va charm, ikkinchisida drap va jun fakturalarini ifodalab bering.*

2.13. LIBOSDA RANGNING BERILISHI

Insonning boqiy tabiatdan abstrakt fikrlashgacha ruhiy jarayoni — uning tabiatidagi turli holatlar va manzaralarning hissiyotga va ruhiyatga ta'sir etishini o'z ichiga oladi. Bahor yoki kuz manzarasiga boqib, inson ba'zi shakl, rang majmualarini ko'radi. Ular, o'z navbatida, takrorlanaverib, insonda ma'lum bir hissiy kayfiyat keltirib chiqaradi. Insonning hayot, so'nish, uyg'onish haqidagi tasavvuri bilan bog'lanadi. Bu bilan unda hissiyotli-timsolli tuyg'ular, masalan, «baqhor ranglari», «kuz ranglari», «sovuq», «iliq», «yengil», «og'ir» va boshqa ranglar yuzaga keladi. Atrofimizdagi yorug'lik tushib turgan yoki yonib turgan buyumlarga nazar tashlab, biz ularning bo'yog'i, rangiga baho bera olishimiz mumkin. Tabiatning xilma-xil va abadiy ranglar boyligini kuzatarkanmiz, bizga hayotning turli jabhalarida zarur bo'ladigan ranglarni ishlab chiqish xislati nasib etilmoqda.

Rang kompozitsiya vositasi bo'lib, o'z navbatida, uning eng muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Libosda nafaqat kiyim rangi, balki uni to'ldirib turuvchi poyafzal, sumka va shu kabi boshqa buyumlarning rangi ham juda muhim. Libos yaratishda uning rangining chiziqlariga, shakliga, mato

fakturasi libos vazifasidan ajratilgan holda qaralmaydi. Ranglarning barcha xilma-xilligini ikki — *xromatik* va *axromatik* guruhlariga bo'lib qarash mumkin.

Axromatik ranglar — oq, qora va oqdan qoraga o'tuvchi barcha ranglar bosqichidir. Xromatik ranglarlarga esa spektr ichidagi barcha ranglar; spektrda mavjud bo'lmagan qirmizi (binafsharang va qizil rang oralig'ida joylashgan) ranglar kiradi. **Xromatik ranglarni** doira atrofida joylashtirib, rang doirasi hosil qilishimiz mumkin (muqova forzatsidagi 1-rasmga qarang). Rang tusi, oqishlik, to'yinganlik, kontrast, qarindosh kontrast va qarindosh ranglar xususiyatlari haqida mazkur kitobdagi «Rang va rang uyg'unliklari» bo'limida batafsil ta'rif berilgan. Rang kompozitsiyaning asosiy mohiyati — libosdagi rangning nazarga ta'sir etish kuchidir. Agar libos rangi shiddatli, kompozitsiyada hukmron va antiqa bo'lsa, libos ichida o'zgarsa yoki oqishlik chegaralari ko'zga tashlanib tursa, ixtiyoriy miqdordagi yorqin rang libosda katta ma'noga ega bo'ladi. Yorqin qizil, yorqin ko'k, yorqin sariq yoki boshqa kuchli va shiddatli ranglar hissiyotga o'zining kuchli ta'sirini o'tkazadi. Bu o'rinda yorqin qizil libosda rang boshqa shakllar va kompozitsion vositalar ustidan hukmronlik qilgandagiday hol ro'y beradi. Libosning matosi antiqa, siluet (shakli) nihoyatda qiziqarli va aksessuarlar bejirim bo'lsa ham, qizil rang o'zining xususiyati bilan libosni tashkil qiluvchi boshqa unsurlardan tanho hukmron bo'lib qolaveradi. Rassom qoidaga binoan jadal rang kuchini kompozitsiyadagi urg'uni ko'rsatishga sarflaydi. Libos vazifasi, uning ko'rinishiga ta'sir etadigan yorug'lik, mato fakturasi, libosga egalik qilinishi mo'ljallanayotgan inson yoshi va ko'rinishi — bularning barchasi libosning o'zgacha aniqlikka erishishiga yordam beruvchi rang tanlanishiga ta'sir etadi. Masalan, ishbilarmonlik libosi dam olish yoki sahna uchun mo'ljallangan libos kabi yorqin ranglarni talab etmaydi. Bazmga mo'ljallangan libos ko'proq sun'iy yorug'likda nazarga tushmoqlikka mos bo'lganligi uchun rangga bir oz talabchandir. Yorqin rangga bo'yalgan matolar vaziyatdan kelib chiqib, yumshoqroq bo'lishi zarur, chunki sun'iy yoritilganlik bu xususiyatni yanada kuchaytiradi. Masalan, yorqin ko'k rang yumshoq junli mato, baxmal yoki velvetda bejirimroq ko'rinadi. Sokin ranglar, agar qomat juda kichik yoki juda to'la bo'lmasa, yoshlarga mo'ljallangan liboslarda muvaffaqiyatli qo'llanishi mumkin. Sal so'ndirilgan rang esa, ko'pincha, juda yorqin rangdan yoqimliroqdir. Libosda muhim rolni o'rtacha oqishlikka ega rang tuslari o'ynaydi. To'q qizil, to'q ko'k, to'q yashil ranglar, odatda, fon bo'lib xizmat qiladi. Biroq libos qismlarining barcha ranglari bir rangni tashkil etib tursa, ularning libos rang majmuini tashkil qilishlari ma'lum bir vazifaga

yo‘naltirilgan bo‘lishi mumkin. Bir rangga mansub poyafzal, libos, bosh kiyim va palto shu rangning asosiylikini belgilaydi. Sal so‘ndirilgan rangning ko‘p miqdorda qo‘llanilishi, agar boshqa ranglar toza rangdan ko‘ra bosiqroq bo‘lsa, libos rang yechimini topishda yaxshi yo‘ldir.


Ko‘pchilikka yarim tuslilik yoqadi. Ular oq qo‘shish yo‘li bilan rang tusini oqishlashtirish natijasida paydo bo‘ladi. Shu zaylda ularning ba‘zilarini qandaydir boshqa rang qo‘shish yordamida so‘ndirilganlik tusiga keltirmoq zamonaviy bo‘yoqlardan yorqin ranglar chiqarishga erishiladi.

Libos kompozitsiyasida ko‘pincha pushti, moviy, yashil, sariq, olovrang, qizil ranglarning sokin, o‘chganroq (pastel) tuslari uchraydi. Shaftolirang, yong‘oqrang, binafsharang, no‘xatrang — bular tabiatda mavjud bo‘lgan oqishlantirilgan ranglar nomidir. Ular o‘zining nafisligi bilan libos kompozitsiyasini boyitadi.

Libosda rang uyg‘unligiga erishish. Libos kompozitsiyasini tuzishda rang uyg‘unliklari asosiy ma‘no kasb etadi. Uyg‘un ranglar guruhiga o‘zidan rangdor yaxlitlikni ufurib turgan ranglar, ularning muvozanati, rang birligi orasida bog‘langan rang birikmalari kiradi. Ranglar bir-biriga begona bo‘lmay, bir-birining ustidan hukmronlik qilmasa, ular muvozanatlashgan ranglar deb aytiladi. Ranglarni bir maromdagi oqishlik va to‘yinganlik bilan muvozanatlashtirish mumkin.

35- rasmda ikki rangli va ko‘p rangli uyg‘unliklar ko‘rsatilgan.

Rang doirasi qonuniga binoan qarindosh kontrast ranglarning muvozanatlashgan juftlari doira xordasi uchlarida joylashgan ranglarga parallel diametr bilan birlashuvchi asosiy ranglar hisoblanadi. Qarindosh ranglarning muvozanati, shu ranglarning to‘yinganligini susaytirish orqali amalga oshiriladi. Aniq tanlangan qarindosh ranglar, rang kompozitsiyasini yechishga katta yordam beradi. Shuningdek, qarindosh ranglardan kompozitsiyada foydalanishda ulardan biri yoki ikkovi so‘ndiriladi. Tusli kompozitsiyada uyg‘unlik tuslarini qattiq o‘zgartirish yo‘li bilan och va to‘q — tusli kontrastlarni vujudga keltirib, amalga oshiriladi. Masalan, och yashil bluzkaga to‘q yashil yubka tushadi. Bu usul keng tarqalgandir va doimo nafaqat libosdagi alohida qismlar, balki butun majmuani yaxshi uyg‘unlashtirish kafolatini berib, kompozitsiyada yaxlitlik ato etadi.



35- rasm. Rang uyg‘unliklari

Libos yechimining kontrast yoki yaqin ranglarda hal etilishi o'zgacha kayfiyat keltirib chiqaradi. Qoidaga muvofiq kontrast tuslarda eksteryer (ko'chalik, dam olish, sayohat va boshqalar) uchun mo'ljallangan liboslar yaratiladi. Interyer (kundalik, xizmat-ishbilarmonlik) uchun mo'ljallangan liboslarni esa bir-biriga yaqin tusga ega ranglardan yaratish maqsadga muvofiq. Uch rangli uyg'unlikka ikki qarindosh kontrast rang va uchinchi — asosiy to'yinganligi susaytirilgan rangni qo'shish mumkin (35- d rasm). Ikkita uyg'un qarindosh — kontrast rangga uchinchi va to'rtinchi ranglarni ular bilan uyg'unlashtirish maqsadida qo'shish mumkin (35- e rasm). Bundan ushbu uyg'unliklar mutanosibligi va rangdorligi boyitilgan bo'ladi. Uyg'unlik qarindosh, yashillashgan sarig' va o'trang-yashil (sarg'ish yashil) ranglarni qizg'ish-ko'k rang bilan birlashtirish orqali ham amalga oshirsa bo'ladi.

Kompozitsiyani tuzishda to'rt turdagi asosiy rang uyg'unliklarini ajratishimiz mumkin:

1. **Bir rang tusli** — bitta asosiy rangdan yoki bir-biriga yaqin qarindosh ranglar guruhidan tuzilgan kompozitsiya.

2. **Qarindosh rangli** — ranglar doirasida qisqa interval ichida joylashgan ranglardan tuzilgan kompozitsiya.

3. **Qarindosh kontrast** — bir intervalga tegishli ranglarga intervaldan tashqarida bo'lgan asosiy uchinchi rangni uyg'unlashtirish yo'li bilan tuzilgan kompozitsiya. Bunda barcha ranglar bitta rangga bo'ysunishi kerak.

4. **Ko'p rangli** — asosiy hukmron rangni ajratib bo'lmaydigan, ranglarni bo'lib yuborish usuli bilan tuzilgan kompozitsiya. Bu kompozitsiya juda murakkab hisoblanib, faqatgina yuksak didga ega mahoratli rassom uni amalga oshirishi mumkin.

Oq va qora ranglarning uyg'unlashuvi yorqin his qilinadi. Ularning ikkitasi — qora va oq — ko'zga yaqqol tashlanadi. Bu ranglarning kuchi ularning oqishlik darajasidadir. Demak, agar libos yaratishda ranglar yordamida kuchli taassurot qoldirish vazifasi yuklatilgan bo'lsa, rassomlar tomonidan yaratilgan ushbu libos turi ko'rinishining eng maqbul tarafdin ko'rsatuvchi rangli kompozitsiyasi qo'llaniladi. Agar kompozitsiyada rang hukmron bo'lmasa, unda bir tusli va sokin ranglar majmuidan foydalanish o'rindir.

Amaliy mashg'ulotlar

1. *Komponovkalashgan ikki figurali libos kompozitsiyasining tasvirini yaratib, uni rang yechimini qarindosh ranglarda tanlang.*

2. *Qarindosh kontrast rangli, uch figurali libos kompozitsiyalarini yarating. Kompozitsiya yaratishda komponovka qonun-qoidasiga rioya qilingin.*

3. O'zbek milliy liboslarning (nimcha, do'ppi, chopon va b.) qismlaridan qarindosh rangli va kontrast rangli 15–20 ta eskizlarni manbalardan foydalanib chizing.

2.14. RANG USTUVORLIGI

Libosning alohida qismlari ranglari umumiy libosga moslab, uning yutuqlarini ochib berish xususiyatiga ko'ra tanlanishi lozim. Odamga mos keluvchi ranglarni tanlashdan oldin uning qiyofasi rangini aniqlab olish zarur. Insonning o'ziga xos rangi iliq yoki sovuq bo'lishi mumkin. Malla sochli odamlar ko'pchiligi sovuq gammaga mos, och rangli ko'rinsa, sochlari iliq tusda bo'ladi. Odatda malla sochlilarga sovuq rang tushlari mos keladi. Chunki bu ranglar ko'zlar rangini takrorlab, soch rangi bilan yoqimli kontrast tashkil qiladi. Qora sochlilarning ko'pchiligini tana rangi esa iliq tusda bo'ladi, sochlari sovuqroq gammani tashkil etadi. Qora sochli qizlarga odatda sovuq rangdan ko'ra, iliq rang tushlari ko'proq mos tushadi. Rang bilan ma'lum bir kayfiyat hosil qilish, turlicha ko'rinish mumkin. Misol uchun, ko'k o'zining toza ko'rinishida sokinlik, muvozanat, tugallanganlik hissiyotini bersa, binafsha yoki qirmizi rang inson yoshi va uning izzat-hurmatga molik sifatlarini yuzaga chiqaradi. Yashil yangilanish, yosharish, yashnash rangidir. Qizil — iliq ranglar ichida eng kuchlisi hisoblanadi. U inson hissiyotiga kuchli va shiddatli ta'sir etuvchi otash rangidir. Sariq rang yorug'lik, yozgi ilqlilik va xursandchilik haqida o'ylashga undaydi.

O'zining shaxsiyatiga mos tarzda kiyinishni istayotgan kimsa, o'zining ko'zi, sochi va tanasi rangiga uyg'un bo'lgan ranglarni tanlashi lozimdir. Yuz terisi rangi sarg'ish yoki qizg'ish tushlarda bo'lganlar shu rangning to'qroq tushlarini tanlasa, ularning yuzi nurliroq va yoqimliroq ko'rinish olishi mumkin. Olov rang yorqinligi normal teri rangiga juda kuchli ta'sir ko'rsatadi. Qora va oq ranglar turli rang terisiga mansub insonlarga mosdir.

Soch ranglari libos tanlashda muhim omil bo'lib hisoblanadi: soch rangi och bo'lgan insonlarga oq, oqish tusli ranglar mos kelsa, qora sochlilarga yorqinroq ranglar tavsiya etiladi. Odamlarning ko'z ranglari sezilarli rol o'ynamaydi. Ammo ko'zni yaqqolroq ajratib ko'rsatish uchun rangidan bir muncha to'q yoki och tusli ranglarni qo'llash zarur. Libosdagi ko'z rangiga mos keluvchi rang dog'lari mavjudligi, ularni yana ham ko'rkamlashtiradi. Qora ko'zni esa och rangdagi liboslar go'zallashtiradi. Kulrang—moviy ko'zlarda binafsha rangga moyillikni aks ettirish uchun ko'k binafsharangli libos; yashillashtirish uchun esa yashil libos ta'siri kuchli bo'ladi.

Faktura rang tanlashda xuddi shunday muhim omil hisoblanadi. To'la, juda ozg'in, qomat tuzilishi nisbiy bo'lmagan yoki bo'yi juda past ayollar rang tanlashda katta e'tibor berishi lozimdir. Iliq va och ranglar nazarimizda qomatni yiriklashtiradi, sovuq va to'qlari — kichiklashtiradi. Yorqin va aynan iliq ranglar tana o'lchamlarini aniq ko'rsatib turadi. Masalan, to'la qomatli ayol qip-qizil rangda yanada to'lishib ko'rinadi. Ko'zga tashlanmaydigan ayol, agar olov rangli libos kiyg'an bo'lsa, qomatining go'zal tomonlarini ko'rsatib berish o'rniga, ko'pchilik ichida bir yorqin dog'dek taassurot qoldiradi. To'q ranglar yorug'likni yutadi. Shuning uchun qomat shakli bunday rangli liboslarda xushbichim ko'rinishi mumkin. Yorqin ranglarga qaraganda so'ngan tusli, kam to'yingan ranglar to'lalikka moyil qomatlarga mos tushadi. Ranglarning turli uyg'un birikmalarini qo'llab, qomatning ma'lum bir kamchiliklarini yashirish mumkin. Bir rang tusli yoki qarindosh rangli kompozitsiyalar, masalan, kundalik libosda badiiy yakdillikka erishish yo'lida juda samaralidir. Bunda fakturalarning uyg'un topilganligi, ularning rangga munosabati katta ahamiyat kasb etadi. Bir rang tusli yechimda pastel ranglar bilan birga, so'ndirilgan va bir muncha yorqinroq tuslar ishtirok etishi mumkin. Shuningdek, oqishligi har xil bo'lgan rang maydonlarining joylanish o'rnini ham yutuqqa erishishda o'z samarasini beradi. Libosning «urg'u» qismi bo'lib, qo'shimcha yorqin tus yoki toza rang ham xizmat qilishi mumkin.

Rang, o'z navbatida, libosda hukmronlik vazifasini bajaradi. Libosning qo'shimchalari hisoblangan sumka, poyafzal va boshqalarning ranglari xam muhimdir. Poyafzal rangi libosning umumiy rang uyg'unligiga umumiylik, to'lalik, tugallanganlik baxsh etadi. Libosga nisbatan poyafzal rangi nyuansli yoki o'xshashli bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Chunki agar poyafzal kontrast bo'lsa, u libos nafisligini va yaxlitligini buzadi. Shularni hisobga olib, rassom-modelyer o'zining dastlabki g'oyasini eskiz ko'rinishiga keltirayotganida, model shakli, silueti, nisbati, bezaklari ustida qanchalik izlanish olib borsa, shu izlanayotgan modelning rang majmui haqida ham shunchalik tadqiqot va izlanish olib borishi lozimdir.

Amaliy mashg'ulotlar

1. *To'lalikka moyil qomatlarga libos kompozitsiyasi tanlab, ularning rang majmualarini toping.*
2. *Ozg'in qomatlilarga libos kompozitsiyasi tanlab, ularning rang majmualarini toping.*
3. *Uch xil fakturaga ega, ammo uyg'unlashgan mato namunalari toping.*

3.1. SAHNA ASARIDA RANGLAR GAMMASINI MAVZUGA BOG'LIQ HOLDA AKS ETTIRISH

Aktyor doimo zamonaviy kiyimdan farqi bo'lgan noan'anaviy libosni sahnaga kiyib chiqadi. U sahnada nafaqat «qulay», «iliq», «go'zal» ko'rinishda, balki «ko'rkam», «aniq», «timsolga hos» ko'rinishda ham bo'lishi kerak. O'zining uzoq tarixi mobaynida teatr real hayotida mavjud bo'lgani kabi libos sehridan amaliy ravishda foydalanilib kelmoqda. Libos tufayli kambag'al odam turmushi, amaldorning boyligi, askar va zobitlar ko'rinishlari ular bilan yaqindan tanish bo'lmay turiboq, ularga bo'lgan munosabatlarni aniqlab beradi. Kiyimning turli bo'laklaridan tarkib topgan libos kompozitsiyasi, qahramonning tavsifi, asardagi voqea-hodisa mazmuni, tarixiy davr haqida ko'p ma'lumotlarni «gapirib beradi».

Teatr libosi tomoshabinda shaxsiy hissiyotlarni keltirib chiqaradi. Spektakl namoyishidan qolgan teran va keng ma'noli taassurot hissiy kechinmalarini uyg'otadi. Bu o'rinda libosning roli beqiyosdir. Libos o'zida an'anaviy madaniyat ramzini aks ettirgan. O'zgani kiyimini kiyish — o'zganing shaxsi qobig'iga kirish demakdir. Shekspir pyesalarida ayol qahramon erkak kiyimini kiyib, yon atrofidagilar ham tanimaydigan darajada o'zgarib ketadi. Vaholanki, qahramon faqat libosni o'zgartirdi, xolos. Ofeliya «Hamlet» spektaklining to'rtinchi ko'rinishida uzun keng kiyimda, sochlari to'zg'igan qiyofada (oliy tabaqa ayolning soch turmagiga kontrast bo'lgan holatda) namoyon bo'lishi — tomoshabinga uning aqlidan ozayotgani haqida axborot beradi. Rang ramzlari turmush liboslari kabi sahnaviy liboslarda ham katta mazmun kasb etadi: qizil — sevgi ramzi, qora — qayg'u, yashil — umid, sariq — xiyonat. Ammo teatr libosida rang qahramonning o'ziga xos ruhiy kechinmalarini aks ettirish uchun qo'llanib kelinmoqda. Masalan, Hamlet turli teatrlar sahnasida doimo bir xil — qora rangli kiyimdadir.

Inson atrof-muhitning turli-tuman ranglarini ma'lum bir tushunchalarga bog'lab ko'rishga o'rganib qolgan. Ranglar insonning rivojlanish jarayonida ruhiyatiga ta'siri haqida ko'p dalillar mavjuddir.

Inson kayfiyati va hissiyotini ranglarni namoyish qilish ta'sirida o'zgartirib yuborish mumkin. Ko'k va yashil sovuqni his qilishga undasa, qizil va olovrang — iliqlikni tuyishga yordam beradi; ochiq va toza ranglar yengillik, to'q ranglar og'irlikni bildiradi. Ranglar «oldinga chiqishi», yoki «chekinishi» mumkin. Sahnadagi och va iliq ranglarda bo'lgan buyumlar bizga yaqinlashadi va ularning hajmi ham kattaroq ko'rinadi. Xuddi shunday to'q va sovuq rangda bo'lgan buyumlar chekinib, natijada ular kichrayganday tuyuladi.

Eng «oldinga chiquvchi» rang — sariqdir, eng «chekinuvchi» rang — ko'k hisoblanadi. Ranglar xususiyatlaridan to'liq xabardor bo'lgan holdagina sahnaga ma'lum bir davr urg'usini berish uchun undagi ba'zi buyumlarni oldinga «chiqarib» yoki orqaga «surish» mumkin. Xuddi shunday yechim sahnaviy liboslar kompozitsiyasida ham qo'llaniladi. Asosiy qahramonlarning ruhiy kechinmalarini hisobga olingan holda ranglar uyg'unligi tanlansa, bosh qahramonlar liboslarining ranglari asosiy deb qaraladi. Boshqa qahramonlar liboslari ranglarining yechimi esa iloji boricha «chekinuvchi» ranglar uyg'unliklarida yaratiladi. Bunda tomoshabinning diqqat-markazida bosh qahramonlarning xatti-harakatlari bo'lib, qolgan qahramonlar (masalan, massovkadagilar) ko'rsatilayotgan voqea-hodisa yana ham ishonarli chiqishiga yordam beruvchi ishtirokchilar hisoblanadilar. Rang yechimini tanlashda ularda ochlik va xromatik kontrasti, ya'ni atrofdagi ranglarning bir rangga ta'sir qilib, uni o'zgartirish xususiyatlari mavjudligini hisobga olish juda muhimdir. Och fonlarda ranglar to'qlashadi, to'qlarda esa ocharadi. Ixtiyoriy xromatik rang ma'lum bir to'yingan rang fonida o'z to'yinganligini yo'qotadi yoki fonga qo'shimcha bo'lgan rang tusini oladi. Xuddi qizil rang yashil fonda qizarib, sariq fonda yanayam sarg'aygani; ko'k esa yashil fonda to'yinganligini yo'qotib, binafsharang tomon o'zgargani kabi holat yuz beradi. Agar rang maydonlari o'lchami kattaroq bo'lsa, kontrast ko'rinishi kuchliroq namoyon bo'ladi. Libos rangi, shuningdek, grim va soch turmak rangiga mos bo'lishi kerak. Shuni e'tiborga olish muhimki, libos rangi insonning tanasi rangi bilan bog'liq bo'lib, unga o'zgacha rang bag'ishlaydi. Qizil libos — yashil tus berib, yuz rangi tuproq rangiga yaqinroq ko'rinishni oladi. Ko'k, yashil, moviy ranglar yuz va sochlar rangining iliqligini yahayam yaqqollashtirish kuchiga egadir.

Agar libos rangining yuz terisi rangiga ta'siridan forig' etish xohishi paydo bo'lsa, uning yoqa qismiga ozgina neytral ranglardan — oq, kulrang, qora va shunga o'xshash boshqa ranglardan qo'shimcha detal joylash lozim. Oq fonda ranglar yanayam toza, och va bayramoha ko'rinadi. Kulranglar

bir rangdan ikkinchi rangga yumshoq o'tishni ta'minlaydi va ko'pincha barcha xromatik ranglarga mos tushadi. U yorug'lik ta'sirida o'z xususiyatini o'zgartirishi mumkin. Har bir qahramon libosining rang yechimini topish jarayonida sahna asarining umumiy rang majmuini aniqlab olish darkor. Sahnaviy asar ranglari majmui uning janrida kelib chiqib, yorqin, iliq, sovuq, to'q, jiddiy, axromatik sokin, bahoriy va boshqa uyg'unliklarda topiladi. Komediylar — inson ruhiyatiga kulgu, yorug'lik ulashuvchi sariq, qizil-yashillarning toza tuslarida bo'lsa, tragediyalar — dilxiralik, motam ranglari bo'lmish axromatik va ular tusiga yaqin sovuq ranglar majmuidan iborat bo'lishi mumkin.

Dramalar asar mazmuniga qarab — goh bahoriy — och binafsha, pushti, moviy kabi tuslardan iborat bo'lsa, goh kuzgi — sarg'ish olovrang, jigarrang, qizg'ish va boshqalardan iborat bo'ladi. Eng asosiysi, asarning umumiy rang majmuasi topilgandan so'ng, shu uyg'unliklarni asos qilib olib, har bir qahramonga uning ruhiy hissiyotida kelib chiqilgan, izlanib topilgan ranglar yechimini tanlab berishdir. Shundagina sahnada ortiqcha ranglarga o'rin qolmay, kechayotgan voqea-hodisalar tomoshabinni boshqa xayollarga chalg'itmaydi. Asar mohiyati unga aniq va tushunarli tarzda yetib boradi.

Amaliy mashg'ulotlar

1. Sahnalashtirilgan asarlardan tragediya janriga oid mavzularni tanlab, ularga tasvirlar yaratish va ularda qahramonlarning sifatlaridan kelib chiqib, rang yechimlarini aniqlang.

2. Sahnalashtirilgan asarlardan komediya yoki drama janriga oid mavzularni tanlab, ularga tasvirlar yaratish va ularda qahramonlarning sifatlaridan kelib chiqib, rang yechimlarini aniqlang.

3.2. ASARDA QATNASHUVCHILARNING RUHIY-JISMONIY HOLATIDAN KELIB CHIQQAN HOLDA LIBOS KOMPOZITSIYASINI YARATISH

Voqea-hodisalari ma'lum bir davrda kechayotgan spektakllarni tomosha qila turib, hamisha o'sha davr liboslarida kiyingan aktyorlarni ko'ramiz. Ushbu liboslarning yaratilishi rassom-modelyerga tegishlidir. Har bir davr libosi o'zining kompozitsion yechimi, undagi aniq vositalarning o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Shuning uchun, teatr uchun zamonaviy yoki tarixiy libosni yaratish jarayonida, davrning badiiy belgilarini ajratib olishni bilish darkor. Chunki bu badiiy belgilar tomoshabinga spektaklda mavjud davrning atrof-muhitini his qilishga yordam beradi. Bu o'rinda zamonaviy va tarixiy teatr liboslari

kompozitsiyasi, plastik anatomiya va tasviriy san'at bilimlaridan xabardor bo'lmisdan ish yuritib bo'lmaydi.

Eskizda rassom tomonidan topilgan obraz nafaqat muallif talabini qondirishi, balki postanovkachi-rejissyor, shuningdek, shu libosni sahnaga kiyib chiquvchi aktyor tomonidan ham qabul qilinishi lozim. Libos eskiziga ishlov berish jarayonida aktyor qomati, uning shaxsiyati, didi, qahramon haqidagi shaxsiy fikrini ham inobatga olish zarurdir. Rassom-modelyer eskiz yaratish bilan birga, libos uchun kerakli bo'lgan matolarni tanlashi lozim. Buning uchun u hozirgi kunda mavjud bo'lgan mato-gazlamalarni, matoga badiiy va texnologik ishlov berishning yangi usullarini bilmog'i; libosni, xoh u zamonaviy, xoh tarixiy bo'lsin, modellashtirishi va tikib bera olishi lozimdir. Naqsh yoki matoning umumiy bezagini, suratini tuzib, unga tabiiy o'lchamlarda gul bosish va kashta tikish usullari yordamida ishlov bera olishi kerak. Libos yaratishda modelyerga juda yuqori did, sabr-toqat, ishning puxta va toza bajarilish mahorati kerak bo'ladi.

Teatr libosi rassomi ozgina rejissyor ham bo'lishi bilan birga, mohir tikuvchi ham bo'lishi zarur. Shundagina uning g'oyasi libosni puxta ishlangan eskizdan og'may, avval o'ylanganday libos yaratilishiga zamin bo'ladi. Ba'zi paytlarda teatr tikuvchilari qo'liga libos eskizi tushgandan so'ng ular aktyor bilan birgalikda eskizga turli fantaziyalar kiritib, muallif tomonidan dastlab o'ylanib, puxtalangan eskizlarni o'zgartirib yuborishar edi. Bu esa eng katta xatodir. Rassom albatta aktyor talabini ham hisobga olishi zarur. Ammo rejissyorning barcha kelishuvi va tasdiqlaridan o'tgan eskizga ortiqcha «fantaziya» va qo'shimchalar kiritish mutlaqo o'rinsizdir. Chunki libos o'zicha alohida emas, balki sahnada ijro etilayotgan davr muhiti va sahna bezagiga uyg'un bo'lishi darkor.

Har bir eskiz iloji boricha bichimi va naqshlari aniq ko'rsatilgan darajada bo'lishi lozim. Bu yerda avval shu sohada ijod qilgan L. Bakst, I. Bilibin kabi mashhur teatr rassomlarining ishlarini esga olish lozim (muqovaning 1- betiga qarang). Ularning kompozitsiyalarida qahramonning ichki dunyosi to'liq yoritilib, badiiy obrazi yuksak did va mahorat bilan topilgan. Shuningdek, ushbu eskizlardan amalda matoga ishlov berish usullari va turli texnologiyalarni qo'llab, yorqin sahnaviy libos yaratish mumkindir.

Sahnada libosning choklari ko'rinmaydi, ammo uning bichimi yaqqol ko'zga tashlanadi. Sahnadagi libos — bu yaratilayotgan tirik timsolning tashqi shakl-u-shamoyilidir. Libos timsolning to'liq chiqishiga yordam bera olmasa, qahramon juda qiyin vaziyatga tushib qoladi. U ma'lum bir timsolni libosdan «chiqib» o'ynashga harakat qilishi lozim bo'lib qoladi.

Agar amaldor ko‘rinishidagi qahramonning oyog‘ida dehqon etiklari «ko‘rk sochayotgan» bo‘lsa, unda aktyor harchand o‘z rolini yuksak ist‘edod va mahorat bilan o‘ynamasin, shu etiklar tomoshabin diqqat markazida qolib, uning libosdan «chiqib» o‘ynashi mahoratini puchga chiqaradi. Ba’zi paytlarda xalaqit beruvchi, e’tibordan chetda qolgan bir qism ham rolni tanib bo‘lmas darajada o‘zgartirib yuborishi mumkin va yaxshilash uchun xizmat qilinishi lozim bo‘lgan barcha amallar boshqacha urg‘u olishi mumkin.

Libos eskizi saviyali topilib, liboschi-tikuvchilar tomonidan yaxshi tikilishi deganimizda, shu libosning juda qat’iy, chegaraviy bir davrga xos yaratilishi kerak, degan tushunchadan xolimiz. Ba’zida davrning tabiiy libosini yaqqol ravishda yaratishga umuman imkon bo‘lmaydi. Bunday holda o‘sha davr timsolini topmoqlik eng asosiy ishga aylanadi. Chunki biz sahnada keraksiz bo‘lgan muzey eksponatini ta’mirlash bilan emas, balki libosning mohiyati, ma’nosini yaratish bilan shug‘ullanmog‘imiz darkor. Teatr libosi — bu manbaviy tasvirlarni nusxalash emasdir. Uni bilish, qayta ishlash zarur, ammo u modaga xos bo‘lgan surat emas, balki tirik qahramon libosidir. Qahramon doim ham o‘sha davr modasiga xos suratda kiyinishi mumkin emas. Modaga xos shamoyilga binoan kiyinish poytaxtlarning boy-amaldor qatlamlarigagina mos bo‘lgan odatdir. Albatta libos yaratishda ma’lum bir davrda mavjud bo‘lgan shakllardan kelib chiqilishi zarur. Biroq undan ertaroq davrdagi shakldan ham foydalanish mumkin, chunki keyingi zamonda eskilik unutilmay, uzoq saqlanib turgan bo‘ladi. Agar voqea-hodisa qishloqlarda kechayotgan bo‘lsa, qadimda u yerda moda doim ortda qolib yurganini hisobga olmoq zarur. Bu mayda ishlarni ko‘zdan qochirmaslik juda ham zarurdir. Agarda, barcha qahramonlar modaga xos kiyingan bo‘lsa, unda sahnada asar namoyishi emas, liboslar ko‘rigi bo‘lib qoladi. Sahnada haqiqiy hayotdagi kabi turlicha kiyingan insonlar aralashmasi bo‘lgani ma’qul.

Qahramon yoshi va uning jamiyatning qanday qatlamiga tegishli ekanligini hisobga olish juda muhim. Kompozitsiya yaratish jarayonida ma’lum bir asardagi davrni ifoda etuvchi liboslar, davrga xos hatti-harakatlar va yurish-turishlar haqida bilimga ega bo‘lish lozim. Kompozitsiyada libos timsol chiqishiga yordam bersa, libos kiydirilgan qomatga ma’lum bir davr sifatini bag‘ishlasa, qahramonning ruhiy holati va ichki dunyosini batafsil ko‘rsatilishiga ko‘maklashadi. Buning uchun rassom-modelyer buyuk badiiy asarlar va portretlarni ko‘rish bilan chegaralanmay, V.Gyugo, A.Dyuma, O. de Balzak kabi xorijiy adiblar asralarini o‘qishi, shuningdek, millatimizning Alisher Navoiy, Bobur,

Abdulla Qodiriy kabi mumtoz yozuvchi va shoirlarimiz yozib qoldirgan durdona asarlar haqida chuqur bilimga ega bo'lishlari kerakdir.

Liboschi-rassom asar mazmuni va mohiyatini to'liq tushunib, uni o'zlashtirgandan so'ng qahramonlarning timsolini chizma tasvirlarda aks ettiradi. Bunda u asar «ohangiga» e'tiborni qaratib, kompozitsiyalar yaratishda o'ziga xos ijod uslubini tanlaydi. Har bir rassomning o'z ijod uslubi mavjud bo'lganidek har bir asarda ham, agarda unga e'tibor bilan qaralsa, o'ziga xos uslub mavjuddir. Rassom asardagi ushbu uslubni topsa, u yaratayotgan qahramonlar timsoli hayotiy va yorqin chiqadi.

Masalan, muqova forzatsida berilgan 7- rasmda biz Sh. Rashidovning «Kashmir qo'shig'i» asariga ishlangan bir necha kompozitsiyalarni ko'ramiz (muallif A.Sharipova, ish rahbari O.Ignatyeva). Asar qadimgi hind rivoyatlariga asoslangan bo'lib, tabiat mavjudotlari: gullar, asalari, ularga ozor yetkazuvchi bo'ron va dovullar timsoli orqali sevgi va sadoqat, mardlik va jasurlik, go'zallik va nafosat tuyg'ularini bayon etgan. Rassom-modelyer ushbu asar qahramonlarining hind milliy liboslari ko'rinishlarini asos qilib olib, ularni o'ziga xos plastik yo'nalish bilan ifoda etgan. Kompozitsiyalarda qahramonlarning ruhiyati va tavsiflari o'zining yaqqol aksini topgan. Nargiz gulining timsolida nozik va sharqona nafosat iforini sezsak, asalari — Bambur qahramonining kuchli, jasur va mard himoyachi ko'rinishida namoyon bo'lishini kuzatamiz. Salbiy qahramon Bo'ron gullar va arilarga ozor yetkazadi. Shuning uchun uning timsolida o'zida jaholat tuyg'usini jo etgan yovuz va ulkan maxluqni ko'ramiz. Rassom-modelyer ushbu asarga kompozitsiyalar yaratar ekan, har bir timsolning tavsifini aks ettirishga harakat qilgani yaqqol ko'rinib turibdi.

Muqova forzatsidagi yana bir rasmda (10- rasm) nemis yozuvchisi M.Endening «Uzluksiz kitob» asariga ishlangan kompozitsiyalarni ko'rmoqdamiz (muallif S.Kobiliva). Bu o'rinda rassom-modelyer o'z qahramonlarini «dekorativ» usulning o'ziga xos yo'nalishida aks ettirgandir. Asar Dunyo yuzidan yo'q bo'lib ketayotgan «Fantaziya» orolchasini qutqarishga shay turgan yosh bola —Atreyoning jasurligi va mardligi haqidadir. Rassom ham o'z qahramonlarini go'yoki tuman ichida yo'q bo'lib borayotganday tasvirlash usulini topgan. Eskizlar balet janriga mos ishlanganligi uchun qahramonlar liboslarida baletga xos yengillik, plastika va tejamkorlikni kuzatamiz. Bunday misollarni ko'plab keltirish mumkin, ammo shuni bilish muhimki, rassom-modelyer biron-bir asarga eskizlar yaratishidan oldin, asarning nafaqat mazmunini tushunmog'i, balki uni yoritib berish uslubini ham topmoqligi ayni

muddaodir. Asar uslubini topa olish esa qahramonlarning ruhiy-jismoniy holatlarining jonli, aniq va yaqqol chiqishi demakdir.

Amaliy mashg'ulotlar

1. *Ixtiyoriy sahna asari qahramonlarining ruhiy-jismoniy holatidan kelib chiqib, tasvirlarni yaratib va ularni ma'lum bir o'lchamga komponovkalashtiring.*

2. *Ixtiyoriy qiziqarli mavzuda qahramonlar timsollarini o'ylab topib, ularning tavsiflaridan kelib chiqqan holda tasvir va rang yechimlarini toping.*

3.3. MIZANSAHNALARDA LIBOSLAR KOMPOZITSIYASI

Teatr jamoasi – aktyor, dekorator-rassom, kompozitor va boshqalar bilan hamkorlikda yaratilib, postanovkachi-rejissyor tomonidan boshqariladigan sahnaviy asar san'ati **spektakl** deb nomlanadi. Drama teatrlarda spektakl tayyorlash ishlari pyesa tanlashdan boshlanadi. Pyesa ma'lum bir guruh tomoshabinlarining estetik va ruhiy talablarini hisobga olinib tanlanadi. Spektakl g'oyalaridan, uning janri, uslublaridan kelib chiqib, postanovkachi pyesani umumiy ravishda tushuntirib beradi; uning asosiy rollarini aniqlab, sahna asarining sahnaviy shakli (dekorasiya, liboslar, grim, musiqaviy ma'no va vazifalar, yorug'lik, sahnaviy matn va boshqalar)ni tuzadi. Spektakl postanovkasini tuzishdagi eng asosiy paytlaridan biri – uning mizansahnasini aniqlab olishdir. Spektakl mizanssenalari, libos va grim ishlari nihoyasiga yetgazilgach, sahnada yana bir bor aniqlik kirgiziladi. Yorug'lik tushirish usullari va musiqalar tanlanib, umumiy spektakl jonlantiriladi.

Mizansahna – (fransuzcha mise en scene – sahnada joylashtirish) spektaklning ma'lum bir vaqtda teatr liboslari kiygan aktyorlarning joylanishidir. Pyesaning ichki tarkibini timsolli ochib bera oladigan zarur vositadir. Mizansahna spektakl haqidagi rejissyor g'oyasining mavjud komponenti. Mizansahna tuzish jarayonida janr va uslub o'z mavqeini topadi va rejissyor undan kelib chiqib sahnaviy shaklga ruh bag'ishlaydi. Aniq mizansahnani tanlab olishda teatr liboslari rassomi yaqindan yordam beradi. U rejissyor va teatr rassomi fikrlarini dastlabki eskizlar yordamida oydinlashtirib, aktyorlarning timsollarini liboslar yordamida ochib berish uchun ko'mak beradi. Sahnada asarlarini ijro etuvchi qahramonlar liboslarining kompozitsiyasini mizansahna usulida topilishi liboslarning jonliroq, yaqqol va aniq chiqishiga yordam beradi. Chunki bunday kompozitsiyada bosh qahramonlar yoki ularning barchasi yagona «sahnaga» jamlanadi. Bu yerda kim salbiy, kim ijobiy qahramon; qaysi hajmliroq, qay biri ingichka; boylik va kambag'allik kabi holatlarning

teng va yaqqol taqqoslanishini ko'ramiz. Shuningdek, ularni solishtirib qaramoq imkoniyati ham paydo bo'ladi.

Bosh qahramonlarning kompozitsiyasi aniq chiqishida yordam berib, sahnaviy davr muhitini aks ettiruvchi qahramonlar — *massovkalar* hisoblanadi. Ular doimo orqa planga joylashtirilib, liboslari tomoshabin ko'ziga yaqqol tashlanmaydigan sokin va kam tusli ranglarda ishlanadi. Ulardan sahnaviy asar ruhining jonliroq chiqishiga yordam berish va bosh qahramonlarning timsolini ochib berishda xizmat ko'rsatish talab etiladi. Sahnada asar ijro etilayotgan paytda ham ular sahnaning orqa planida bo'lib, bosh qahramonlar sahna markazidan uzoqlashgan taqdirdagina nazarga aniq tushishlari mumkin.

Mizansahnalar tuzish jarayonida har bir qahramonning shakllari aniqlanib, ularning bir necha eskizlari tuziladi. Har bir eskiz avval siluet holiga keltirilib, ma'lum bir o'lchamga joylashtiriladi. Qahramonlar ichidan shakllari yirik va murakkab bo'lgan bosh qahramonlar tanlab olinib, avval ular komponovkalanadi. Ular o'lchamda o'z joylarini topganlaridan so'ng, ikkinchi darajali qahramonlar siluetlari joylashtiriladi, oxirida esa massovkalar kompozitsiyani to'ldirib tugallaydi.

Siluetli shakllar o'z o'rinlarini topib, eng maqbul komponovkalari yaratilgandan so'ng, ularni aniqlashtirish ishlari boshlanadi. Liboslarga konstruktiv, dekorativ chiziqlar beriladi, naqshlari topilib, timsollari ustida izlanish olib boriladi. Bu yerda qalamtasvir va rangtasvir kurslaridan olingan bilimlar juda asqotib, har bir qahramonning o'ylanayotgan zarur qiyofasi chiqishiga yordam beradi. Tasvirlash ishlari nihoyasiga yetgandan so'ng, mizansahna kompozitsiyasida rang yechimlarini va rang majmuini topish, rang dog'larini taqsimlash ishlari amalga oshiriladi. Bunda bosh qahramonlar uchun, albatta, yuqorida aytilgan fikrlash o'z aksini topmog'i — spektakldagi vazifalari mohiyatidan kelib chiqib, ular uchun yorqinroq, faolroq ranglar tanlanmog'i darkor. Ikkinchi darajali qahramonlarga jadalligi sustroq ranglar majmui va massovkalar uchun esa bir tusli ranglar uyg'unliklari tanlab olinishi zarur. Ushbu ish jarayonida, albatta, kompozitsiyaning asosiy rang majmuiga e'tibor beriladi. Kompozitsiyaning ranglari yechimi topilgandan so'ng liboslar naqsh va bezaklar orqali yanada aniqlashtiriladi. Shunday usulda mizansahna kompozitsiyalari o'z yechimlarini topadi (muqovadagi 9-rasmda K.Gotsining «Uch apelsinga bo'lgan muhabbat» asariga kompozitsiya ishlangan. Muallifi: U.Ataxanova, ish rahbari O.Ergasheva).

Kompozitsiyalarning aniq, saviyali, asarga mos va qiziqarli chiqishi rassom-modelyerning mahoratiga, rangtasvirni qay darajada o'zlash-

tirganiga va fantaziyasining quvvatiga bog'liq ekanligini aniq tasavvur qilmoq kerak.

Amaliy mashg'ulotlar

1. *Ixtiyoriy sahna asari uchun mizansahna ko'rinishida liboslar kompozitsiyasini qiziqarli komponovka tasvirlarini toping.*

2. *Ma'lum bir o'lchamda ertak ko'rinishidagi sahnaviy asar uchun liboslar eskizlarini mizansahna ko'rinishida ishlab, uning qahramonlari sifatlariga xos rang yechimlarini toping.*

3.4. OMMAVIY SAHNALARDA LIBOSLAR KOMPOZITSIYASI

Teatr – (yunonchadan theatron – tomosha uchun joy, tomosha qilish) boshqa san'at turlari kabi xalqning hayoti, milliy tarixi va madaniyatini aks ettiradi. Teatrda qo'yiladigan sahna asari yuksak insoniy g'oyalarni tarannum etib, inson ichki dunyosining murakkabligini ochib bersagina haqiqiy badiiy asar darajasiga yetadi. Hayotning badiiy aks ettirilishi teatrda tomoshabinlar huzurida aktyorlar tomonidan ijro etiladi. Sahna asarining mazmuni sahna va tomoshabinlarning ruhiy birlashib ketishini talab etadi. Teatrda qo'yiladigan sahna asarlari xalqqa madaniy va estetik tarbiya berishda katta ahamiyatga egadir. Chunki u boy, badiiy umumiylik vositalariga egadir.

Hozirgi kunda O'zbekistonda teatrlar mavqeini oshirish sharoitlari jahon talablariga javob beradigan darajada yuksalmoqda. Mamlakatimizda 37 ta professional teatrlar faoliyat ko'rsatmoqda, jumladan: A. Navoiy nomidagi O'zbekiston Davlat Akademik katta teatri, O'zbek Milliy Akademik drama teatri, Muqimiy nomidagi musiqiy drama teatri, Y. Oxunboboyev nomidagi yosh tomoshabinlar teatri va boshqa teatrlarda ko'plab xalqimizga manzur asarlar sahnalashtirilib, tomoshabinlarga xavola etilmoqda. Ularda buyuk ma'naviy merosimiz, betakror qadriyatlarimiz, o'zbek milliy teatri an'analarini izchil davom ettirish, ularni yangi davr talablari asosida boyitib borish va rivojlantirish, bu sohadagi ilg'or an'analarni milliy ruh bilan uyg'unlashtirgan holda teatr san'atiga tadbiq etishga harakat qilinmoqda. Teatrlarda ko'plab turli janr va mavzularda yangi asarlar sahnalashtirilib, ularda xalqimiz, ayniqsa yosh avlod ongini ma'naviy, ma'rifiy, estetik jixatdan boyitish, vatanparvarlik tuyg'ularini ulug'lash spektakllarning tomoshaviyligini oshirishga e'tibor qaratilmoqda. Hozirgi kunda teatr rangtasviri tom ma'noda professional yo'lga tushib oldi. Rassomlar endi shunchaki

rejissor ko'rsatmalari bilan ish ko'ruvchi ijrochidan spektaklning konsepsiyasida o'z o'rni, o'z ovoziga ega bo'lgan ijodkorga aylana boshlandi. Sahnasining badiiy yaxlitligi uchun sahnalashtiruvchi rejissor bilan bab-barobar javob beruvchi shaxs sifatida tanila bormoqda.

Shu yerda rassomlarning yangi avlodiga yetakchi bo'lgan ist'edodli teatr rassomi Georgiy Brinning (1935—1999) ijodi haqida to'xtalib o'tish joizdir. U sahnalashtirgan asarlarida liboslarning eskizlarini ham o'zi yaratib, har bir qahramonlarning qiyofalarini chizgilarda katta mahorat bilan ochib bera olgan. Milliy teatrdasahnalashtirilgan «Nodirabegim», «Yulduzli tunlar», «Zebuniso» kabi spektakllar shundan dalolat beradi. Bu uch yirik tarixiy asarlarning badiiy bezagi, liboslari uning nazorati ostida tayyorlangan. Libos va bezalardagi har bir ko'rinish, har bir unsur tomoshabinga ma'lum bir ma'lumot beribgina qolmay, muayyan g'oya belgisiga aylanadi. Mana shu belgilar spektaklni birinchi o'ringa olib chiqib, timsollarning yaratilishida qatnashadi. Rassom voqealarda qatnashuvchi qahramonlarning o'z qiyofalari bilan sahnada yaratilgan muhitda qanday ko'rinish olishiga katta e'tibor bergan. U «Buxoro» spektakli uchun liboslar va qahramonlarning qiyofalarini yaratishda ham shunday yo'l tutgan. Chunonchi, Oyxonbibi (S. Eshonto'rayeva) o'rta yashar bir ayol bo'lib, uning egnidagi uzun va keng buxorocha ko'ylakning, yoqasi va yenglari pirpirak qilib tikilgan, uning ustidan adras ko'ylak, yoqasi uchburchak qilib o'yilgan va zexlariga kashta tikilgan. Boshida uzun shoyi ro'mol va chiroyli qilib tang'ib bog'langan peshonaband. O'zaro to'qnashuvda Oyxonbibidan yengiluvchi Mirzo Urganchning (N. Raximov) shafqatsiz va zolim qushbegi qiyofasida gavdalanadi: egnida uzun kamzul, oyog'ida poshnali etik, soqol mo'ylovi ixcham qilib taroshlangan. Ortiqcha bezanmagan. Qiyofasidan o'ziga qattiq ishongan, uncha-munchani pisand qilmaydigan, maqsadi yo'lida hech narsadan toyimaydigan kishi. Shu tarzda spektaklning ikki «qutbida» harakat qiluvchi shaxslarning liboslari va aft-angorlarida ularning eng muhim jihatlari o'z ifodasini topadi, ortiqcha bezaklar, etnografik tafsilotlarga yo'l qo'yilmaydi. Hatto Said Olimxon (T. Azizov) ko'rinishida ham ortiqcha dabdabani ko'rmaymiz.

Shunday qilib, sahnada manzaralar, buyumlar, jihozlar bilan birga spektakl qahramonlari timsoli o'zaro jonli muhitga aylanadi. Ushbu muhit spektakllarda mavzulari va janrlariga qarab har xil shaklda yaratilishi mumkin, liboslar, pardoz va pariklar esa timsollar mohiyatini aks ettirishda eng muhim ifoda vositasi bo'lib xizmat qiladi. Sahnada paydo bo'lgan qahramon hali bir og'iz so'z aytmasidanoq, tomoshabin

uning timosli, ko'rinishi orqali u haqida ko'p axborot va ma'lumotga ega bo'lishi kerak, bu vazifa liboschi-rassomlardan katta mas'uliyat va mahorat talab etadi.

Azaldan tomoshabinlar tomonidan zo'r qiziqish bilan qarshi olinadigan asar K. Gossining «Malikai Turandot» spektakliga ishlangan kompozitsiyani misol tariqasida keltirishimiz mumkin (muqovadagi 6-rasmga qarang, muallif, Sh.Sadirova, ish rahbari, O.Ignatyeva). Ushbu asarni yozgan muallif Yevropada yashab, ijod etgan bo'lib, o'z asarida qadimgi Xitoy mamlakatida sodir bo'layotgan voqea-hodisani bayon etgan. Eskizlar yaratgan rassom qahramonlar timsolini asar muallifining «nazari» bilan his qilishga intilganligi ko'rinib turibdi. Liboslar Xitoyning tarixiy milliy liboslari va naqshlariga «yevropacha» yondoshish asosida yaratilgandir. Bu yerda har bir qahramonning tabaqasi, ijtimoiy kelib chiqishi, tavsifi, ruhiyati aniq o'qiladi. Go'zallikda tengi yo'q malika Turandotning nozi, Xitoy imperatorining savlati va qudrati, Eron shahzodasining malikaga bo'lgan mehri, sevgisi va sadoqati plastik tasvirlar, ranglar majmui uyg'unliklari, komponovkalar orqali ifoda etilgan. Liboschi-rassom tomonidan yaratilgan ushbu eskizlardan tikuvchilar liboslarning nechta detallardan iboratligi, detallarning texnik surati, ularning bichimlari, texnik ishlov berish turlari, naqshlar, matolarga bezak berish usullarini hech qanday qiyinchiliksiz o'qiy olish mumkin. Eskiz tuzishda asosiy vazifa ham ana shundadir. U rassom bo'lishi bilan birga modelyer, texnolog, tikuvchi, matoga bezak beruvchi ham bo'lishi shartdir, aks holda rassom yaratgan liboslar tikuvchilar tomonidan tushunilmay, ancha tortishuvlarga sabab bo'ladi.

Liboschi-rassom ma'lum bir sahna asari uchun libos eskizlari yaratishdan oldin, asarni chuqur o'rganmog'i lozim. Asar unga ilk chizgilari uchun ilhom manbai bo'lishi darkor. Har bir rassom asardagi qahramonlarni o'zining «nazari» bilan ko'radi. Biroq, rassom postanovkachi-rejissyor, postanovkachi-rassom va aktyorlar takliflarini inobatga olib, ular bilan hamohang ish yuritishi zarur. Har bir rassom ijod tilini mukammal bilishi darkor, u fikrlayotgan, izlayotgan qahramon timsolini tasvir orqali aks ettira olishi kerak. Buning uchun: asarning muallifi, asar yozilgan davri va joyi, janri haqida chuqur bilimiga ega bo'lishi muhimdir.

Amaliy mashg'ulotlar

1. Ixtiyoriy asarga bir qahramonning tavsiflari va xossalaridan kelib chiqib, uning 10—15 ta tasvirlarini yarating.

2.Ma'lum bir asarga liboslar kompozitsiyalarini yarating.

3.Asardagi davrni voqea-hodisalar va makonni, shuningdek, qahramonlar tavsifini hisobga olib kompozitsiyalar yarating.

3.5. BOLALAR SPEKTAKLI USTIDA ISHLASH

Bolalarning dunyo haqida fikrlashi — fantaziyaga juda boy va rang-barangdir. Ular dunyoga kelgan ilk paytlaridanoq, uni o'rganishga, axborot olishga qiziq boshlaydi va har bir voqea-hodisa uning nazaridan chetda qolmaydi. Shu sababli jamiyatimizning bu kichik a'zosini yetuk, mehnatsevar, vatanparvar, mehribon, madaniyatli va aqlli inson qilib tarbiyalash kattalar uchun g'oyat mas'uliyatli vazifadir. Bu go'zal xislatlarni yosh go'dakka singdirishga esa ertaklar yordam beradi. Ertaklar orqali jaji bolakaylar qalbiga yo'l topib, ularga nima yomon-u nima yaxshi ekanligini tushuntirsa bo'ladi. Ertaklarga qattiq ishonadigan bolalar ijobiy qahramonlarga mehr qo'yishadi, ularga achinishadi, rahmlari keladi, salbiy qahramonlardan qutqarish yo'llarini barobar izlashadi, xullas, ertakni biz kattalardan farqli o'laroq butun vujudlari bilan tinglashadi.

Sahnalashtirilgan ertaklarni tomosha qilish bolalarda fantaziya qilish, fikrlash qobiliyatini rivojlantirib, fe'llarida madaniyatlilikni shakllantiradi. Bolalarga, biz kattalardan ko'ra, dunyo sodda va samimiy ko'rinadi. Ular so'z o'yinini va hazillarni tushunmagani kabi, sahnada murakkablashgan unsurlarni o'zida jo etgan libosni kiyib turgan qahramonni ham tushunmasligi mumkin. Ertak-pyesani mazmunini tushunarli yetkazish uchun ularga soddalashtirilgan liboslar ham yordam berishi kerak.

Bolalar spektakli uchun yaratilgan har bir libos qahramon haqidagi axborotni sodda tarzda — bolalar tasavvuriga xos tarzda ko'rsatib turishi kerak. Buning uchun avval tanlangan qahramon libosning shakli ustida ish olib borishi zarur. Masalan, qahramon o'simlik yoki jonivor bo'lishidan qat'iy nazar, uning libosi shaklini bosh kiyim, ko'ylak, yubka yoki shim, plash, poyafzal va boshqa shu kabi detallarga o'tkazish yo'lida ish olib boriladi. Shakllar plastikasi mazkur tanlangan qahramonning shaklidan kelib chiqadi. Dumaloqroq meva libosining detallari — ko'ylak, yeng, bosh kiyim va hokazolar, o'z navbatida, dumaloq shaklda bo'ladi. Bu jarayonda bir qahramonga bir qancha tasvirlar chiziladi va eng maqbuli ular ichidan tanlab olingach, keyingi jarayon — rang tanlash ishlari boshlab yuboriladi.

Bolalar dunyoni kamalakning yetti xil ranglarida ko'radi. Ular uchun zumdrang, sarg'ish-yashil, o'trang-yashil ranglar birday —

yashil nomi bilan ataladi. Shuning uchun bolalarda rang ko'rishning ushbu xususiyatidan kelib chiqib, qahramonlar liboslarining rang yechimini topish jarayonida yorqin va toza ranglardan «urg'u» sifatida foydalanish darkordir.

Libos shakli tayyor bo'lgandan so'ng, uning qismlariga rang berish jarayoni boshlanadi. Rang berishda bitta asosiy va 2–3 ta qo'shimcha ranglardan foydalaniladi. Asosiy rang libos kompozitsiyasida hukmron rang bo'lib, u qahramonning shakl-u-shamoyili, hulq-atvori, ruhiyati va hissiyotidan kelib chiqib tanlanadi. Bunda rang xususiyatlarini mukammal bilish zarur. Chunki mazkur kitobning yuqori bo'limlarida aytib o'tilganidek, har bir rang inson ruhiyatiga o'z ta'sirini o'tkazadi. Asosiy rang tanlab olingandan so'ng uni boyituvchi, bezak beruvchi va timsolni yanada aniqlashtiruvchi qo'shimcha ranglar uyg'unliklari topiladi.

Bolalarning sevimli e'rtaklaridan bo'lgan Korney Chuykovskiyning «Oypashsha» e'rtagini olib qaraylik. Barcha qahramonlar bosh qahramon Oypashshaning umumiy rangidan tus olganlar (muqovadagi 8- rasimga qarang. Muallif L.Abdullayeva, ish rahbari F.G'ofurova). Ularning kompozitsiyalaridan biz mayda hasharotlarning yengil shakllarini kuzatamiz. Har bir qahramonning libosi hasharot sifatidan, tavsifidan kelib chiqqan holda yaratilib, ularning timsollarini sodda va tushunarli tarzda keng yoritib bermoqda.

Bolalar go'yo e'rtaklarda yashaydilar. Ularni sodda va beg'ubor pok qalblariga soya tashlovchi taassurotlardan ehtiyot qilishimiz darkor. Hozirgi zamonaning reklama roliklari, ba'zi bir filmlar, kompyuter o'yinlari, xorijdan kelayotgan mujmal tasvirli multfilmlar bolalar tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Bolalarni toza qalblarini saqlab qolish, ulardan kelajakda yetuk va har tomonlama yuksak insonni shakllantirish esa kattalarning qo'lidadir. Shunday ekan, ularga bolalik o'y va fikrlarini parvoz beruvchi, fantaziya qilishlari uchun zamin barpo etuvchi, mehr-u muhabbat bilan yo'g'rilgan to'laqonli asarlar yaratmog'imiz darkor.

Amaliy mashg'ulotlar

1. Bolalarga mos e'rtak asarlarni o'qib chiqib, qahramoniga oid 10–15 ta libos tasvirlarini yarating.
2. Ertak spektaklga liboslar kompozitsiyasini yaratib, uning qahramonlariga rang majmualari tanlang.
3. Ma'lum bir o'ldamga e'rtak spektakl uchun tuzilgan liboslar kompozitsiyalarini komponovkalarini toping va uni ranglari yechimini bering.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

Малахова С. А. Специальная композиция печатного рисунка на текстильных материалах. М., Лёгкая и пищевая промышленность, 1984

Емельянович И. И., Бесчастнов Н. П. Печатный рисунок на ткани. М., Легкая промышленность и бытовое обслуживание, 1990

Козлов В. Н., Журавлева Т. А., Ельтищева Е. А. Художественное оформление текстильных изделий. М., Легкая промышленность и бытовое обслуживание, 1988.

Арманд Т. Орнаментация тканей. М. —Л., Academia, 1931.

Соловьёв В. Л., Болдырёва М. Д. Ивановские ситцы. М., Легкая промышленность и бытовое обслуживание, 1987.

Захаржевская Р. В. Костюм для сцены. М., Советская Россия, 1974.

Градова К. В., Гутина Е. А. Театральный костюм. М., Всероссийское театральное общество, 1976.

Пармон Ф. М. Композиция костюма. М., Легкая промышленность и бытовое обслуживание, 1985.

Каминская Н. М. История костюма. М., Лёгкая индустрия, 1977.

Козлинский В. И., Фрезе Э. П. Художник и театр. М., Советский художник, 1975.

Leon Bakst. Seland Costume designs paintings and graphic works.

Aurora art publishers Leningrad, 1986. Printed and bound in Australia

Стриженова Т. К. Наталья Васильевна Кирсанова. Л., Художник РСФСР 1976.

Egamon A. Kompozitsiya asoslari. T., «San'at» jurnali nashri, — 2005.

Qo'ziyev T., Egamon A., Qanoatov T., A. Nurqobilov. Rangtasvir. T., «San'at» jurnali nashri, 2005.

Киреева Е. В. История костюма. М., Просвещение, 1970.

Горина Г. С. Моделирование формы одежды. М., Лёгкая и пищевая промышленность, 1981.

Журнал «Burda moden» Германия, №9, 2002.

Журнал «Burda moden» Германия, №7, 2003.

Интернет: www.cultinfo.ru/fulltext/ - спектакль.

Интернет: www.scit.boom.ru/music/teatr/what_takoe_teatr. — что такое театр?

Интернет: www.scit.boom.ru/music/teatr/zarubejniy_teatr. — зарубежный театр.

Интернет: www.job.extra.kz/prof/art=modelyer.

MUNDARIJA

Kirish.....	3
-------------	---

I BOB. Kompozitsiya asoslari

1.1 Kompozitsion yaxlitlik	5
1.2. Metrik va ritmik tuzilish qonuniyati.....	10
1.3. Simmetriya va asimmetriya.....	13
1.4. Kontrast, nyuans va o'xshashlik.....	15
1.5. Bezakli kompozitsiya tuzish.....	17
1.6. Rang. Rang uyg'unliklari.....	21

II BOB. Badiiy libos kompozitsiyasi

2.1. Libos — ijodiy san'at. Libos kompozitsiyasini tuzishdagi umumiy qoidalar.....	26
2.2. Libosda badiiy timsol.....	32
2.3. Shakl va hajm.....	36
2.4. Kompozitsiyada vazn va muvozanat.....	40
2.5. Siluet va uning ahamiyati.....	44
2.6. Libosda chiziqlar ahamiyati.....	47
2.7. Nisbatlar.....	50
2.8. Simmetrik va asimmetrik mutanosiblik.....	53
2.9. Statika va dinamika.....	56
2.10. Libosda metr va ritm tushunchasi.....	59
2.11. Kompozitsion markaz.....	62
2.12. Faktura va unsurlash.....	64
2.13. Libosda rangning berilishi.....	67
2.14. Rang ustuvorligi.....	71

III BOB. Tarixiy-teatr liboslari kompozitsiyasi

3.1. Sahna asarida ranglar gammasini mavzuga bog'liq holda aks ettirish.....	73
3.2. Asarda qatnashuvchilarning ruhiy-jismoniy holatidan kelib chiqqan holda libos kompozitsiyasini yaratish.....	75
3.3. Mizansahnalarda liboslar kompozitsiyasi.....	79
3.4. Ommaviy sahnalarda liboslar kompozitsiyasi.....	81
3.5. Bolalar spektakli ustida ishlash.....	84

**Gulchehra Alimova,
Malika Mirsodiqova**

TARIXIY-TEATR LIBOSLARINI LOYIHALASH SAN'ATI

Kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma

Muharrir Ra'no Azimova

Badiiy muharrir Shuhrat Odilov

Texnik muharrir Yelena Tolochko

Musahhiha Mahmuda Usmonova

Kompyuterda sahifalovchi Dilnoza Mansurova

Bosishga ruxsat etildi 14. 08. 2007. Bichimi 60×84¹/₁₆. Tayms TAD garniturası. Shartli b.t. 5,5. Nashr b.t. 4,98. Shartnoma № 108–2007. 400 nusxada. Buyurtma № 21.

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligining Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi texnika va dasturlar bazasida chop etildi. 100129, Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30- uy.

85.33

A50

Alimova G.

Tarixiy-teatr liboslarini loyihalash san'ati. Kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'll./G.Alimova, M.Mirsodiqova; O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta-maxsus ta'lim vazirligi, O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazi. — T., Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2007 — 88 b.

BBK 85.33ya722



6



7





Cholpan
NMIU

ISBN 978-9943-05-127-0



9 789943 051270